

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIM VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
BOSHLANG'ICH TA'LIM USLUBIYOTI FAKULTETI
BOSHLANG'ICH TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI

M.Ernazarova
Sh.Rahmatov
A.Botirova
**ONA TILIDAN
MA'RUZA MATNLARI**

**(fonetika, orfoepiya, orfografiya, grafika,
frazzeologiya, leksikografiya)**

Navoiy – 2008 yil

Ushbu ma'ruza matnlari Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasining 27- avgust 2008 yil 1-sonli yig'ilishida muhokama e'tilib, chop etishga tavsiya qilingan.

Tuzuvchi: p.f.n. M.Ernazarova, A.Botirova, Sh.Rahmatov

Mas'ul muharrir: dots. M.Suyunov

Taqrizchilar: p.f.n. A.β.Bobomurodova
Til va adabiyot ta'limi metodikasi kafedrasini mudiri
X.Qurbonova

Hozirgi zamon o'zbek tilidan tuzilgan ma'ruza matnlari boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish bakalavr yo`nalishi talabalari uchun mo`ljallangan.

1-BOB.

KIRISH.

Mavzu: O'zbek tili-O'zbekiston Respublikasining Davlat tili

Dars rejasi:

- 1.Til ijtimoiy hodisa.
- 2.O'zbek tili – O'zbekiston Respublikasining Davlat tili.
- 3.O'zbek adabiy tili va uning tayanch dialekti (lahjasi).
- 4.Adabiy tilning og'zaki va yozma shakllari.

Adabiyotlar:

- 1.**Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T,1980y. 19-24 betlar.**
- 2.Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev SH. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 1992y. 3-7 betlar.
- 3.Abdurahmonov G., Mamajonov S. O'zbek tili va adabiyoti. T., 1995 y 5-23-38 betlar.
- 4.Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. T., 1993 y 19-22 betlar.
- 5.Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. T., 1981y 17-19 betlar.
- 6.Rustamov A. So'z xususida so'z. T., 1987y 6-13 betlar.

1.Til insonga, inson jamiyatga xos bo'lgan hodisadir. Til insonlar orasida aloqa vositasi bo'lgan bir qurol.

Til ma'lum bir fikrni ifodalaydi, shuning uchun insonlar gaplashganda o'z fikrlarini bildiradilar, fikr almashadilar. Shu bilan birga, gaplashuv orqali, fikr olishuv yo'li bilan inson o'z fikrini to'ldiradi, chuqurlashtiradi ham. Til fikr bilan chambarchas bog'langan. Til ong qadar eskidir. Ong, fikr paydo bo'lishi bilan til ham paydo bo'ladi.

Til tizimdir. Uning turli sohalari, tovushlari, so'zlari, qo'shimchalari, gap qurilishi bir-biri bilan bog'lanib, yagona bir sistemani tashkil etadi.

Til bir jihati, ya'ni tovush tomoni bilan tabiiy, yana bir jihati nutqiy qobiliyat tomoni bilan yakka shaxsga xos. Ammo, mohiyat e'tibori bilan jamiyat taraqqiyotining mahsuli bo'lib, ijtimoiy hodisadir. Bolaning qaysi tilda so'zlay boshlashi uni o'rab turgan til muhitiga bog'liq. Misol uchun, o'zbek bolasi go'dakligidan ruslar orasida tarbiyalansa, u faqat ruscha so'zlab, o'z ona tilini bilmasligi mumkin. Ammo bolaning biologik belgilari (yuz tuzilishi, sochining rangi va h.) o'zgarmagan holda saqlanib qoladi. Yana misol sifatida Maugli va bo'rilar orasida o'sgan ikki qizni misol qilsak bo'ladi.

Til juda katta ma'rifiy ahamiyatga ega. Mavjudotning mohiyatini, haqiqatini bilish «ma'rifat» deyiladi. Tilning ilmiy ahamiyati oddiy bilim bilan cheklanmay, ma'rifatni, ya'ni bilishning eng oliy martabasini o'z ichiga oladi.

Til kishilar orasida so'zlashish vositasigina bo'lib qolmay, til tufayli jamiyat a'zolarining har birida hosil bo'gan bilim ommalashib, uning ko'pchilik tomonidan rivojlantirilishiga imkon tug'iladi. Undan tashqari til tufayli bilim avloddan -avlodga og'zaki va yozma tarzda qoldiriladi, natijada yangi avlod o'tgan avlodning ishini yangidan boshlamasdan, uni davom ettiradi. Ya'ni til o'tgan avlodlar tajribasi, bilimlari natijalarini kelgusi avlodga yetkazuvchi ko'prikdir. Kishilar hayot

tajribalari, ilmiy yutuqlarini so'zlarda, gaplarda, kitoblarda yig'adilar va ular avloddan-avlodga o'tib, boyib, rivojlanib boradi. Bu bilan yana taraqqiyot ta'minlanadi. Bular esa tilning ulkan ma'rifiy ahamiyatidir.

Tilning boshqa ijtimoiy hodisalardan ajralib turadigan eng asosiy xususiyati shundan iboratki, til jamiyat faoliyatining barcha sohalariga xizmat qiladi. U kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratilgan konkret-tarixiy norma sifatida jamiyat a'zolarining hammasiga teng xizmat qiladigan asosiy aloqa vositasidir.

Shunday qilib, til kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan, unga xizmat qiladigan va har doim rivojlanib turadigan o'ziga xos ijtimoiy hodisadir.

2.1989 yil 21 oktyabrda o'n birinchi chaqiriq O'zbekiston oliy Kengashining o'n birinchi yig'ilishida (sessiyada) O'zbekiston Hukumatining Davlat tili haqidagi Qonuni qabul qilindi.

Qonun o'zbek tiliga davlat tili maqomini berdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-bob 4-moddasida «O'zbekiston Respublikasida Davlat tili-o'zbek tilidir» deb yozib qo'yilgan. O'zbekiston aholisining 72 foizi o'zbek, 85 foizi o'zbek tilini biladiganlar Respublika uchun bu tabiiy bir hol edi.

Shu kunning o'zida «O'zbekiston Hukumatining Davlat tili haqida»gi Qonunini kuchga kiritish tartibi to'g'risida qaror qabul qilindi.

O'zbekiston Adliya vazirligining ma'qullashi bilan «Davlat tili haqidagi qonunga sharhlar» (1990), O'zbekiston Vazirlar Kengashi 1990 yil 19 fevral 101-qarori bilan mazkur qonunni amalga oshirish Davlat dasturini tasdiqladi.

Davlat dasturida «Davlat tili haqidagi qonuni qabul qilingan kunni «Ona tili kuni» deb e'lon qilish» (1-qism, 7-moddada) to'g'risida qaror qabul qilindi.

Davlat tili haqidagi Qonunni muhokama etishda 3 xil fikr bildirildi:

- 1) Davlat tili haqida qonun qabul qilishning hojati yo'q. Respublika mustaqil davlat bo'lgach, uning tili, tabiiy davlat tili bo'lib qoladi. Respublikamiz O'zbekiston ekan, demak, uning davlat tili ham o'z-o'zidan o'zbek tilidir.
- 2) O'zbekiston Respublikasida o'zbek tili umuman, biror til davlat tili bo'lishi mumkin emas.
- 3) O'zbekiston Respublikasida o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish shart deb hisoblovchilarning fikri edi.

O'zbekistonga mustaqillik berish, o'zbek tiliga davlat tili qonuni mavqeini berish nima zaruriyatdan kelib chiqdi?

Har bir mustaqil Respublika, Davlat o'z davlat tiliga ega bo'lishi kerak. Bu millatning mustaqilligini ko'rsatuvchi asosiy belgilardan biridir. Dunyodagi har bir mustaqil davlat o'z milliy davlat tiliga ega.

Davlat tili haqidagi qonunning asl mohiyati nimadan iborat?

1.Qonun 30 moddadan iborat bo'lib, avvalo o'zbek tilining o'z qadr – qimmatini, huquqini, rolini tiklaydi.

«Davlat tilining ravnaqi, qo'llanishi va muhofazasini har tomonlama ta'minlash» O'zbekiston hukumatiga yuklanadi (2-modda).

2.Ma'lum, idora, korxona, muassasa rahbarlari bilan, savdo-sotiq va tibbiyot hodimlari xo'randa, jasmanlar va kasallar bilan rus tilida gaplashar, rus tilini bilmaganlar nochor ahvolga tushib qolar edilar.

Qonun rahbarlardan, aholiga xizmat ko'rsatuvchi xodimlardan davlat tilida muomala qilish va rasmiy ish qog'ozlarni ham davlat tilida bo'lishini talab qildi.

Hokimiyat va boshqaruv organlari rahbarlari davlat tilini etarli darajada bilishlari shart. Aholiga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq shaxslardan tilini zarur bo'lgan darajada bilish lozim. (4-modda)

3.O'zbek tilini maqtab, texnikum va oliy o'quv yurtlarida o'qitish nochor ahvolga tushib qolgan edi. Davlat tili qonuni bunga chek qo'ydi.

4.Darslar o'zbek tilida olib borilmaydigan maktab, bilim yurtlarida o'zbek tilini o'quv rejasining asosiy fanlaridan biri sifatida o'rganishni ta'minlaydi, bu fandan bitiruv imtihoni topshiriladi. (15-modda).

5.O'zbekistondan tashqarida 3 mln.dan ortiq o'zbek istiqomat qiladi. Rossiyada - 2 mln.dan, Tojikistonda – 600 mingdan ortiq, Saudiya Arabistonda –700 mingga yaqin, Afgonistonda – 1 mln., 200 mingdan ko'p va h. Ularning davlat tilida gapirish va yozish ishlarini Respublika o'z bo'yniga oladi. Buning uchun boshqa Respublika va mamlakatlar bilan shartnomalar tuziladi. Qonunning 17-moddasida «Jumhuriytdan tashqarida yashovchi o'zbeklarni o'zbek tilidagi o'quv metodik, ilmiy – texnik adabiyotlar bilan ta'minlaydi».

6. Keyingi yillarda ilmiy-texnika atamaları sohasida o'zgarishalar bo'lib, rus va baynalminal atamaları o'zbek tiliga kirib keldi.

Davlat tili qonuni esa o'zbek tili atamalarini yaratish vazifasini qo'yadi: «O'zbek tilida ilmiy-siyosiy atamalar yaratish va rivojlantirish ta'minlanadi» (19-modda).

7. O'zbekiston hududida ko'p tuman, shahar, qishloq, mahalla, ko'cha va muassasa nomlari rus va boshqa tillarda bo'lib kelgan edi. Qonunning 24-moddasida: «Toponimik nomlar yagona milliy shaklda beriladi va Respublikada davlat tilida yoziladi...» deb qayd etilgan.

8. Ma'lumki, kishi ismlari, ota ismi va familiyalarini yozishda ko'p buzilishlarga yo'l qo'yiladi, ruscha qolip asosga olinardi. Davlat tili haqidagi qonunda fuqarolar o'z ismi, otasining ismi va familiyalarini o'zlari lozim topganday yozdirishlari mumkin deb qayd etilgan.

Qonunning 18-moddasida «Ilmiy ishlarni yozish va nashr etishda milliy tillarga katta imtiyozlar berildi. Ilmiy ishni yozish, himoya qilish va nashr etish davlat tili va boshqa tillarda bo'ladi» deb aytib o'tilgan.

Milliy guruhlarda darslar milliy tilda, rus tilida o'qiydigan guruhlarda darslar rus tilida olib boriladigan bo'ldi. Har bir fuqaro o'zi xohlagan tilida o'qishi uchun erkinlik berilganligi qonunning 13, 14-moddalarida ko'rsatib o'tilgan.

Shunday qilib, O'zbekiston hududida yashovchi barcha xalqlar, qaysi til ularning ona tili ekanligidan qat'iy nazar tengdir. Xuddi ana shu fikr qonunning kirish qismida ham qayd etib o'tilgan.

9. O'zbek adabiy tili o'zbek xalqining ma'lum bir qonun-qoidalar asosida tuzilgan tilidir. Adabiy til rasmiy hujjatlar, yozma adabiy, ilmiy, huquqiy adabiyot tili, radio, telekursativlar, matbuot, ma'ruza, maktab, o'rta va oliy o'quv yurtlarida qabul qilingan tildir. Bu til Davlat til maqomini olgan rasmiy tildir.

3. Adabiy til – umumxalq tilining qayta ishlangan, sayqallashtirilgan, ma'lum bir me'yorga solingan shakldir. Adabiy til ma'lum bir me'yorga keltirilganligi bilan ajralib turadi. Me'yorlik – ma'lum bir me'yor bo'lishi – adabiy tilning muhim belgisidir. Bu me'yorlar adabiy tilning turli tomonlarini: yozma va og'zaki shaklini, nutq tovushlarining talaffuzini, so'zlarni, so'z yasallishini, grammatikani qamrab

oladi. Adabiy til me'yor til darsliklarida, tilga oid qo'llanmalarda, shuningdek, turli lug'atlarda ko'rsatiladi.

Umumxalq tilining qayta ishlanishi negizida shakllanib, mahalliy dialektlarning umumiy xususiyatlarini o'ziga singdira borgan adabiy til ayni zamonda milliy tilning ana shu ko'rinishlaridan – so'zlashuv nutqidan ham, mahalliy dialekt va shevalardan, ham, turlicha jargonlardan ham farqlanib turadi.

O'zbek adabiy tili quyidagi taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan:

1.Qadimgi turkiy adabiy tili VI-X asrlar mobaynida amalda bo'lgan til bo'lib, bu tilda qadimgi turkiy yozma yodgorliklari yaratilgan.

2.Eski turkiy adabiy tili XI-XIII asrlar davomida yaratilgan «Qutadg'u-bilig», «Hibatul-haqoyiq», «O'g'uznoma», «Muhabbatnoma», «Qissai Rabg'uziy» kabi buyuk adabiy asarlar tilidir.

3.Eski o'zbek adabiy tili XIV-XVIII asrlarda shakllanib, takomillashib borgan tildir. Bu tilda Lutfiy, Sakkokiy, Durbek, Atoiy, Navoiy, Bobur, Gulxaniy, Abdulg'ozi Bahodirxon, Turdi kabi buyuk shoir va yozuvchilar qalam tebratdi.

4.Yangi o'zbek adabiy tili XIX asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Bu tilda Amir Umarxon, Nodira, Muqimiy, Zavqiy kabi shoirlar ijod qildi. Bu davrdan boshlab matbuot tili kelib chiqdi.

5.Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon, A.Qahhor, H.Olimjon va h. yozuvchi va shoirlarning tilidir. Bu til XX asrning 20-yillarida shakllandi.

Adabiy tilning har sohasi-tovush sistemasi, yozuvi, so'z va gap ko'rinishi, so'z qo'llash yo'llari o'z qonun-qoidalariga mezonlariga ega bo'ladi. Bularning barchasi har tomonlama muhokama va munozaradan keyin, tilshunos olimlar tomonidan, boshqa soha mutaxassislari bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

Shuni qayd etish kerakki, adabiy til va so'zlashuv nutqi hamda shevalar orasida tafovut har vaqtda saqlanadi. Shu bilan birga bu xususiyatlar adabiy tilni boyitishda manba bo'ladi.

Sheva ma'lum bir joyda istiqomat qiladigan kishilarning o'zaro alohida bo'lishlari uchun xizmat qiladi. Sheva adabiy tildan nutq tovushlari, so'zlar va ayrim grammatik shakllari bilan farq qiladi. O'zbek tilining shevalari ko'p. Bir-biriga yaqin bo'lgan shevalar yig'indisi lahja deb yuritiladi.

Hozirgi o'zbek tilidagi turli sheva va lahjalar haqida Turkiyshunos olim E.D.Polivanov «Turkiy tillarning birortasi ham o'zbek tilidagi kabi turli-tuman dialektal farqqa ega emas...», -degan edi. Buning asosiy sababi o'zbek xalqi etnik tarkibining murakkabligidadir. O'zbek sheva va lahjalarini o'rganishda E.D.Polivanov, Q.N.Yudahin, V.V.Reshetov, G.O.Yunusov, Sh.Shoabdurahmonov, A.Q.Borovqov kabi olimlar katta xizmat qilganlar.

O'zbek tili tarkibida uch xil lahja bor:

- 1) Qarluq lahjasi janubiy-sharqiy guruh. Asosan, sharqiy shevalarini o'z ichiga oladi.
- 2) Qipchoq lahjasi shimoli-g'arbiy guruh. Bunda asosan, qishloqda yashovchilar shevasi kiradi.
- 3) O'g'uz lahjasi janubiy-g'arbiy guruh. Bu lahja janubiy Xorazmdagi bir qancha shevalarni o'z ichiga oladi. Hozirgi o'zbek adabiy tili uchun qarluq lahjasi kiradigan Farg'ona, Toshkent shevalari asos qilib olingan.

Shuni unutmaslik kerakki, shevalarning o'ziga xos xususiyatlari adabiy tilning ta'siri bilan asta-sekin yo'qolib boradi.

4. Ma'lumki, adabiy tilning ikki xil - og'zaki va yozma shakli bor.

Og'zaki shakli eng qadimgi forma bo'lib, qadimgi xalq qo'shiqlari, dostonlari, ertaklari, cho'pchaklari, latifalari, xalq maqollari, matallari va topishmoqlarining deyarli hammasi xalq og'zaki adabiy tilida yaratilgan va og'izdan-og'izga o'tib sayqallashtirilgan. Ba'zi folklor asarlari esa keyinchalik ayrim shaxslar tomonidan qayta ishlanib, yozma adabiyotga ham kiritilgan. (Masalan, «Farhod va SHirin», «Layli va Majnun», «Tohir va Zuhra»lar shular jumlasidandir).

Yozma adabiy tilning paydo bo'lishi, odatda, biror xalqning yozuvi, ancha rivojlangan yozma adabiyotining, shuningdek ma'lum bir an'anaga ega bo'lgan madaniyatning mavjudligi bilan bog'liq. Masalan, yozma o'zbek adabiy tili tarixan ancha ilgari davrlardayoq (X-XI) mavjud bo'lgan.

Shu narsani ham ta'kidlash lozimki, adabiy tilning yozma formasi, adabiy tilning orfografik, punktatsion, stilistik qonun-qoidalariga amal qiluvchi grafik shaklidir. Yozma formada nutq bo'laklari, gaplar, ularning tartibi turli xil tinish belgilari vositasida ajratib ko'rsatiladi. Yozma adabiy til qoidalari til taraqqiyotining keyingi etaplarida joriy qilingan bo'lib, aniq shakllangan til shakli hisoblanadi.

Adabiy tilning yozma formasi kishilar orasidagi bevosita aloqa vositasi bo'lmay, boshqa joyda va zamonda yashovchi kishilar bilan aloqa bog'lash vositasi hamdir. Shu jihatdan yozma adabiy til uchun masofaning va zamonning ahamiyati yo'q.

Darhaqiqat, yozma til orqali biz o'tmish tarixni o'rganayotgan ekanmiz, bu til orqali kelajak avlod ham barcha ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik, madaniy o'zgarishlar tarixini o'rganadi.

Og'zaki va yozma adabiy nutqning monologik va dialogik shakllari bor. Bular o'zaro bog'liqdir.

Adabiy tilning yozma shakli bevosita yozuv bilan bog'langan bo'lib, og'zaki adabiy til asosida yuzaga kelgan umumiy me'yorlarni rivojlantiradi, mustahkamlaydi va qat'iy bir qolipga soladi. Bundan ko'rinadiki, adabiy tilning og'zaki va yozma shakllari bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lib, unda mahalliy shevalarning umumiy xususiyatlari ham o'z aksini topadi. Demak, hozirgi o'zbek adabiy tili o'zbek millati ijtimoiy faoliyatining barcha sohasida muhim aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Tekshirish uchun savollar:

1. Til nima? U qanday hodisa hisoblanadi?
2. O'zbek tiliga Davlat tili maqomi qachon berilgan?
3. «Davlat tili» haqidagi qonun qachon qabul qilingan?
4. Adabiy til nima? Uning tayanch dialekti deganda nimani tushunasiz?
5. Adabiy tilning qanday shakllari bor?

Tayanch tushunchalar:

Til, davlat tili, adabiy til, lahja, dialekt, adabiy tilning og'zaki va yozma shakllari.

Mavzu: Til haqidagi umumiy ma'lumot.

Dars rejasi:

1. Til kishilik aloqasining eng muhim vositasi sifatida.
2. Dunyo tillarining tasnifi.
3. O'zbekistondagi tillar.
4. O'zbek tilining shakllanishi.

ADABIYOTLAR:

1. Shoabdurahmonov Sh., Asqarov M. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 1980y 7-10 betlar.
2. Abdurahmonov G., Mamajonov S. O'zbek tili va adabiyoti. T., 1995y 5-23 betlar.
3. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. T., 1981y 15-16 betlar.
4. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 1990y 6-8 betlar.

1. Til oddiy aloqa vositasi emas; til kishilarning eng muhim aloqa vositasi; til aloqaning kishilik formasi. Haqiqatdan ham, kishilar o'zaro aloqada turli vositalardan foydalanadilar. Lekin bular ichida til-eng muhimi til. Til faqat kishilargina xos, u faqat kishilar aloqasi uchun xizmat qiladi.

Tilning belgilari uni aloqaning boshqa vositalardan farqlash, tilni ijtimoiy hodisa sifatida xarakterlash imkonini beradi. Umuman, til kishilik aloqasining eng muhim vositasi sifatida jamiyat bilan, uning madaniyati, turmush va mehnat faoliyatida tildan keng va har tomonlama foydalanib kelayotgan barcha a'zolari bilan uzviy aloqador.

Tilning ma'lum informatsiya ifoda qilib, suhbatdoshga ta'sir ko'rsatishi, uning ekspressiv vazifasi deyiladi. Xabar sezgi va emosiya, xohish ifoda qilish birgalikda tilning ekspressivlik funksiyasiga kiradi. Bunda tilning turli vositalaridan, masalan, modal so'zlar, ritorik so'roq, tartib kabilardan foydalaniladi.

Til faqat ayrim shaxslarning aloqa vositasi bo'lmay, millatlararo aloqa quroli, to'plangan tajriba va bilimlarni kelajak avlodga etkazish vositasi hamdir. Tilning bu fuksiyasi uning akkumulyativ (lotincha-to'plash) fuksiyasi hisoblanadi. Bu gneseologik (bilim prosessi) fuksiyasi deb ataladi.

Shunday qilib, til kishilik jamiyatida eng muhim aloqa vositasi sifatida xizmat qiladigan qurol bo'lib, uning yordamida kishilar fikr almashadilar, o'z istaklarini, hissiyotlarini, kayfiyatlarini ifoda qiladilar.

Tarixda o'z tiliga ega bo'lmagan birorta eng kichik, juda ibtidoiy jamiyat ham bo'lmagan.

Taxminiy hisoblarga ko'ra dunyoda 133 xalq va elat bo'lgan holda, 3000 ga yaqin til bor. Dog'istonda 100 dan ortiq, Sudanda 117 tilda, Kongoda 500, Indoneziyada 250 ta til bor. Ayrim tillarda nihoyatda ozchilik so'zlovchilar (qamasinlar – 700, qaragaslar - 600) bo'lsa ham, o'z tillarini avaylab keladilar.

Xitoy, ingliz, hind, ispan, rus, fransuz tillarida juda ko'p so'zlovchilarga ega.

Ayrim tillar juda qadimiy yozuvlari bilan boshqa tillardan ajralib turadi. Yunon, Misr kabi mamlakatlarda bizning asrimizdan ancha oldin yozuv paydo

bo'lgan. O'rxun-Enasoy yodnomalari V-VI asrlarda O'rxun-Enasoy daryolari bo'ylarida yuzaga kelganligi aniqlandi.

Shu bilan birga Janubiy Amerikadagi hind qabilalari, Afrika qit'asidagi bir necha elat va xalqlar hozirgacha ham o'z yozuvlariga ega emaslar. Sibir va Kavkazdagi 50 dan ortiq millat va elatlarning o'z yozuvlari bo'lmay, faqat XX asrning 70-yillardagina alifboga ega bo'ldilar.

2. Dunyo tillarining tasnifi.

Olimlar qadimgi davrlardan boshlab dunyo tillari va ularning tarixi bilan qiziqib keladilar. Turli va rang-barang tillar o'rtasidagi o'xshashlik va no'xshashlikni ko'rsatuvchi ko'plab faktlarni yig'adilar.

Kuzatishlar natijasida tillarning qiyosiy-tarixiy usul yo'li bilan o'rganish uslubini XVIII asrda F.Bonn, YA.Grimm, R.Rask, A.H.Vostokov, va boshqalar olib bordi.

SHu asosda dunyo tillarning ikki xil tasnifi berildi:

1. Geneologik tasnif: tillar orasidagi fonetik, leksik, grammatik o'xshashlikka asoslanadi.

2. Morfologik tasnif: tillarning tuzilish tomonidan o'xshashligiga asoslanadi.

I. Dunyo tillarini geneologik tasnifi bo'yicha 16, ba'zilar esa 20-25 oilaga bo'ladilar:

1) hind-evropa tillari; 2) hom-som tillari; 3) kavkaz tillari; 4)ugor-fin tillari; 5) tungus-manjur tillari; 6) xitoy-tibet tillari; 7) dravid tillari; 8) kichik polineziya tillari; 9) avstraliya tillari; 10) papuas tillari; 11) afrika tillari; 12) poleosiyo tillari; 13) eskimos tillari; 14) SHimoliy Afrika tillari; 15) mo'g'il tillari; 16)Turkiy tillari.

II. Dunyo tillari morfologik tasnifiga ko'ra turtta guruhga bo'linadi:

1) Amorf tillar. Bu tilga xitoy, tay, birma, tibet va boshqa tillar kirib, ularda so'zlar yolg'iz uzoqdan iborat bo'lib, affikslar qo'llanmaydi. Grammatik ma'nolar so'z tartibi, urg'u, ohang bilan ifodalanadi.

2) Agglyutinativ tillar. Bu guruhga turkiy, finugor, dravid, yapon, manjur va boshqa tillar kiradi. Bu tillarning xususiyati shuki, affikslar bevosita o'zak yoki negiziga qo'shiladi, asosan, bir grammatik ma'no ifodalaydi, prefikslar o'rnida ko'makchilar qo'llanadi, grammatik jins kategoriyasi bo'lmaydi.

3) Flektiv tillar. Bu xil tillarga hind-evropa va som tillar oilasi kiradi. Flektiv tillarda so'z yasash va turlash ichki fleksya (so'z tarkibidagi undoshlarni o'zgartirish) yo'li bilan amalga oshadi.

4) Polisintetik tillar. Bu guruhga Amerika hindlari, chukat, qoryaq va boshqa tillar kiradi. Polisintetik tillarda gap bo'laklari birikib, bir so'z shaklida ifodalanadi.

Turkiy tillar oilasi. Turkiy va ularga yaqin tillarning uch xil tasnifi mavjud.

I. Ural-oltoy tillari oilasiga: 1) fin-ugar tillari (fin, eston, karel, veps, ugor, venger, mansiy-xantiy, samoed tillari); 2) turkiy tillar; 3) mo'g'il tillar; 4) koreya tili; 5) yapon tili; 6) tungus-manjur tillari kiradi.

Bu tasnifning asoschilari – R.Rask, V.Shott, M.A.Kastren, V.Tomsen va boshqalar

II.Oltoy tillari oilasi:

Bu oila tarkibiga fin-ugor tillaridan boshqa yuqorida ko'rsatib o'tilgan til oilalari kiradi. Oltoy tillari oilasi nazariyasining tarafdorlari Yu.Nemet, R.Ramsted, E.R.Polivanov, V.Qotvich, V.Ryasyanen va boshqalar bo'lib, ular har uch-to'rt yilda o'z konferensiyalarini o'tkazib turadilar.

III. Turkiy tillar oilasi. Bu nazariya tarafdorlari faqat turkiy tillarga mansub tillarni bir oilaga kiritadilar.

Turkiy tillar bo'yicha V.A.Bogorodiskiy, V.V.Radlov, F.E.Korsh va boshqalar tasnifi ma'lum. Bu tasniflar ichida N.A.Baskakovning tasnifi ko'pchilik tomonidan tan olingan.

N.A.Baskanov tasnifiga ko'ra, turkiy tillar ikki tarmoqqa bo'linadi: turkiy tillarning g'arbiy va sharqiy hunn tarmog'i.

I. Turkiy tillarning g'arbiy hunn tarmog'i quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- 1) Bulg'or tillar guruhi. Bu guruhga qadimgi hazar va bulg'or, chuvash tili kiradi. Mo'g'il tillari guruhi. Bunga turkman, truhman, gagauz, ozarbayjon, tuva tillari kiradi.
- 2) Qipchoq tillari guruhi. Bu guruhga qumiqlik, bolqar, qrim-tatar, tatar, boshqird, nugay, qoraqalpoq, qozoqlik, qirg'iz tillari kiradi.
- 3) Qarluqlik tillari guruhi. Bu guruhga o'zbek, uygur tillari kiradi.

II. Turkiy tillarning sharqiy tarmog'iga quyidagi turkiy tillar kiradi:

- 1) Uyg'ur-tuquy tillar guruhi. Bu guruhga qadimgi O'rxun-Enasoy bitiklarining tili, tuva, tufalar tili kiritiladi.
- 2) Yoqut tillari guruhi;
- 3) Haqas tillari guruhi. Bunga Sibirdagi haqas, qamasin, shur, gulim, oltoy, sari uygur kabi tillar kiradi.
- 4) Qirg'iz-qipchoq tillari guruhi. Bu guruhni qirg'iz oltoy tilining janubiy shevalari tashkil etadi.

Turkiy xalqlar son jihatidan slavyan xalqlaridan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi.

Turkiy tillarda so'zlashuvchi xalqlarning soni 90-100 mln.ni tashkil qiladi.

Turkiy xalqlar ko'p o'lkalarda va xorijda (Turkiya, sharqiy Turkiston, Evropada, Amerikada, Afrikada, Avstraliyada) joylashgan.

3.O'zbekistondagi tillar.

O'zbekiston ko'p millatli respublika bo'lib, unda 120 dan ortiq xalqlar va etnik guruhlar istiqomat qiladi.

O'zbeklar faqat O'zbekistondagina emas, boshqa yurtlarda ham yashab kelmoqda. Qoraqalpoqlik muhtoriyatining 32,8%i o'zbeklardan iborat. Afgonistonda 2 mln.ga yaqin, Saudiya Arabistonda 700 mingdan ortiq o'zbek yashaydi. Umuman 5 mln.ga yaqin o'zbeklar chet ellarda yashaydi.

O'zbekistonda istiqomat qiluvchi boshqa tilda so'zlashuvchi millat va xalqlar:

1. Ruslar –1653 478 kishi bo'lib, aholining 8,3% tashkil etadi.
2. Tojiklar –933 560 kishi bo'lib, aholining 4,7% tashkil etadi.
3. Qozoqlar –808 227 kishi bo'lib, aholining 4,1% tashkil etadi.
4. Qirg'izlar –174905 kishi.
5. Tatarlar -467 829 kishi. Ularning ko'pchiligi Toshkent shahrida yashaydi.
6. Yevreylar –65 493 kishi. Ular Toshkent shahrida istiqomat qiladi.

Bundan tashqari O'zbekistonda ukrain, belorus, arman, qrim-tatarlari, ozarbayjon, latish, boshqird, qoraqalpoqlik, qumiqlik, nugay, yoqut, oltoy, arab, nemis, uyg'ur, turk kabi o'nlab tilda so'zlashuvchi xalq va millatlar yashaydi.

4. Har bir xalqning shakllanishi uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. O'zbek xalqi O'rta Osiyo, Qozog'iston va unga yaqin o'lkalarda yashovchi o'troq qabilalar (massaget, sak, sug'd)ga keyingi davrda kelib joylashgan. yuechji

(qushanlar), hunnlar, eftalitlar hamda boshqa urug' va qabilalarning qo'shilishi asosida shakllandi. XII asr oxiriga kelib shakllangan o'zbek xalqi ham dastavval turkiy xalq, turkiy til deb nomlanadi va bu nom uzoq vaqtlargacha saqlanadi. Hatto Navoiy ham o'z tilini turkiy deb nomladi. Olimlar bu davr (XIV asr oxiri XV asr) o'zbek tilini boshqa turkiy tillardan farqlash uchun «O'rta Osiyo turkiy tili», «Chig'atoy tili» deb nomlab keldilar.

«O'zbek» etnonimi esa XIV asrning birinchi yarmida Dashti qipchoqda istiqomat qilgan, urug'larning nomi bo'lib, bu urug'lar SHayboniynon boshchiligida Movarounnahrni bosib olgach, bu nom bilan yerli xalq deb atala boshladi. Dashti qipchoq o'zbeklari bu yerda shakllanayotgan turkiy xalq tarkibiga bir urug' bo'lib kirdilar, xolos.

O'zbek tilini XI yoki XII asrda shakllangan degan da'volarga qo'shilish qiyin. Chunki XI-XIII asrlar davomida yaratilgan mashhur «Devoni lug'atit turk», «Qutadg'u bilig», «Hibatul haqoyiq», «O'g'uznoma» kabi asarlarida qarluq til xususiyatlari ko'p bo'lsada, ularning umumturk millatining manbalari deymiz, ular Movarounnahrda yashab kelgan hamma turkiy xalqlarning ham mulkidir.

O'zbek xalqi va tilining genezisidagi murakkab jarayon hozirgi zamon o'zbek adabiy tilining shakllanishida ham o'z aksini topdi. O'zbek adabiy tili to'rt xil sheva guruhidan tashkil topgan bo'lib, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg'ona va Xorazm shevalaridan iborat. Bu shevalar asosan qarluq-uyg'ur, o'g'iz, qipchoq til xususiyatlarini o'zida ifodalaydi.

Ma'lum xalqni tashkil etgan urug'lar bir necha asrlargacha barqaror bo'lib, til xususiyatlarini saqlashlari mumkin. Masalan, qozoq, qirg'iz, turkman va boshqa xalqlar tarkibidagi ko'p urug'lar hozirgacha til xususiyatini saqlab qolganlar. SHuningdek, hozirgi paytda ayrim viloyatlarda (Farg'ona vodiysi Toshkent viloyatining ayrim tumanlari) o'zbek xalqini tashkil etgan urug'lar o'z xususiyatlarini yo'qotgan bo'lsalarda, ko'p viloyat va tumanlarda bu urug'lar o'z nomlarini va odatlarini saqlab keladi.

SHunday qilib, o'zbek adabiy tilining tarixi uch katta davrni o'z ichiga oladi:

1. Qadimgi turkiy adabiy til.
2. Eski o'zbek adabiy tili.
3. Hozirgi o'zbek adabiy tili.

Qadimgi turkiy adabiy tili X-XII asrlarni o'z ichiga oladi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, o'zbek adabiy tili dastlabki davrlarda umumturk adabiy til sifatida X-XI asrlarda tashkil topgan. Eski o'zbek tili XIII-XV asrlarda shakllangan. Bu davr adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishida Alisher Navoiyni roli nihoyatda kattadir. Alisher Navoiy o'zining jahonga mashhur durdona asarlari bilan o'zbek adabiy tilini badiiy so'z mahorati, badiiy va amaliy nuqtai nazardan jahon miqyosiga olib chiqqan bo'lsa, «Muhokamatul lug'atayn» singari noyob ilmiy asari bilan eski o'zbek adabiy tilini ilmiy –nazariy jihatdan asoslab berdi.

Alisher Navoiy o'zbek adabiy tilini birinchi bo'lib, ilmiy jihatdan asoslab bergan hamda kelgusi istiqbolini ko'rsatib bergan buyuk tilshunos olimdir.

Tekshirish uchun savollar:

1. Til qanday vosita? Nima uchun?
2. Dunyo tillari qanday tasnif qilinadi?
3. O'zbek tili qaysi til oilasiga, qaysi guruhga va lahjaga kiradi?
4. O'zbek adabiy tilining shakllanishi qachondan boshlanadi?

Tayanch tushunchalar:

Til muhim aloqa vositasi; dunyo tillarining tasnifi; geneologik tasnif; morfologik tasnif; flektiv tillar; agglyutinativ tillar; amorf tillar, polisintetik tillar; turkiy tillar; qadimgi turkiy til, eski o'zbek adabiy tili, hozirgi o'zbek adabiy tili.

Mavzu: Fonetika haqida umumiy ma'lumot.

Dars rejasi:

1. Fonetikaning obyekti.
2. Fonetikaning maqsadi va vazifalari.
3. Fonetikaning bo'limlari.
4. Nutq a'zolari haqida.
5. Fonema va uning variantlari.

Adabiyotlar:

1. Ne'matov H. O'zbek tili tarixiy fonetikasi. T., O'qituvchi, 1992y 3-4 betlar.
 2. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., O'zbekiston, 1992y, 12-13 betlar.
 3. Shoabdurahmonov Sh., Asqarov M., Hojiyeva A. va boshqalar. O'zbek adabiy tili. 1980y 33-43 betlar.
 4. Jamolxonov H. (tuzuvchi). Hozirgi o'zbek adabiy tili. (ma'ruzalar matni) 2000y 14-39 betlar.
 5. Hozirgi o'zbek adabiy tili (ma'ruzalar matni. Fonetika, orfografiya, orfoepiya, leksikologiya, frazeologiya). T., 2003y 4-14 betlar.
1. Tilshunoslikning fonetika (yunoncha «phone»-tovush) qismi tilning nutq tovushlari haqidagi fandir. Fonetika tilning tovush-tizimi elementlari bo'lgan nutq tovushlarini o'rganadi.

XX asrning boshlarigacha tilning tovush tizimi, urg'u va intonatsion xususiyatlari, asosan, fonetika bobida o'rganilar edi. Sistem tilshunoslikning shakllanishi natijasida fonetika bilan fonologiya fani farqlana boshladi. Fonetika ham, fonologiyada ham moddiy (material) tomonidan ifoda plani o'rganiladi. Lekin ular tilning fonetik birliklari – tovushlar, urg'u va ohangni qaysi jihatdan o'rganishi bilan bir-biridan farq qiladi. Fonetikada tovushlarning akustik-artikulyatsion, ya'ni hosil bo'lish va talaffuz kabi fiziologik (tabiiy) xususiyatlari, urg'u va ohangning moddiy (fizik) belgilari (miqdori, kuchi), tovushlarning o'zaro ta'siri asosida o'zgarishlari o'rganilsa, fonologiyada tovush, urg'u va ohangning ijtimoiy vazifasi – ma'no farqlash xususiyati o'rganiladi.

Nutq tovushlari so'zning tovush qobig'i hisoblanadi. Ularni talaffuz etmay turib, shuningdek, eshituv a'zolari orqali idrok etmay turib, kishilarning o'zaro nutqiy aloqa qilishlari, fikr almashishlari mumkin emas.

2.Fonetikaning maqsadi fonetik birliklarning fizik-akustik, anatomik-fiziologik va lingvistik-funksional asoslarini o'rganish, ularning til mexanizmidagi rolini aniqlashdan iborat. Bunday maqsad uning quyidagi vazifalarini belgilaydi: a) tovush, urg'u, metodika kabi birliklarning yuzaga kelishi qonuniyatlarini o'rganish; b) talabalarni yuqoridagi qonuniyatlar va shu qonuniyatlarga oid ilmiy-nazariy fikrlar bilan tanishtirish; v) talabalarda fonetik tahlil ko'nikmalarini shakllantirish.

Fonetikani o'rganish orfografiya (to'g'ri yozish), orfoepiya (to'g'ri talaffuz qilish) normalarini yaxshi o'zlashtirib olishga, adabiy talaffuz bilan shevalar talaffuzi o'rtasidagi farqni aniqlashga katta yordam beradi.

3.Fonetika fani tilning tovush tomonini turli usulda va turli maqsadlarda o'rganadi, shunga ko'ra uning quyidagi turlari o'zaro farqlanadi.

1.Umumiy fonetika. Fonetikaning bu turi barcha tillarning tovush tomoni uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlar va hodisalar bilan tanishtiradi. Ya'ni fonetikaga oid materiallar fonetikaning turlari, nutq tovushlari, ularning bo'linishlari va har xil o'zgarishlari to'g'risida umumiy ma'lumot beriladi.

2.Xususiyy fonetika. Fonetikaning bu turi konkret bir tilning fonetik tizimi haqida ma'lumot beradi. Masalan, o'zbek tili fonetikasi, rus tili fonetikasi kabi.

Uning quyidagi ikki turi bor:

A) tavsifiy fonetika. Bunda biror bir tilning fonetik tizimi, undagi fonetik hodisalar va faktlar statik holatda o'rganiladi. Tavsifiy fonetikada biror til fonetikasining hozirgi holati nuqtai nazaridan tasvirlanishi talab etiladi. Xususan, «Hozirgi o'zbek adabiy tili fonetikasi» ham aslida, tavsifiy fonetikadir. Chunki unda o'zbek tilining fonetik tizimi (fonetik faktlarlar unli va undosh tovushlarning miqdor va sifat belgilari, tasnifi, urg'u, bo'g'in va h.lar) hozirgi o'zbek tilida qanday bo'lsa, shundayligicha o'rganiladi.

b) tarixiy fonetikasi. Bunda ayrim olingan bir tilning fonetik tizimi, undagi fonetik hodisalar va faktlar shu tilning uzoq tarixiy taraqqiyoti bilan bog'lab o'rganiladi. Shu asosda muayyan tilning fonetik-fonologik tizimida yuz bergan tarixiy o'zgarishlar aniqlanadi. Tilning tovush tarkibidagi taraqqiyot va o'zgarishlar, ayrim tovushlarning iste'moldan chiqib ketishi, yangi tovush yoki tovush variantlarining yuzaga kelishi, tovushlarning tadrijiy taraqqiyoti shu tilda gaplashuvchi xalqning tarixi bilan bog'liq ravishda o'rganiladi, tarixiy sabablari aniqlanadi.

Turli davrlarda yaratilgan yozma yodgorliklar turli guruh va shevalarga xos bo'lgan og'zaki nutq materiallari tarixiy fonetika uchun asosiy manba sifatida xizmat qiladi.

O'zbek tilshunosligida o'zbek tilining tarixiy fonetikasiga oid ma'lumotlar V.V.Reshetov, G.Abdurahmonov, H.Ne'matov, A.Rustamov, E.Fozilov, B.To'ychiboyev kabi olimlarning ishlarida berilgan: «Qadimgi turkiy til» (G.Abdurahmonov, A.Rustamov) «Qadimgi obidalar va Alisher Navoiy» (E.Fozilov 1969y), «O'zbek tili tarixiy fonetikasi» (H.Ne'matov 1992y), «O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari» (B.To'ychiboyev 1996y) kabi ishlar shular jumlasidandir.

3.Qiyosiy fonetika. Fonetikaning bu turi qardosh tillarning (o'zbek, qozoq, qoraqalpoq, turkman) yoxud noqardosh tillarning (o'zbek va rus, o'zbek va ingliz) fonetik tizimlarini qiyosan tadqiq qiladi. Hozirgi vaqtda o'zbek va rus tillari fonetikasining qiyosiy tavsifiga oid ishlar anchagina. «Ruskaya grammatika i sopostavlenii s uzbekskim yazikom» (E.D.Polivanov 1993y), «Kratkiy ocherk fonetiki ruskogo yazika v sopostavlenii s fonetikoy uzbekskogo yazika» (I.A.Qissen 1952y), «O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi» (O.Azizov, A.Safoev, H.Jamolxonov 1986y).

Hozirgi kunda ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda davlat tili (o'zbek tili)ning o'qitishlariga katta e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, bu borada rus, qoraqalpoq o'quvchilari uchun nashr etilgan «O'zbek tili» darsliklarini ko'rsatish mumkin. Bu darsliklarning barchasi qiyosiy fonetika asoslangan holda o'rganiladi.

4.Eksperimental fonetika. Fonetikaning bu turida nutq tovushlarining u yoki bu jihatlari maxsus asboblari (pnevmoqraf, ossilograf, fonograf, spektograf va b.) yordamida tadqiq qilinadi, shu asosda tovushlarning sifat va miqdor belgilari (balandligi, kuchi, tembri, cho'ziqlik darajasi), ularning artikulyatsiyasi (hosil bo'lish o'rnini, usuli) aniqlanadi.

O'zbek tilshunosligida eksperimental fonetikaning rivojlantirilishida A.Mahmudov va S.Otamirzayev kabi fonetistlarning xizmati katta. Bu tilshunoslarning ishlarida o'zbek tili fonetik tizimining tovushlari, urg'u, bo'g'in kabi birliklari ayni shu usulda tadqiq qilingan. Masalan, «Unlilar» (A.Mahmudov 1992y), «Soglasnie uzbekskogo literaturnogo yazika» (A.Mahmudov 1986y), «Zvukovoy sostav Namanganskogo govora uzbekskogo yazika» (S.Otamirzayeva 1963y) kabi ishlarni ko'rsatish mumkin.

4.Nutq tovushlari nutq a'zolarining turlicha faoliyati natijasida yuzaga keladigan murakkab hodisa bo'lib, uni yozuvdagi shartli belgisi harf bilan almashtirmaslik kerak. Tovush nutq birligi hisoblanadi, u talaffuz etiladi va eshitiladi. Harf esa nutq tovushlarini yozuvda ifodalash uchun qo'llanadigan shartli belgi bo'lib, u yoziladi, ko'z bilan ko'riladi, ya'ni yozuv birligi hisoblanadi. Harf tovushning barcha xususiyatlarini to'la aks ettira olmaydi. Masalan, kitob, qiziq, qiz, berdi, bir kabi so'zlar tarkibidagi i tovushi aynan bir xil emas, lekin ular yozuvda bitta harf bilan yoziladi.

Nutq tovushlarining xususiyatini belgilashda, nutq a'zolari va ularning vazifasini bilish zarur. Nutq tovushlarining hosil bo'lishida ishtirok etuvchi organlar nutq organlari deyiladi. Bu organlarning jami esa nutq apparati deyiladi.

Nutq apparati quyidagi qismlarga bo'linadi: 1. Nafas apparati (o'pka, bir juft bronxlar, nafas yo'li). 2. Bo'g'iz bo'shlig'i (qalqonsimon tog'aylar, un paychalari). 3. Og'iz bo'shlig'i (tanglay, til, qichiq til, lab, tish). 4. Burun bo'shligi.

Nutq a'zolarining harakatiga ko'ra ular ikkiga bo'linadi. 1) faol nutq a'zolari: til, qichiq til, tovush paychalari, yumshoq tanglay, pastki jag kiradi. 2) passiv nutq a'zolariga: ko'krak qafasi, kekirdak, yuqori jag', qattiq tanglay, burun, tish kiradi.

Tovushlarni hosil qilish murakkab tabiiy-fiziologik jarayon bo'lib, bunda markaziy nerv sistemasi nutq a'zolari harakatini yuzaga keltiradi va uni bevosita

boshqaradi. Chunonchi, o'pka nutq tovushlarini talaffuz etish uchun zarur bo'lgan havo oqimining manbaidir.

So'zlash paytida havo oqimi nafas yo'li bilan bo'g'izga kelib, u yerda joylashgan un (ovoz) paychalarini tebratadi va ovoz hosil qiladi. Demak bo'g'iz bo'shlig'i ovoz manbai hisoblanadi.

Bo'g'iz bo'shlig'i orqali o'tgan havo oqimi og'iz bo'shlig'idagi til, tanglay yoki ikki labning to'siqligiga duch kelib, shovqin hosil qiladi. Shunday ekan, og'iz bo'shlig'i shovqin manbaidir.

Nutq a'zolari fonetika bo'limini o'rganishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rib o'tdik. Har bir tovush nutq a'zolari yordamida hosil qilinadi. Yozuvda esa yozuv birligi bo'lgan harf bilan belgilanadi.

5. Fonologiya (grekcha phone –«tovush», «ovoz», logos – «ta'limot») til haqidagi fanning alohida bo'limi bo'lib, nutq tovushlarining so'z va morfemalarni bir-biridan farqlash vazifasini o'rganadi.

Fonologiya nuqtai nazaridan nutq tovushlari fonema deb yuritiladi. Fonema eng kichik til birligi bo'lib, so'zlarni, morfemalarni, o'zaro farqlashga xizmat qiladi.

Fonema tilning ma'noli birliklarini-so'zlarni, morfemalarni shakllantiradigan va shu birliklarning ma'nolarini farqlash vazifasini bajaradigan eng kichik bo'linmas tovush hisoblanadi. Ya'ni so'z ma'nosini farqlash uchun xizmat qiladigan nutq birligi. Demak, fonema tabiatda uchraydigan har qanday tovush emas, balki ma'no ajratish tomoniga ega bo'lgan inson tovushidir. Masalan, bor, ber, bir, bur, so'zlari o,e,i,u unlilariga ko'ra ma'noda farqlanadi. Bor, bosh, bog', bob, bop, bod so'zlari esa r,sh,g',b,p,d undoshlariga ko'ra ma'noda farqlanadi. Ma'no farqlashga xizmat qiluvchi mana shu unli va undosh tovushlar fonemalardir.

Fonemalar o'zaro differensial belgilari orqali farqlanadi. Masalan, «q» undoshi o'zining jarangsizligi bilan jarangli «g» dan ajralib turadi. Demak, «q» ning jarangsizligi, «g» ning esa jarangligi bu ikki fonemaning differensial belgilari sanaladi. Differensial belgilar fonemalarning fonologik xususiyatini belgilaydi – so'z ma'nolarini farqlash uchun xizmat qiladi:

Til va dil so'zlarining ma'nolari ayni shu ikki fonemaning differensial belgilari tufayli farqlanadi.

Fonemalardan ularning variantlarini farqlamoq kerak. Fonema variantlari yondosh tovushlar ta'sirida paydo bo'ladi va turlicha talaffuz qilinadi. Masalan, ba'zan og'zaki nutqda f tovushi o'rniga p tovushi ishlatiladi. Lekin f ning p shaklida talaffuz etilishi yangi fonema sifatida tushunilmaydi, chunki bu bilan so'zning ma'nosi o'zgarmaydi. Bunday tovush o'zgarishi pozitsion yoki kombinator o'zgarish deb yuritiladi.

Tekshirish uchun savollar:

- 1.Fonetika nima?
- 2.Fonetikaning maqsadi nimadan iborat?
- 3.Fonetika qanday bo'limlarga bo'linadi?

4. Faol nutq a'zolariga qaysi nutq a'zolari kiradi?
5. Passiv nutq a'zolariga qaysi nutq a'zolari kiradi?
6. Fonema nima?

Tayanch tushunchalar:

Fonetika, nutq tovushlari, nutq a'zolari, fonema, fonemaning variantlari, differensial belgilari, pozitsion, kombinator o'zgarishlar.

FONETIKA BO'LIMI YUZASIDAN TEST SAVOLLARI.

1. Tilning old qismida hosilbo'ladigan undosh tovushlarni belgilang.
A) v.f B) b, p S) d, t D) ch, k E) q
2. Bir unli yoki bir undosh bilan farq qiladigan so'zlar qatorini toping.
A) Bilim, baliq B) Kamon, zamin
S) Bolg'a, bolta D) Boshliq, toshliq
E) Bormoq, qarmoq
3. Turlanish bilan bog'liq tovush o'zgarishi bo'ladigan so'zlar qatorini belgilang.
A) Kitob, xo'roz, ittifoq B) Samo, osmon, shivir
S) Bo'taloq, chiroq, etik D) O'qish, Pedagog
E) O'lchov, chiniqish, ishtirok
4. Pasay, susay so'zlarida o'zak va qo'shimchalarning qo'shilishi natijasida qanday fonetik o'zgarish vujudga kelgan?
A) Unli tovushlar almashinishi.
B) Undosh tovushlar almashinishi.
S) Unli tovushlar tushishi.
D) Undosh tovushlar tushishi.
E) Hech qanday fonetik o'zgarish vujudga kelmagan.
5. Quyidagi so'zlarning qaysi qatorida qo'shimcha qo'shilishi bilan tovush o'zgarishi sodir bo'lgan?
A) O'lcham, to'plam, o'ymakor
B) Shirinlik, ko'pchilik, bog'lam
S) Ko'ylakchan, ko'klam, o'lguncha
D) Gulduros, qishloq, ovloq
E) O'lchamli, tokcha, salobatli
6. Quyidagi so'zlarning qaysi birida ochiq bo'g'in mavjud.
A) San'atkorlik B) To'rtlikdan
S) Otlantirmoq D) Ishlatmoq
E) Biriktirmoq
7. Yangi imlo qoidasiga ko'ra jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qo'shilganda fonetik o'zgarish kuzatiladigan so'zlar qatorini toping .

- A) Bug' ,sog' B) tok, qishloq
S) tog' , bog' D) Barg, pedagog

8. Negadir undagi quvnoq davraga bo'lgan e'tibor susaydi.

Ushbu gapdagi yasama so'zlar tarkibida qanday fonetik o'zgarishlar vujudga kelgan?

- A) Tovush almashinishi B) Tovush tushishi
S) Tovush tushishi, orttirilishi va almashinishi
D) Tovush tushishi va almashinishi

9. Quyidagi fe'l yasovchi qo'shimchlardan qaysilari so'zga qo'shilganda so'z o'zak- negizida tovush o'zgarishlari yuz berishi mumkin?

1. -a 2.- ay 3.- la 4.- sira 5.- ira 6.- itla
A) 1,2,4,5 B) 1,6 S) 1,2,6
D) 3,6

10. b va k tovushlari qaysi xususiyatlariga ko'ra bir guruhga mansub bo'ladi?

- A) Lab yoki tish undoshlariga oidligiga ko'ra
B) Jarangli yoki jarangsizligiga ko'ra
S) Tilning qayerida paydo bo'lishiga ko'ra
D) Portlovchi yoki sirg'luvchiligi ko'ra

11. Malika opaning ikkala o'g'li shaharda o'qib, ulg'ayib yana bag'riga qaytdi. Ushbu gapdagi necha so'zda egalik qo'shimchalari qo'shilishi natijasida fonetik o'zgarish vujudga kelgan?

- A) 2 so'zda B) 1 so'zda S) 4 so'zda
D) 3 so'zda

12. q undoshi bilan tugagan o'zakka qaysi qo'shimcha qo'shilsa, so'z fonetik yozuv qoidasiga binoan yoziladi?

- A) egalik qo'shimchasi qo'shilsa
B) jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qo'shilsa
S) Q undoshi bilan tugagan o'zakka qo'shimchalar qo'shilgach, so'z doim morfologik yozuv qoidasi asosida yoziladi
D) Jo'nalish kelishigi va egalik qo'shimchalari qo'shilsa.

13. Qaysi so'zlarning o'zak-negizida tovush almashish yuz bergan ?

1. qiyina 2. tuzum 3. yuvundi 4. uyum 5. unum 6. bo'yoq
A) 2.4.6.
B) 1.2.3.4.5.6.
D) 1.2.4.6.
S) 1.4..5.6.

14. Fe'l o'zagiga qaysi qo'shimchani qoshib harakat nomi hosil qilishga asosan tovush almashishi kuzatiladi?

- A)-sh (-sh)

- B)-v -uv
- D) –moq
- S) A va B

15. Qaysi qatordagi soʻzlar faqat ochiq boʻgʻindan iborat?

- A) arra,fazo,quyosh
- B) mazali,goʻyo,keladi
- D) nozanin,azamat,ota
- S) mana,koʻrpa,semir

16. Qaysi qatordagi soʻzlarda tovush tushishi sodir boʻlgan ?

- A) qoʻshni,chinni,shinni.
- B) jinni,ayni, maʼni.
- S) sargʻay,yarmi,burni.
- D) chayla,qayla,sagʻri

17. Qaysi qatorda soʻzlarda tovush ortishi sodir boʻlgan

- A) shahri,oʻgʻri,bo;yni
- B) nashida,poyak,xoʻraki
- S) oʻroqqa,terakka,koʻkka
- D) oʻshanga,bunga,unga

18. Qaysi soʻz talaffuz qilinganda oldingi tovush keyingi tovushni oʻziga moslashtiradi?

- A) yozsin
- B) tuzsin
- S) yigitcha
- D) otdan

19. Quyidagi soʻzlarning qaysi birida nuqtalar oʻrniga boʻgʻiz tovushi ishlatiladi?

- 1. musho...ada 2. qabi...lik 3. xo...ish 4. mu...lis
- 5. xafa... ol 6. gul...ayri 7. ala...siramoq 8. ta...lika
- 9. mu... ofaza

A) 1,2,6,8

B) 1,2,3,7,8,9

S) 1,2,3,5,8,9

D) 2,3,5,6,7,8,9

20. Oʻzakka qoʻshimcha qoʻshilganda, oʻzakning tarkibida vujudga keladigan tovush oʻzgarishlarining asosiy turlarini belgilang.

- A) tovush almashinishi B) tovush tushishi
- S) tovush orttirilishishi
- D) tovush almashinishi va tovush tushishi

2. Savol va topshiriqlar

Matnni oʻqing. Undosh tovushlarni aniqlab, jadvalga joylashtiring.

3. Unli tovushlarning moslashuvi ohangdoshligi, uyg'unligi bu..
4. Undosh tovushlarning o'rin almashuvi
5. Singarmonizm hodisasi, faqat qaysi tilda uchrashi mumkin.
6. Undosh bilan tugagan bo'gin qanday bo'g'in deyiladi.
7. e, o' unlilari tilning vertikal harakatiga ko'ra qanday unlilar hisoblanadi.
8. Gap tarkibidagi ayrim so'zlarning kuchliroq aytilishi qanday urg'u hisoblanadi.

Mavzu: Tilning unli fonemalari

Dars rejasi:

- I. Unli va undosh tovushlar olamiga sayohat.
- II.
 1. O'zbek adabiy tilining unli fonemalari haqida ma'lumot.
 2. Unli tovushlar tasnifi.
 3. Unlilar tasnifi;
- III. Juft va ketma-ket keladigan unlilar imlosi.

Adabiyotlar:

1. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. T., «O'qituvchi». 1996y 20-23 betlar.
2. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek tili. T., «O'qituvchi». 1992y 17-21 betlar.
3. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Fonetika, fonologiya va orfoepiya. T., 1999y 22-24 betlar.
4. Mirtojiyev M. O'zbek tili fonetikasi. T., «Universitet» 1998y 16-20 betlar.
5. Hozirgi zamon o'zbek tili. Ma'ruza matnlari (fonetika, orfografiya, orfoepiya, leksikologiya, frazeologiya), T., 2001y 4-7 betlar.
6. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Ma'ruzalar matni 1-qism, 2000y 36-42 betlar.

Unlilar va undoshlar olamiga sayohat

I. Barkamol shaxsning ma'naviy dunyosi boy, fikrlash qobiliyati kuchli, nutqi ravon va go'zal inson bo'lishi kerak. Ona tili o'qitishning ham asosiy maqsadi o'quvchilarga faqat qonun – qoidalarni o'rgatish emas, balki ularni fikrlashga o'z fikrini ma'noli va ifodali, izchil va ravon bayon etishga o'rgatishdan iboratdir. Ya'ni tilni o'rganish bu faqat uning grammatik ko'rilishni bilish, tushuncha, ta'rif va qoidalarni o'zlashtirib olish emas, ona tilining boy imkoniyatlaridan foydalanib, fikrni og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash malakalarini puxta egallash hisoblanadi. Ona tili fani bolaga tilni o'rgatish bilan birga tilning serqirra imkoniyatlaridan nutqda foydalanish me'yorlarini ham o'rgatadi. Bularning barchasi

unli va undosh tovushlar, ya'ni nutq tovushlari bilan ham bog'liq masalalar hisoblanadi. Shu bois unli va undosh tovushlar olamiga sayohat qilamiz.

1. Ma'lumki, nutq tovushlari ovoz va shovqinning ishtirok etish darajasiga ko'ra unli va undosh tovushlarga bo'linadi.

Har bir til o'ziga xos unlilar tizimiga ega. Tildagi unlilar tizimi vokalizm deyiladi. (vokalizm so'zi lotincha «vokalis» so'zidan olingan bo'lib, unli (ovozli)) demakdir. Undoshlar esa konsonantizm deyiladi. (konsonantizm so'zi inglizcha «kondonantism» so'zidan olingan bo'lib, undoshlar tizimi demakdir).

Unli va undosh tovushlarning o'zaro munosabatida aslida ular teng qimmatli bo'lib, tilning asosiy birligi bo'lgan so'zlarni hosil qilishda bir xil ahamiyat kasb etadi. Lekin nutq prosessida unlilar undoshlarga nisbatan salmoqliroq o'rin tutadi. Bu hol ularning ovozga boyligi bilan belgilanadi.

Unli va undosh tovushlarning farqli belgilari quyidagicha:

Tovushlar

Unlilar	Undoshlar
Sof ovozdan iborat	Shovqindan iborat (sonor va jarangli undoshlarda ovoz ishtirok etiladi)
O'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchramaydi.	O'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchraydi
Bo'gin hosil qiluvchi asosiy vosita, yakka o'zi va undoshlar bilan birga bo'gin hosil qiladi	Yakka o'zi bo'gin hosil qilmaydi, faqat unli bilan birga bo'gin hosil qiladi.
Unlilar og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchramaganligi sababli ularni istagancha cho'zib talaffuz qilish mumkin.	Undoshlar talaffuzini cho'zib bo'lmaydi, bunga biror to'siq xalaqit beradi.

3. Unli tovushlar tizimi.

Unli fonemalar un paychalarining tebranishidan paydo bo'ladi va ularni talaffuz qilganda, o'pkadan chiqayotgan havo oqimi og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchramay chiqadi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida oltita unli tovush bor: i,e,o',a,o,u, Unli tovushlar yozuvda o'nta harf bilan ifodalanadi: i,e,a,u,o',o,ye,yo,yu,ya. Demak, unlilar tovush sifatida oltita, yozuvda esa o'nta belgi orqali beriladi. Yangi (lotin) o'zbek yozuvida 6 ta harf (i,e,a,o',o,u) ishlatiladi.

O'zbek tilshunosligida unli fonemalar quyidagi uch belgi asosida tasnif qiladi:

1.Lablarning ishtirokiga: a) lablashgan unlilar (u,o',o). Bu unlilarni talaffuz qilishda lablar, doira shaklida bir oz cho'ziladi; b) lablashmagan unlilar (i,e,a). Bu unlilarni talaffuz qilishda lablar doira shakliga kirmaydi va cho'zilmaydi.

2. Tilning vertikal harakatiga ko'ra: a) tor unlilar (i,u). Bu unlilarni talaffuz qilishda og'iz tor ochiladi, til bilan qattiq tanglay orasi tor bo'ladi; b) o'rta keng unlilar (e,o'). Bu unlilarni talaffuz qilishda og'iz o'rta darajada ochiladi, til bilan qattiq tanglay orasi ham o'rtacha kenglikda bo'ladi; v) keng unlilar (a,o). Bu unlilarni talaffuz qilishda og'iz keng ochiladi, til bilan qattiq tanglay orasi ham yuqoridagi ikki holatdan ancha keng bo'ladi.

3. Tilning gorizantal (yotiq) harakatiga ko'ra: a) old qator unlilar (i,e,a). Bu unlilarni talaffuz qilishda tilning uchki qismi pastki tishlarga tiraladi; b) orqa qator unlilar (u,o',o). Bu unlilarni talaffuz qilishda tilning uchki qismi pastki tishlarga tirilmaydi, bir oz orqaga tortilgan bo'ladi.

Unlilar tasnifi

1.	Lablarning ishtirokiga ko'ra	Lablashmagan	Lablashgan
	Tilning gorizantal harakatiga ko'ra	Til oldi	Til orqa
	Tilning Vertikal harakatiga ko'ra		
	Tor unlilar	I	U
	O'rta keng unlilar	E	O'
	Keng unlilar	A	O

O'zbek tilshunosligida unli fonemalarning boshqacharoq tasniflari ham bor. Chunonchi B.To'ychiboyevning «O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari», O.Azizovning «Tilshunoslikka kirish», M.Mirtojiyevning «O'zbek tili fonetikasi» kabi qo'llanmalarda har bir tilshunos unli tovushlar haqida o'z fikrlarini bayon qilgan.

Shunday qilib, o'zbek adabiy tili, vokalizmining tasnifi va tavsifi masalalari hozirgacha ancha munozarali bo'lib qolayotganligini anglash qiyin emas. Bunday munozaralarga sabab bo'layotgan omillar quyidagicha: 1) eski o'zbek adabiy tili vokalizmga xos 9 unlili tizimning hamda shu tizimga xos juftliklarning (i-ы, u-u, a-a, o-o) hozirgi adabiy til unlilar tizimi ham saqlanganligini asoslashga intilish; 2) qipchoq lahjasi shevalari unlilarga xos fonologik xususiyatlarning hozirgi o'zbek adabiy tili vokalizimida borligini asoslash harakati; 3) fonemalar o'rnida ularning o'ttenkalarini (variantlarini) ko'rsatish holatlarining mavjudligi va hokazolar.

Unli tovushlar tasnifi va tavsifi masalasi bo'yicha «Unlilarning unsiz taqdiri» («O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi 1997 yil 4 iyul sonida) nomli maqolada ham bu borada olib borilgan munozoralar keng talqin etilgan.

Ayrim unlilar tavsifi «I» unlisi – yuqori tor, oldi qator, lablashmagan. Bu tovush soʻzning barcha boʻgʻinlarida uchraydi. Masalan, ikki; bir; oldi kabi. U chuqur til orqa q,gʻ,x undoshlari bilan yonma-yon kelganda yoʻgʻon (orqa qator) unli tarzida, boshqa barcha pozitsiyalarga esa ingichka (old qator) unli sifatida talaffuz qilinadi.

«E» fonemasi – oʻrta keng, old qator, lablanmagan unli. Bu tovush bir boʻgʻinli soʻzlarda (men, sen, biz), koʻp boʻgʻinli soʻzlarning birinchi boʻgʻinida (beshik, etik, telpak) koʻproq qoʻllaniladi. Tobe, tole, voqeʻ, telefon kabi oʻzlashma soʻzlarda «e» unlisi «e» unli shaklida qoʻllanilgan. Oʻzbekcha ertak, ekin, eshik, ellik, el kabi soʻzlarda «e» shaklida aytiladi va yoziladi.

«a» tovushi – quyi keng, old qator, lablashmagan unli. Soʻzning barcha boʻgʻinlarida kela oladi: anor (birinchi boʻgʻinda), mahalla (ikki boʻgʻinda va oxirgi boʻgʻinda) kabi. Bu unli chuqur til orqa q,gʻ,x undoshlari bilan yonma-yon qoʻllanganda orqa qator yoʻgʻon unli tarzida talaffuz qilinadi; sayoz til orqa q,g,ng, til oʻrta y va boʻgʻiz h undoshlari bilan yondosh boʻlganda esa sayoz til orqa, ingichka ottenka bilan aytiladi. Qiyos qiling: qalb va kasal, kamar va qamar, tilxat va nasihat, dangal va dagʻal kabi.

U tovushi – tor, til orqa, lablashgan unli. Soʻzning barcha boʻgʻinlarida qoʻllanadi. Masalan, uzr, urgʻuli, kuzgi kabi. Urgʻuli boʻgʻinda kuchli, bir oz choʻziq; urgʻusiz boʻgʻinda esa qisqa, kuchsiz talaffuz qilinadi: bugun, uchun, tuzuk singari. Bu unli ham q,gʻ,x undoshlari bilan yondosh kelganda yoʻgʻonlashadi, yaʼni til orqa tovushga aylanadi. Agarda q,g,ng,y,h kabi undoshlar bilan yonma-yon kelganda esa til oldinga harakat qilib, ingichka talaffuz qilinadi. Chunonchi, qul-kul, hukm-xulq, guv-guv kabi.

Oʻ tovushi – oʻrta keng, til orqa lablashgan unli. Oʻ unlisi asosan soʻzning birinchi boʻgʻinida uchraydi. Lekin baʼzi bir oʻzlashma soʻzlarda oxirgi boʻgʻinlarda ham qoʻllaniladi. Masalan, oʻzbek; hushroʻy; obroʻ kabi. Birinchi boʻgʻindan keyin qoʻllanish holatlari ayrim qoʻshma soʻzlarda ham uchraydi. Masalan, gultojixoʻroz, Goʻroʻgʻli, Qirqoʻzak singari.

O tovushi – quyi keng, til orqa, lablashgan unli. Bu fonema soʻzning barcha boʻgʻinlarida uchraydi. Masalan, ona, lola, Raʼno qabi. Bobo, ozoda, dono, qoramol, molboqar kabi soʻzlarda har ikkala boʻgʻinda ham kela oladi.

q,g,y,h, undoshlari yonida old qator, q,gʻ,x, undoshlari yonida kelganda orqa qator tarzida talaffuz qilinadi. Qiyoslang: komil-qobil, hol-xol kabi.

Izoh: er, bayon, tayoq, yaxshi, yurak kabi soʻzlar tarkibidagi unli fonemalarga tavsif berganda ye,yo,yu,ya grafemalarining ikkitadan tovushi (y+e; y+o; y+u; y+a fonemalarini) ifodalayotganligi hisobga olinadi, shunga koʻra «y» undoshi alohida, e,o,u,a unlilari ham alohida tavsiflanadi.

4.Olinma soʻzlarda, xususan, arab tilidan oʻzlashgan leksik qatlamda unlilar juft va ketma-ket (qush) tarzda keladi: matbaa, taajjub, itoat kabi. Koʻpincha a,u va i qoʻsh unlilari bilan kelgan arabcha soʻzlar oʻzbek tilida koʻproq uchraydi.

Qoʻsh unlili soʻzlar	Juft unlili soʻzlar
Manfaat	Maorif
Inshoot	Soat

Mudofaa	Mushoira
Taalluqli	Itoat
Taassurot	Shoir
Mutolaa	Baodob
Taajjub	Qiroat
Matbaa	Muammo
Badiiy	Oila
Tabiiy	Muallif
Shuur	Jamoat

Tekshirish savollari:

1. Vokalizm nima?
2. O'zbek adabiy tili unlilari qaysi fonemalarni o'z ichiga oladi?
3. Unli tovushlar tasnifi nimalarga asoslanadi?
4. O'zbek tilshunosligida hozirgi o'zbek adabiy tili unlilariga oid qanday masalalar munozarali bo'lib qolmoqda?
5. Unlilar tavsifida nimalarga e'tibor beriladi?

Tayanch tushunchalar.

Unlilar (vokalizm), tasnif, tavsif, lablarning ishtirokiga ko'ra lablashgan, lablashmagan; tilning vertikal (tik) harakatiga ko'ra yuqori tor, o'rta keng, quyi keng; tilning gorizantal (yotiq) harakati ko'ra til oldi, til orqa.

Ma'ruza mavzusi: O'zbek adabiy tilining undosh tovushlari.

Dars rejasi:

1. Undosh tovushlar haqida umumiy ma'lumot.
2. Undosh tovushlar tasnifi.
3. Undoshlar tavsifi.
4. Qo'sh undoshlar va ularning qo'llanishi.

Adabiyotlar:

1. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 1992y 21-26 betlar.
2. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 2002y 6-10 betlar.
3. Jamolxonov H. (tuzuvchi). Hozirgi o'zbek adabiy tili (ma'ruza matni). T., 2000y 14-39 betlar.
4. Hozirgi o'zbek adabiy tili (ma'ruzalar matni: fonetika, orfografiya, orfoepiya) T., 2001y 4-14 betlar.

Har bir til o'ziga xos undoshlar tizimiga ham ega. Tildagi undoshlar tizimi konsonantizm deb ataladi.

Undosh tovushlar nutq a'zolarining biror yerida to'siqqa uchrashi bilan sifatlanadi. O'zbek adabiy tili undoshlar tizimi quyidagi fonemalardan iborat: b, v, g, d, z, j, y, q, l, m, n, o, p, r, s, t, f, h, ch, sh, g, h, ng

Adabiy tilida 23 ta undosh tovush bo'lib, ularni hosil qilishda o'pkadan chiqayotgan havo oqimi nutq a'zolarining biror yerida yuzaga kelgan to'siqdan

o'tishi, ya'ni nutq a'zolarining bir-biriga jipslashishi natijasida shovqin paydo bo'ladi, o'pkadan chiqayotgan havo esa uni yorib o'tishi yoki nutq a'zolarining bir-biriga yaqinlashishi, havoning juda tor oraliqdan sirg'alib o'tishi natijasida undosh tovushlar hosil bo'ladi.

2. Undosh tovushlarni tasnif qilishda quyidagilar hisobga olinadi:

- 1) un paychalarining harakati va holatiga ko'ra ovoz va shovqinning ishtirok etishi;
- 2) artikulyatsiya usuli (tovushning hosil bo'lish usuli);
- 3) nutq a'zolarida to'siqning paydo bo'lish o'rni.

Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra undosh tovushlar sonorlar va shovqinlarga bo'linadi.

Sonor (lotincha sonorus – «ovoz», «ohangli») undoshlarning talaffuzida ovoz paychalari titrab, shovqinga nisbatan ovoz ko'proq hosil bo'ladi: m,n,(ng),l,r. Shovqinli undoshlarda esa ovozga nisbatan shovqin ko'proq bo'ladi: t,q,sh,ch kabi.

Shovqinli undoshlar o'z xususiyatiga ko'ra ikki xil: jarangli undoshlar va jarangsiz undoshlar.

Jarangli undoshlarning aytilishida shovqinga qisman ovoz quyiladi, chunki bu tovushlarning hosil bo'lishida ovoz paychalari qatnashadi. Jarangsiz undoshlar esa, asosan, shovqindan iborat bo'ladi, chunki ularning talaffuzida ovoz paychalari qatnashmaydi. O'zbek tilida jarangli undoshlarning ko'p qismiga jarangsiz undoshlar juft bo'ladi:

Jarangli b, v, d, z, j, g, g, y, l, m, n, ng, r

Jarangsiz p, f, t, s, sh, q, k, h, x, ch

Tovushning hosil bo'lish usuliga qarab undosh tovushlar uchga bo'linadi: 1) portlovchi tovushlar; 2) sirg'aluvchi tovushlar; 3) qorishiq tovushlar. Sonorlar esa, o'z navbatida, burun tovushlari –m, -n, -ng, yon tovush –l, titroq tovushga -r bo'linadi.

Portlovchi undoshlar talaffuzida nutq a'zolari bir-biriga jipslashadi va havo oqimi ularni yorib (portlab) chiqadi: b, p, d, t, g, q, k kabi.

Sirg'aluvchi undoshlarning talaffuzida nutq a'zolari bir-biriga juda yaqinlashadi va havo oqimi shu a'zolariga ishqalanib chiqadi: v, f, z, s, j, sh, y, h, g, h.

Qorishiq yoki affrikat undoshlarning talaffuzi ikki xil usul (boshlanishida portlash, oxirida sirg'alish) ishtirokida hosil bo'ladi: ch=t+sh.

Burun undoshlarining (m, n, ng) talaffuzida kichik til salgina pastga tushib, havo oqimi burun bo'shlig'idan o'tadi.

L undoshi yon tovushdir. Uning aytilishida tilning uchi milkka tegib, ikki yoni salgina pasayadi va bo'shliq qoladi, havo oqimi shu yerdan sirg'alib chiqadi. R undoshining aytilishida havo oqimining ta'siri bilan til uchi titraydi, ayni vaqtda nutq a'zolari tez-tez jipslashadi, ana shu jipslashish r titroq tovush hisoblanadi.

Nutq a'zolarida to'siqning paydo bo'lish o'rniga qarab undosh tovushlar uchga bo'linadi: 1) lab undoshlari 2) til undoshlari 3) bo'g'iz undoshi.

Lab undoshlarining hosil bo'lishida pastki va ustki lablar faol ishtirok etadi.

Lab undoshlari o'z navbatida lab-lab undoshiga va lab-tish undoshiga bo'linadi.

Lab-lab undoshlari ikki labning faol ishtirokida hosil bo'ladi: b, v, m, p, (v tovush rus tilidan o'zlashgan so'zlarda lab tish undoshiga moyil).

Lab-tish undoshi pastki lab bilan ustki tishlar ishtirokida hosil bo'ladi: f

Til undoshlari tilning qaysi qismi faol harakat qilishiga qarab uchga bo'linadi:

1) til oldi undoshlari; 2) til o'rta undoshi; 3) til orqa undoshlari. Til oldi undoshlari til uchi yoki old qismi bilan milk va yuqori tishlar ishtirokida hosil bo'ladi: d, t, l, n, r, z, s, sh, j, ch.

Y tovushi til o'rta undoshi bo'lib, til o'rta qismining qattiq tanglay tomon ko'tarilishi asosida hosil bo'ladi. Til orqa undoshlari (g, q, n, (ng), q, g, h) hosil bo'lish o'rniga ko'ra ikki xil. Til orqa qismining yumshoq tanglayga tegishi natijasida hosil bo'lgan g, q, n, (ng) tovushlari sayoz til orqa undosh deyiladi. Til ildizi bilan yumshoq tanglayning orqa qismi ishtirokida hosil bo'lgan g', q, x tovushlari chuqur til orqa undoshi deyiladi.

Bo'g'iz undoshi (h) havo oqimining bo'g'iz bo'shlig'iga ishqalanib o'tishi natijasida hosil bo'ladi. Undosh tovushlar tasnifini quyidagi chizilma orqali ko'rib o'tamiz:

Undoshlar tasnifi

Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra		Hosil bo'lish usuliga ko'ra	Hosil bo'lish o'rniga ko'ra							Bo'g'iz tovushi
			Lab tovushlari		Til tovushlari					
			Lab lab	Lab tish	Til oldi	Til o'rt a	Til orqa			
							Sa yo z	Ch u-qur		
Son orlar Shovqinlilar	Jarangli	Portlovchilar	B		D		G			
	Jarangsiz		P		T		K	Q		
	Jarangli	Sirg'aluvchilar	V	(V)	Z,J	Y		G'		
	Jarangsiz		F	S, SH			X	H		
	Jarangli	Qorishiqqlar								
	Jarangsiz				CH					
	jarangli	Burun tovushlari	M		N		N (ng)			
		Yon tovush			L					
		Titroq tovush			R					

Undoshlar tavsifi

Lab undoshlari. Hozirgi o'zbek adabiy tilida b, p, m, v, f tovushlari lab undoshlaridir.

P undoshi. P – lab-lab, portlovchi, jarangsiz undosh tovush. So'zning boshi (pilla, pista), o'rtasi (ko'proq, topqir), oxirida (ko'p, cho'p) kela oladi.

Biroq ko'p bo'g'inli so'zlarning oxirida p kam uchraydi. Lekin talaffuzda so'z oxirida kelgan b tovushi hamma vaqt p bilan almashadi. (yurib→yurip, topib→topip).

B undoshi. B – lab-lab, portlovchi, jarangli undosh tovush. So'zning boshi (bog'), o'rtasida (o'zbek), oxirida (tob) uchraydi.

Talaffuzda so'z oxirida uchragan b doim jarangsizlashadi. ayb→ayp, mansab→mansap.

B tovushi ba'zan shevalarda va og'zaki nutqda so'z boshida m ga o'tadi. Buyon-muyon.

Lekin bu o'zgarishlar hozirgi orfografiyada aks ettirilmaydi.

Ba'zi joy nomlarida orfografiyaning an'anaviy tamoyillariga ko'ra o'z holicha, ya'ni aytilishiga ko'ra yoziladi.

V – undoshi. V – lab-lab sirg'aluvchi va lab-tish, portlovchi jarangli undosh tovush. Lab-lab varianti sof o'zbekcha so'zlarda (suv), lab-tish varianti esa forscha o'zlashgan so'zlarda (viloyat) uchraydi.

So'zning boshi (viloyat, varrak), o'rtasi (sovrin, chivin), oxirida (suv, yuv) kela oladi.

Lekin sof o'zbekcha so'zlarda v so'z boshida qo'llanmaydi. Lab-lab v tovushi o'zbek tili uchun qadimiy va asosiy tovush bo'lib hisoblanadi. Lab-tish v esa keyingi tovush.

O'zbek tili talaffuzida vazifa, vasiyat kabi so'zlarda uchraydigan lab-tish v tovushi tobora kengroq uzlashmoqda. Lab-tish varianti sof o'zbekcha turkiy so'zlarda so'z oxirida uchramaydi. Shuning uchun familiyalar oxirida keluvchi v tovushi ko'pincha p ga, ba'zan f ga o'tadi. Norqulop, Yorqulop, Petrop, Ahtamoflar. Xotin-qizlar familiyasida bu tovush v ga aylanadi. Ahmedova, Abramova.

F – undoshi lab-tish, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovush bo'lib, faqat qabul qilingan so'zlarda uchraydi. Bu tovush o'zbek tilida ayrim undov va taqlid so'zlarda (puf, tuf), so'z boshida (farmon, fido), o'rtasida (alfavit, shaffof), oxirida (muallif).

Lekin talaffuzda, shevalarda f tovushi ko'p holatda p tovushiga, ba'zan b ga almashadi. (fason-pason).

M – undoshi lab-lab, burun, sonor, portlovchi, jarangli undosh tovush. So'z boshida (maktab, muallim), o'rtasi (tomon, omon), oxiri (oqim)da kela oladi.

Til oldi yoki til-tish undoshlari.

Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida t, d, n, s, z, sh, ch, l, r tovushlari til oldi yoki til-tish undoshlaridir. Bulardan t, d, n, s, z, sh, l, r. sof undoshlar; ch tovushi esa qorishiq undoshdir.

T – undoshi til oldi, portlovchi, jarangsiz undosh tovush bo'lib, so'z boshi (tol, tog), o'rtasi (tortiq, yotiq), oxirida (tamat) uchraydi ko'pincha talaffuzda so'z oxiridagi t undoshi tushib qoladi. (past-pas, go'sht-go'sh).

O'g'iz shevalarida so'z boshidagi t ba'zan d ga o'tadi. (tuz-duz).

D – undoshi til oldi, portlovchi, jarangli undosh tovush. So'z boshi (dars, dengiz), o'rtasi (duradgor, yodgor), oxirida (bod, dod) kela oladi. Shuningdek, so'z

oxirida qavat kelgan undoshlardan biri d bo'lsa, talaffuzda tushib qoladi. (xursand-xursan)

N – undoshi til oldi, burun, sonor, portlovchi, jarangsiz undosh tovush. So'z boshida (nay, noq) o'rtasi (sonor, anor), oxirida (cho'pon, yupan) keladi.

N tovushi talaffuzda b tovushdan oldin ko'pincha qo'shma so'z birikmalarida m tovushiga aylanadi. (manba-mamba).

S – undoshi til oldi, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovush. So'zning boshi (savol, suv), o'rtasi (o'smoq, kesmoq), oxirida (kes, os) keladi.

Z – undoshi til oldi, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovush. So'zning boshi (zarar, zahar), o'rtasi (uzoq, yuza) oxirida z tovushi jarangsizlashib s tovushiga moyil bo'ladi. Yuramiz-yuramis, topamiz-topamis.

Sh – tovushi til oldi, sirg'aluvchi jarangsiz undosh tovush. So'zning boshi (shuur, she'r), o'rtasi (tushmoq, suyushmoq) da kela oladi.

J – undoshi ikki fonemani vazifasini bajaradi. J til oldi, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovush. Boshi (jiyda), o'rtasi (ajnabiy), oxiri (toj) da keladi.

Ch – tovushi til oldi, qorishiq, portlovchi jarangsiz undosh tovush. So'z boshida (cho'p, cho'ri), o'rtasi (necha, kecha), oxirida (yupanch, o'kinch) kela oladi.

L – undoshi til oldi, sonor, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovush. So'zning boshi (lag'mon, latif), o'rtasida (alam, dalolat), oxirida (odl, aql) uchraydi. L sof o'zbekcha so'zlarda so'z boshida deyarli qo'llanmaydi. Bunda og'zaki talaffuzda tushib qoladi. (cholsa-chosa, solsa-sosa).

R – undoshi til oldi, sonor, titroq, jarangli undosh tovush. So'zning boshi (rais, ruxsat), o'rtasida (tortiq), oxirida (tor, ur) keladi. Og'zaki talaffuzda, jumladan, shahar shevalarida bu tovush ko'plik affiksi –lar -ning talaffuzida, bor so'zida ko'pincha r tushib qoladi. (dadamla(r) bo(r)mi).

Y – undoshi til o'rta, sirg'aluvchi, jarangli, undosh tovush. So'zning boshi (yirt, yiroq), o'rtasida (tiyin, keyin), oxirida (toray, boray) uchraydi. Ayrim so'zlarda esa t,d tovushlariga mos keladi: (ketin-keyin).

Til orqa undoshlari.

Hozirgi zamon o'zbek tilida q, g', k, g, x, ng tovushlari til orqa undoshlari bo'lib, bulardan k, g, ng – yaqin til orqa undoshlari; q, g', x chuqur til orqa undoshlaridir.

K – undoshi yaqin til orqa, portlovchi jarangsiz undosh tovush. So'zning boshi (kir, kalta), o'rtasida (turtki, tepki), oxirida (kerak, tilak) kela oladi.

Ikki yoki undan ortiq bo'g'inli so'zlar ohirida kelgan q tovushidan keyin egalik affiks qo'shilganda jaranglilashadi va g tovushga aylanadi. (elak-elagim, kerak-keragim).

G – undoshi yaqin til orqa, portlovchi, jarangli undosh tovush. So'zning boshida (go'sht, gilam), o'rtasida (ilgak, irgak), oxirida (barg, pedagog). Oxirida g undoshi bilan tugagan so'zlar k undoshiga almashadi: barg-barkka, eg-ekkan.

Ng – birikmasi yaqin til orqa, portlovchi, jarangsiz undosh tovush. So'zning boshida uchramaydi, so'zning o'rtasida (nonga, songa), oxirida (zang, tong) uchraydi.

Q - undoshi chuqur til orqa, portlovchi, jarangsiz undosh tovush. So'zning boshi (qurs, qum), o'rtasida (yupqa, tortqi), oxirida (tortiq, o'rtoq) kela oladi.

Ikki yoki undan ortiq bo'g'inli so'zlar oxirida kelgan q tovushi egalik qo'shimchasidan oldin kelganda jaranglilashadi, g' tovushiga aylanadi. (qishloq-qishlog'im, o'rtoq-o'rtog'im).

G – undoshi chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovush. So'zning boshida (g'o'ra, g'ildirak), o'rtasida (og'a, tog'a), oxirida (tog', bog', sog') uchraydi. Sof o'zbekcha so'zlarning oxirida kam uchraydi.

Oxiri g' bilan tugagan so'zlarga g bilan boshlanadigan affikslar qo'shilganda tovushlar o'zgarmaydi. (bog'-bog'+ga, tog'-tog'+ga).

X – undoshi chuqur til orqa, sirg'aluvchi jarangsiz undosh tovush. So'zning boshi (xat, xor), o'rtasida (oxir, shaxmat), oxirida (mix, six) uchraydi. So'z oxirida kam qo'llanadi. Bu tovush qipchoq shevalarining ko'pchiligida q tarzda bo'ladi.

Bo'g'iz tovushi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida h bo'g'iz tovushidir.

H – undoshi bo'g'iz, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovush. So'zning boshida (hafta, hut), o'rtasida (ohista, sahar), oxirida (nigoh, choh) kela oladi.

Bu tovush oh, uh, voh kabi o'zbekcha undov so'zlarda bor bo'lishiga qaramay, arab-fors tillaridan o'zlashtirilgan so'zlarda uchraydi. Shuning uchun bu tovushning ayrim sheva vakillari (masalan Toshkent) ko'pincha h tovushidan farqlay olmaydi.

4. Nutqda har xil undoshlarning qator kelishi bilan birga bir xil undoshlar ham qator kelishi mumkin. O'zbek tilida qo'sh undoshlar asosan, so'z o'rtasida keladi: sodda, lazzat, achchiq. Rus tili orqali o'zlashgan so'zlarda qo'sh undoshlar so'z oxirida ham qo'llaniladi: gramm, metall.

Qo'sh undoshlarning ma'no farqlashga ham xizmat qilishini e'tiborga olish lozim: qattiq-qatiq, sodda-soda, billur-bilur. Bunday so'zlarda bitta undosh tushib qolsa ham xato bo'lmaydi, ikkinchi bir ma'noli so'z hosil bo'ladi. O'zbek tilidagi qo'sh undoshlar o'zak oxiridagi undoshdan keyin shunday tovush bilan boshlanadigan qo'shimcha qo'shish, o'zak oxiri yoki qo'shimcha boshidagi tovushlarning o'zgarishi sifatining kuchaytirma shakli yasalishi bilan hosil bo'ladi: eshit+tir, gul+lar, tog'+ga=toqqa, tug'+gan=tuqqan kabi.

Tekshirish uchun savollar:

1. Undosh tovushlar qanday tovushlar?
2. Undosh tovush qaysi jihatlariga ko'ra tavsif qilinadi?
3. Qo'sh undoshlarning ma'no farqlashi deganda nimani tushunasiz?

Tayanch tushunchalar:

Undosh tovushlar, jarangli va jarangsiz undoshlar, portlovchi, sirg'aluvchi, qorishiq undoshlar, sonorlar, yon tovush, titroq tovush, qo'sh undoshlar.

1) b va k tovushlari qaysi xususiyatlarga ko'ra bir guruhga mansub bo'ladi?

- A) lab yoki tish undoshlariga oidligiga ko'ra.
- V) jarangli yoki jarangsizligiga ko'ra.
- S) tilning qayerida paydo bo'lishiga ko'ra.
- D) porlovchi yoki sirg'aluvchiligiga ko'ra.

2) teatr, tank, saodat so'zlari imlo qoidalarining qaysi biriga asoslanib yozilgan?

- A) morfologik yozuvga
- V) fonetik yozuvga

- S) fonetik va shakliy yozuvga
D) shakliy yozuvga

MAVZU: Nutqning asosiy fonetik birliklari.

DARS REJASI :

1. Nutqning fonetik bo'linishi.
2. Jumla (faza) va takt haqida.
3. So'z va bo'g'in haqida.
4. Urg'u va uning vazifasi haqida.

A D A B I Y O T L A R:

1. Rafiyev A. Dolimov U. «O'zbek tili va adabiyoti». T. 1998. 29-32 betlar.
2. Tursunov U, Muxtorov J. «Hozirgi o'zbek adabiy tili». T. 1992. 25-28 betlar.
3. O'zbek adabiy tilining imlo lug'ati. 1995 yil. 3-8 betlar.

1. Nutq o'zaro fikr almashuv jarayonida kishilarning til vositalaridan foydalanish faoliyatidan iborat. Inson nutqini shakllantiruvchi fonetik vositalar qatorida tovushdan tashqari bo'g'in, urg'u, intonatsiya ham muhim o'rin tutadi.

Tovushlar o'zaro birikib bo'g'inlarni hosil qilsa, bo'g'inlar ham qo'shib so'zlarni vujudga keltiradi. Bir necha so'zlar intonatsion jihatdan birlashib takt (sintagma) ni hosil qiladi. Sintagmalar esa, o'z navbatida mazmuni va intonatsion jihatdan birikib fraza (gap) larni hosil qiladi. Bundan shu narsa ma'lum bo'ladiki, nutq ohang oqimidan, ya'ni turli ohanglar zanjiridan tarkib topadi.

Nutq oqimi kichik va katta fonetik bo'laklarga bo'linadi. Eng kichik fonetik bo'lak tovush, tovushdan kattaroq fonetik bo'lak so'z, sintagma (takt) va gapdir. Xuddi ana shu qismlar nutqni ikki xil ko'rinishda, ya'ni og'zaki va yozma ko'rinishlarda namoyon qilinadi. Og'zaki va yozma nutq ham, o'z navbatida, ikki xil shakl, ya'ni dialogik va monologik shakllarga egadir. Nutqning bunday shakl va ko'rinishlari bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lib, hamisha bir-birini boyitib keladi.

2. Mazmun jihatidan va intanatsion jihatdan tugallikni ifodalovchi fonetik bo'laklar frazalardir.

Faza – nutqning ikki pauza orasidagi intanatsion butunligi bo'lib, u quyidagicha, tugal bir gapga tengdir. Ya'ni fraza va gap sinonim so'zlar sifatida ishlatiladi. Masalan, quyidagi «Zumrad va Qimmat» ertagidan olingan parchada to'rtta jumla bor: Qiz kampir bilan qayta – qayta xayrlashib yo'lga tushibdi. Shu paytda chol o'z qizini sog'inib, eshigi oldida yo'qlab o'tirgan ekan. Qiz otasini ko'rishi bilan, uning bag'riga tashlanibdi.

Takt bu – frazaning ikki qisqa pauza orasida keladigan va bir bosh urg'u bilan aytiluvchi bo'lagi. Masalan, yuqorida keltirilgan parchani olaylik, u quyidagicha taktlarga ajratiladi: Qiz kampir bilan // qayta-qayta xayrlashib // yo'lga tushibdi. Bir zumda arava // qizning uyi oldida paydo bo'libdi. Shu paytda chol // o'z qizini sog'inib // yig'lab o'tirgan ekan. Qiz otasini ko'rishi bilan // uning bag'riga tashlanibdi.

3. So'z – takt ichida yoki o'zicha ayrim urg'u bilan aytiladigan bo'lakdir. Masalan, yuqoridagi parchani olaylik: Qiz - kampir – bilan- qayta – qayta – xayrlashib – yo'lga – tushibdi. Bir – zumda – arava – qizning – uyi – oldida – paydo

– bo'libdi. Shu – paytda – chol – o'z – qizini – sog'inib – yig'lab – o'tirgan – ekan. Qiz –otasini – ko'rishi – bilan – uning – bag'riga – tashlanibdi.

Bu parchadagi birinchi jumla yettita so'zdan, ikkinchi jumla sakkizta so'zdan, uchinchi jumla to'qqizta so'zdan va to'rtinchi jumla yettita so'zdan tuzilgan.

Bir nafas chiqarish bilan talaffuz qilinadigan tovush yoki tovushlar birikmasi bo'g'in hisoblanadi. So'zlarni talaffuz qilganda o'pkadan chiqayotgan havo oqimi bir tovush yoki bir necha tovushdan keyin bo'linib, goh kuchli, goh kuchsiz havo zarbi bilan aytilishidan bo'g'in hosil bo'ladi. Bo'g'inlarning hosil bo'lishida unli tovushlar muhim rol o'ynaydi, unli tovushlarsiz bo'g'in tuzilmaydi. Shuning uchun ham so'zdagi bo'g'inlar soni undagi unlilar soniga teng bo'ladi. Masalan: qarindoshlarimiz so'zini olaylik. Bu so'zda oltita unli bor, demak oltita bo'g'in mavjud: qa-rin-dosh-la-ri-miz.

Yoki o'qituvchi so'zini olaylik. Bu so'z to'rtta bo'g'indan tarkib topgan: o'-qi-tuv-chi. Birinchi bo'g'in bitta unli tovushdan (o') tuzilgan, ikkinchi bo'g'in bir unli va bir undosh tovushdan tuzilgan. (qi). Keyingi bo'g'in bir unli hamda ikki undoshdan, oxirgi bo'g'in bir unli va bir undoshdan iborat.

Bo'g'inlar ikki xil bo'ladi: 1. Ochiq bo'g'in. 2. Yopiq bo'g'in. Unli tovush bilan tugagan bo'g'in ochiq bo'g'in deyiladi. Masalan: ma-sa-la, o-na, bo-la, mu-so-da-ra, mu-do-fa-a kabi. Undosh tovush bilan tugagan bo'g'in yopiq bo'g'in sanaladi. Masalan: qish-loq, mak-tab, tok-zor, ham-mom, daf-tar, kak-lik kabi.

O'zbek tilidagi so'zlarning bo'g'in tuzilishida, odatda unli va undoshlarning yonma-yon kelishi o'ziga xos jarangdorlikni vujudga keltiradi. O'zbekcha so'zlarda bo'g'in qator kelgan undoshlar bilan boshlanmaydi, bo'g'in oxirida esa ikkitadan ortiq kelmaydi: lo-la, do-na, aql, ost, ust kabi.

Bo'g'inning savod chiqarishda (birinchi sinfda so'zlar bo'g'inlab o'qitiladi), she'riyatda (barmoq vaznida), musiqa asarlarida, ashula matnlarini to'g'ri tekstovka qilishda ahamiyati katta. Bundan tashqari, yozuvda bir yo'lga sig'may qolgan so'zlarning bir qismlari ikkinchi yo'lga bo'g'in asosida ko'chiriladi.

She'riy asarlarni, ayniqsa barmoq vaznidagi she'rlarni ifodali o'qishda misralarda bo'g'in (hijo)larning bir xil miqdorda, tekis takrorlanishi natijasida muayyan ritm hosil qilishiga asoslaniladi. Masalan, G'afur G'ulomning «Vaqt» she'ri 11 bo'g'inlidir:

*G'uncha ochilguncha o'tgan fursatni
Kapalak umriga qiyos etgulik.
Ba'zida bir nafas olgulik muddat,
Ming yulduz so'nishi uchun yetgulik.*

Bo'g'in ko'chirishi. Bir necha bo'g'inli so'zning qator oxiriga sig'may qolgan bo'g'inlari quyidagi hollarda keyingi qatorga ko'chiriladi:

1. Birinchi qatorda qolgan bo'g'inga mansub so'nggi tovush keyingi qatorga ko'chgan bo'g'inga qo'shilib qolmasligi yoki, aksincha, ko'chayotgan bo'g'inga tegishli tovush yuqoridagi qatorda qolayotgan bo'g'in tarkibida qolmasligi kerak: tinch-imoq emas tin-chimoq yoki tinchi-moq, te-le-vi-zor (telev-izor emas), so-mon (som-on emas) kabi.

2. Soʻzning bosh yoki oxirgi boʻgʻini bir harfdan iborat boʻlsa, ular quyidagicha koʻchiriladi:

a) soʻz boshidagi bir harfdan iborat boʻgʻin yolgʻiz oʻzi oldingi satrda qoldirilmaydi: a-badiy emas abadiy, e-shaklar emas, eshak-lar kabi;

b) soʻz oxirida bir harfdan iborat boʻgʻin yolgʻiz oʻzi keyingi satrga koʻchirilmaydi: mudofa-a emas mudo-faa, matba-a emas, mat-baa kabi.

3. Oʻzlashma soʻzlarning boʻgʻinlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha koʻchiriladi:

a) ikki undosh kelsa, ular keyingi satrga birgalikda koʻchiriladi: dia-gramma, mono-grafiya, orfo-grafiya kabi.

b) uch undosh kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrlarga koʻchiriladi: silin-drik, konsen-trik, elek-tron kabi.

4. Bir tovushni ifodalovchi harflar birikmasi birgalikda koʻchiriladi: si-ngil, de-ngiz, to-ngi, ota-ngiz, pome-shchik kabi.

5. Bosh harflardan yoki boʻgʻinga teng qism va bosh harflardan iborat qisqartmalar, shuningdek, koʻp xonali raqamlar satrdan satrga boʻlib koʻchirilmaydi: AQSH, BMT, ToshDU, NDPI, BTU, 18, 1985, HIH kabi.

6. Harfdan iborat shartli belgi oʻzi tegishli raqamdan ajratib koʻchirilmaydi: 5 – «A» sinf, A1 guruhi, 61kg, 70ga, 170sm, 90mm, 200gr kabi.

7. Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan holda keyingi satrga koʻchirilmaydi: «Navroʻz-92» (festival), «Oʻqituvchi-91» (koʻrik tanlov), «Buxoro-6», «Andijon-9» (paxta navlari) kabi.

8. I.A.Karimov, Sh.Rahmatullayev, A.Oripov kabilarda ismning, ota ismining birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib koʻchirilmaydi. Shuningdek v.b (va boshqalar), sh.q (shu kabilar) ham ajratilmaydi.

9. Tarkibida ayirish yoki yumshatish belgisi boʻlgan soʻzlar boʻgʻinlarga ajratib koʻchirilganda, bu belgilar birinchi qatorda qoladi: maʼ-no, Raʼ-no, jurʼ-at, saʼ-va, laʼ-nat, fakulʼ-tet, palʼ-to, delʼ-fin, apeliʼ-sin, alʼ-bom kabi.

4. Nutqdagi biror boʻlakning boshqalariga nisbatan kuchliroq aytilishi urgʻu hodisasidir. Urgʻu nutqning qaysi boʻlagiga tushishiga koʻra ikki turga boʻlinadi: 1. Soʻz urgʻusi (yoki leksik urgʻu). 2. Mantiqiy urgʻu (yoki logik urgʻu).

1. Soʻz urgʻusi soʻzdagi biror boʻgʻinga tushadi. Bunda, oʻsha urgʻu tushgan boʻgʻin boshqalariga koʻra kuchliroq, choʻziqroq talaffuz qilinadi. Soʻz urgʻusi boʻgʻindagi unli tovushga tushadi. Masalan, kitob, daftar, qalam. Kuchliroq talaffuz qilingan boʻgʻin urgʻuli boʻgʻin, qolganlari esa urgʻusiz boʻgʻin deb yuritiladi: daftar soʻzidagi keyingi boʻgʻin urgʻuli (daf-tar), birinchi boʻgʻin esa urgʻusiz (daftar).

Oʻzbek tilida urgʻu, odatda soʻzning oxirgi boʻgʻiniga tushadi: muqova, xalifa, kalava, Salimboyvachcha, Nigora, Sanobar soʻzlarga qoʻshimcha qoʻshila borishi bilan urgʻu ham soʻzning oxirgi boʻgʻiniga kucha boradi: muqovasidan, xalifani, kalavada, Nigorani, bolalarda kabi. Ammo oʻzbek tilida urgʻu oxirgi boʻgʻinga tushmaydigan holatlar ham mavjud. Bular quyidagilardir:

1. Arab va tojik tilidan oʻzlashgan ayrim ravishlarda: aslo, doim, yangi, hamisha, hozir;

2. Modal soʻzlarda: zero, afsuski, albatta, nihoyat, binobarin, balki;

3. Baʼzi yordamchi soʻzlarda: ammo, lekin, garchi, yoxud, basharti, goʻyo, hatto;

4. Olmoshlarda: kimdir, hamma, bari, allakim, allaqanday, ba'zi, qaysi;

5. Fe'ning buyruq shakllarida; kelsin, tegma, boshla, yo'qot, keltir, buyur.

So'zning oxiriga qo'shiladigan ba'zi qo'shimchalar ham urg'u olmaydi.

Bulgarga:

1) dona, chama son yasovchi qo'shimchalar: ta, beshta, oltita; -tacha, yigirmatacha, mingtacha, saksontacha;

2) birinchi guruh shaxs-son qo'shimchalari: - man, -san, -dir, -miz, -siz; boraman, kelarsiz, berasan, olarsiz;

3) ravish yasovchi qo'shimchalar: -cha, -dek, -day; bolacha, qushdek, bizlarday;

4) bo'lishsizlik qo'shimchasi: - ma; kelma, tashima, yo'qotma, uzatma;

5) yuklamalar: -u, -yu, -ku, -mi, -chi, yoq, -oq, -gina; ular-chi, bizniki-ku, berasiz-mi?, olding-mi?, bugunoq, kechasiyoq, bizlargina, undayu.

So'z urg'usi so'zlarni talaffuz qilish me'yorini belgilabgina qolmay, so'z ma'nosi va grammatik shakllarni farqlashda ham xizmat qiladi. Urg'u tovush tomoni bir xil bo'lgan so'zlar- omonimlarni va so'z shakllarini ajratish xususiyatiga egadir: bosma (bosmaxona mahsuloti), bosma (fe'l), olma (meva), olma (fe'l), yuvindi (idish-tovoq yuvindisi), yuvindi (harakat), keraksiz (kerak emas), keraksiz (menga keraksiz ma'nosida), bolacha (kichraytirish shakli), bolacha (ravish), o'quvchimiz (biz o'quvchimiz), o'quvchimiz (bizning o'quvchimiz), qaynatma (bo'lishsizlik ma'nosidagi buyruq fe'li), qaynatma (qaynagan narsa, suv).

O'zbek tiliga o'zlashgan ruscha – o'zlashma so'zlarda ham urg'u ma'no farqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday so'zlarda urg'u birinchi bo'g'inga tushsa ot, ikkinchi bo'g'inga tushsa sifat so'z turkumiga oid so'zlar hosil bo'ladi: astronomik (astronomik olim), astronomik (astronomik hodisa), texnik (ot s.t), texnik (sifat s.t). fizik (ot s.t), fizik (sifat s.t).

Yozma va og'zaki nutqda urg'uni to'g'ri qo'llash muhim ahamiyatga ega. Noo'rin qo'yilgan urg'u ma'noga ta'sir etadi, uslubiy xatoliklarni keltirib chiqaradi. Bu ko'pincha quyidagi hollarda yuz beradi:

1. Ruscha – baynalminal so'zlarning ma'nosini bilmaslik tufayli. Masalan fizik (shaxs oti), (fizik qonun, belgi oti kabi);
2. Rus tilidan kirgan ayrim so'zlar o'zbek tilida mavjud bo'lgan so'z bilan omonimlik qator hosil qiladi. Bunda urg'uni to'g'ri qo'yib talaffuz qilish kerak. Masalan: atlas (atlas ko'ylak, mato), atlas (xarita) kabi;
3. Ot yasovchi qo'shimcha bilan fe'ning bo'lishsizlik qo'shimchasini ajrata bilmaslik tufayli sodir bo'ladi. Masalan: qatlama (ot), qatlama (fe'l), surma (ot), surma (fe'l), o'sma (ot), o'sma (fe'l) kabi;
4. Ruscha – o'zlashma so'zlarga urg'u qo'ya bilmaslik natijasida g'aliz talaffuz qilish o'rniga metafora, metonimiya o'rniga metonimiya kabi talaffuz qilish;
5. So'z o'zagiga yoki so'z o'zagiga qo'shiladigan so'z yasovchi, shakl yasovchi qo'shimchalarga tushadigan urg'uni almashtirib qo'llash tufayli kelib chiqadigan xatolar. Masalan: ish-chi – ishchi, toycha- toycha, bolacha- bolacha.

2. Mantiqiy (yoki logik urg'u) urg'u gapdagi fikriy jihatdan ahamiyatni bo'lgan so'zning kuchli talaffuz qilinishidir. Bunda so'zlovchi gap ichidagi ba'zi so'zlarning ma'nosini yanada ta'kidlab, kuchaytirib ko'rsatish uchun boshqa so'zlarga nisbatan kuchliroq ohang bilan talaffuz etiladi.

Nutqda mantiqiy urg'u tushgan so'z ovozni balandlatirish, pastlatish, pauza qilish kabi vositalar bilan ajratib aytilgani uchun tinglovchining e'tiborini tez tortadi. Mantiqiy urg'u istalgan so'zga tushishi mumkin. Masalan: 1. Kecha Nigora Shamsiyaning **uyiga** bordi. 2. Nigora Shamsiyaning uyiga **kecha** bordi. 3. Shamsiyaning uyiga kecha **Nigora** bordi. Bu gaplarning birinchisida o'rin holiga (Shamsiyaning uyiga (qayerga?)), ikkinchisida payt holiga (kecha (qachon?)), uchinchisida esa ega (Nigora (kim?)) alohida e'tibor berilgan. Mantiqiy urg'u olgan bo'lak ko'pincha kesimning oldida bo'ladi.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. Nutqning asosiy fonetik birliklari deganda nima tushunasiz?
2. Fonetik birliklarni bir – biridan farqlab bering?
3. Bo'ginga ajratish va bo'gin ko'chirish qoidalari haqida ayting?
4. Urg'u va uning xususiyatlarini sharhlab bering?

TAYANCH IBORALAR:

Jumla (fraza), takt, so'z, urg'u, bo'g'in, ohang (intonatsiya), sintagma, gap.

MAVZU: Nutq jarayonidagi fonetik o'zgarishlar.

D a r s r e j a s i:

1. So'z tarkibidagi fonetik o'zgarishlar haqida ma'lumot.
2. Singarmonizm hodisasining unli va undoshlarga ta'siri.
3. Tovush o'zgarishlari.
4. So'z o'zagidagi tovush o'zgarishlari.

A D A B I Y O T L A R:

1. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T. 1992. 28-31 betlar.
2. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T. 1980. 71-77 betlar.
3. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T. 2002. 6-10 betlar.

So'z tarkibidagi fonetik o'zgarishlar asosan tovushlarning o'zaro bir-biriga ta'siri natijasida yuz beradi. So'zlarni talaffuz qilish jarayonida unlilar, jarangli va jarangsiz undoshlar ma'lum fonetik qonuniyat asosida bir-biriga o'xshashlik yoki noo'xshashlik tomon o'zgaradi, natijada har xil tovush o'zgarishlari vujudga keladi.

So'z tarkibida yuz beradigan fonetik o'zgarishlarga singarmonizm, assimilyatsiya (moslashuv), dissimilyatsiya – (noo'xshashlik), metata, tovush tushishi, tovush qo'shilishi, tovush o'zgarishi kabilar kiradi.

Singarmonizm (yunoncha sin - «birga» va garmonia - «ohangdoshlik»). So'z tarkibidagi unli tovushlarning o'zaro bir- biri bilan ohangdosh bo'lishi, uyg'unlashishi *singarmonizm* deyiladi. Singarmonizm ikki ko'rinishga ega: a) tanglay garmoniyasi; b) lab garmoniyasi. Tanglay uyg'unligiga ko'ra so'z tarkibidagi unlilar old qator (til oldi) yoki, orqa qator (til orqa) unlilar

bo'ladi, hamda yumshoq –qattqlik jihatidan o'zaro uy'gunlashadi. Jumladan so'zning asosida old qator unli bo'lsa unga qo'shiladigan affikslarda ham old qator unli keladi: kechalari, ketasiz, kelaman, echkiga, ishlaymiz kabi. Aksincha so'zning asosida orqa qator unlilar bo'lsa keyingi bo'g'inlarda ham shunga mos ravishda orqa qator unlilar keladi: qishloqda, qirqinchi, yig'lading, qirg'oq kabi. Demak, tanglay uyg'unligi yumshoq qattqlik. Til oldilik – til oraliq hodisasiga asoslangan ohangdoshlik hisoblanadi.

Singarmonizmning ikkinchi ko'rinishi lab uyg'unligi bo'lib, so'z tarkibidagi unlilarning lablashgan-lablashmaganligi jihatidan ohangdosh bo'lishi hisoblanadi, yangi asosda kelgan lablashgan unli affikslarda ham lablashgan unlining kelishini talab qiladi. Bu vaqtda unlilarning til oldilik va til orqalik jihatidan moslashganligi saqlangan bo'ladi. Bu hodisalar boshqa turkiy tillar uchun va singarmonizm hodisasi saqlangan o'zbek shevalari uchun xosdir. Lekin ularda ham bir xil holatda emas, ayrimlarida kuchliroq, ba'zilarida bir oz kuchsizroq tarzda saqlangan.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida va adabiy tilga asos bo'lgan yetakchi shahar shevalarida tanglay uyg'unligiga ham lab uyg'unligiga ham rioya qilinmaydi. Shu o'rinda shuni aytib o'tish kerakki, singarmonizm faqat unlilarga emas, undoshlarga ham xos hodisadir.

Assimilyatsiya - so'z tarkibidagi tovushlarning o'zaro bir-biriga ta'siri asosida vujudga kelgan o'xshashlik alomati moslashish hodisasidir. U o'z xususiyatiga qarab ikki xil bo'ladi.

1) progressiv assimilyatsiya; 2) regressiv assimilyatsiya.

Progressiv assimilyatsiyada oldingi tovush keyingi tovushni o'ziga o'xshatadi. Ketdi – ketti, otdan-ottan kabi.

Regressiv assimilyatsiyada keyingi tovush oldingi tovushni o'ziga o'xshatadi. Tuzsiz – tussiz, yozsin – yossin kabi.

Dissimilyatsiya. Bir xil tovushlarning o'zaro ta'siri ostida vujudga kelgan no'o'xshashlik *dissimilyatsiya* deyiladi. U ham o'z xususiyatiga qarab yuqoridagidek 2 ga bo'linadi.

1. Progressiv dissimilyatsiya zarur – zaril; birorta – bironta.

2. Regressiv dissimilyatsiya malol – maral, koridor – kalidor.

O'zbek adabiy tilida tovush tushishi, tovush qo'shilishi, tovush o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan turlicha fonetik o'zgarishlar ham uchraydi.

Tovush tushishi. So'zning biror yerida tovush tushib qoladi. So'zning boshida tovush tushib qolishi *prokopa* deyiladi: yog'och (yog'och)- og'och, yigna – igna, yiring – iring kabi. So'z o'rtasida tovush tushib qolishi *sinkopa* deyiladi: bo'yin – bo'yni, singil – singli (si), burun – burni kabi. So'zning oxirida tovush tushib qolishi *anakopa* deyiladi: rost – ros, xursand – xursan, gazeta – gazet, go'sht – go'sh, Toshkent – Toshken kabi. Bu hodisalar so'z tarkibidagi ayrim tovushlarning ma'lum fonetik sharoitlarda talaffuz qilinishi natijasida yuz beradi.

Men, sen olmoshlariga n tovushi bilan boshlanuvchi qo'shimcha qo'shilganda: men+ning= mening, sen+ning= sening.

Tovush orttirilishi ko'pincha bir bo'g'inli so'zlarda uchraydi. Masalan: fikr –fikir, hukm –hukum, bu hodisa *epentiza* hodisasiga misol bo'ladi. U, bu, shu olmoshlariga - ga, -da, -dan qo'shimchalari qo'shilganda n tovush orttiriladi: u+ga=unga, shu+dan= shundan. Bunday hodisani *epentiza* hodisasi deb ataymiz.

Tovush jarangsizlashuvi odatda soʻz oxirida uchraydi. Bu hodisa faqatgina ogʻzaki nutqda uchraydi.

Metateza – ogʻzaki nutqda baʼzan yonma-yon kelgan undosh tovushlarning oʻrni almashinishi mumkin. Nutqdagi bunday prosess «metateza» deyiladi. Ry: daryo – dayra, mg: yomgʻir – yogʻmir, tebratmoq – terbatmoq, yamlamoq – yalmamoq, hv: ahvol – avhol, pr: tuproq – turpoq, rg: oʻrganmoq – oʻgranmoq, nm: aylanmoq – aynalmoq.

Proteza – soʻz boshida bitta unlining orttirilishi *proteza* hodisasi hisoblanadi. Odatda aksariyat sonor R tovushidan oldin u unlisi orttiriladi. Roʻmol – oʻramoq, roʻza – uroʻza, roʻzgʻor – uroʻzgor. Ayrim holatda soʻz boshidagi sirgʻaluvchi va portlovchi ikki undosh qator kelganda i unlisi orttiriladi. Shkaf – ishkaf, spravka – ispravka, stol – istol, stul – istul, shtraf – ishtraf.

Epiteza - soʻz oxirida bir oʻrinda kelgan ikki undosh tovushdan soʻng a tovushining qoʻshilish hodisasidir. Disk – diska, bank – banka, tank – tanka, kiosk – kioska, otpusk – otpuska kabi.

Sinkopa - hodisasiga binoan soʻz oʻrtasida va oxiridagi kelgan unlilar tor unlilar kabi talaffuz qilinishi va ayrim holatlarda tushib qoladi. Traktor – traktir, avtor – avtir, direktor – direktir, generator – generatir kabi.

Reduksiya - soʻzning birinchi boʻgʻinida biror unlining odatda tor unlining kuchsizlanib talaffuz qilinishidir. Masalan: bir, bil, til soʻzlari bilan bir boʻgʻinli boʻlganligi va urgʻu shu soʻzdagi i unlisiga tushganligi tufayli bu soʻzdagi i unlisi normal holda talaffuz qilinadi. Lekin shu soʻzlarning oxiriga ikkinchi bir boʻgʻin qoʻshilishi bilan urgʻu ham ikkinchi boʻgʻinga kuchadi. Natijada birinchi boʻgʻindagi i unlisi kuchsizlanadi va eshitilar – eshitilmas holda sust talaffuz qilinadi: bilak, tilak, biroq. Birinchi boʻgʻindagi urgʻularning ana shunday kuchsizlanib talaffuz qilinishi reduksiya hodisasiga yaqqol misol boʻladi. (Reduksiya soʻzining lugʻaviy maʼnosi kuchsizlanish, orqaga qaytish, pastga tushish demakdir). Reduksiyaga quyidagi soʻzlarning birinchi boʻgʻinida kelgan i ning kuchsizlanib talaffuz qilinishi ham misol boʻladi. Pishiq, shira, pishloq, qiliq, ichak kabi. Reduksiyaning ikkinchi boʻgʻinda kelish hollari ham uchrab turadi. Bu hodisa soʻzga uchinchi boʻgʻin qoʻshilganda sodir boʻladi: ikkinchi boʻgʻindagi unli tamoman kuchsizlanib tushib qoladi. Masalan: burun – burni, boʻyin – boʻyni, egin – egni, keyin – keyini kabi.

Eleziya - unli bilan tugovchi va unli bilan boshlanuvchi ikki soʻzning qoʻshilishi natijasida unli tovushdan birining tushib qolish hodisasidir. Bunda bir necha holat kuzatib birinchi soʻzning oxiridagi unli tushib qoladi. Yoza oladi – yozoladi, bora oladi – boroladi, qora ot – qorot.

B) unli bilan boshlanuvchi ikkinchi soʻzning bosh unlisi tushib qoladi. Borar ekan – borarkan, borar emish – borarmish, yozgan ekan – yozgankan kabi.

V) Abdusalom soʻzining Absalom, Abdujabbor soʻzining Abjabbor, olib kel soʻzining opkel tarzida talaffuz qilinishi natijasida bir unli bir undoshning tushib qolish hodisasi ham eleziyaning yuqori murakkablashishi natijasida soʻzlarning qisqargan formasi hosil boʻladi.

Soʻz oʻzagidagi tovush oʻzgarishlari. Baʼzi soʻzlarga qoʻshimcha qoʻshilganda oʻzakda yoki qoʻshimcha tarkibida tovush oʻzgarishi mumkin.

A tovushining O ga o'tishi. Oxiri a bilan tugagan ayrim so'zlarga so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shilganda a tovushi o ga o'tadi. Chanqa – chanqoq, tara – taroq, sura – suroq, alda – aldoq, sayla – saylov, ishla – ishlov.

O tovushining A ga o'tishi. Bir bo'g'inli so'zlarga a yasovchi qo'shimcha qo'shilganda o tovushi a ga o'tadi: son – sana; yosh – yasha. Bunday tovush o'zgarishini boshqa hollarda ham kuzatish mumkin. ong – angla, toy – toyloq, qorin – qarindosh.

I tovushining U ga o'tishi. Oxiri i bilan tugagan ayrim so'zlarga v qo'shilganda i tovushi u ga almashadi. O'qi – o'quv, tani – tanuv. I tovushining u ga o'tgan holatini so'z yasovchi q qo'shimcha qo'shilganda ham kuzatish mumkin: sovi – sovuq, quri – quruq.

Q tovushining G ga o'tishi. Q bilan tugagan ayrim so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda q tovush g ga almashadi: qishloq – qishlog'i, o'roq – o'rog'i, bo'talog – bo'talog'i.

K tovushining G ga o'tishi. K bilan tugagan ayrim so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda k tovushi g ga almashadi: kurak – kuragi, bilak – bilagi, yurak – yuragi.

G' tovushning Q ga o'tishi. Oxiri g bilan tugagan so'zlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qo'shilganda g tovushi q ga almashadi: tog' – toqqa, bog' – boqqa.

G tovushining K ga o'tishi. Ohiri g bilan tugagan ayrim so'zlarga k bilan boshlanuvchi qo'shimcha qo'shilganda g tovushi k ga almashadi: tug – tukkan, teg – tekkan

So'zlarga yasovchi qo'shimchalar qo'shilganda ham tovush tushish holatida kuzatiladi: o'yin – o'yna, qiyin – qiyna, og'iz – og'zaki.

O'zbek tilida tovush tushish holati ham kuzatiladi.

I tovushning tushishi og'iz, o'g'il, bag'ir singari so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda ikkinchi bo'g'indagi tor unli tushadi: og'zi, o'g'li, bag'ri.

A tovushning tushishi: shahar – zahar singari so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda keyingi bo'g'inda a tushadi: shahri, zahri.

U tovushining tushishi: Burun so'ziga egalik qo'shimchasi qo'shilganda ikkinchi bo'g'indagi unli tovush tushadi: burun - burni.

Shunday qilib, so'z tarkibidagi bunday fonetik o'zgarishlar tovushlarning o'zaro bir –biriga ta'siri natijasida yuz beradi.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLAR:

1. Nutq jarayonida qanday fonetik o'zgarishlar yuz beradi?
2. Singarmonizm nima?
3. Singarmonizm hodisasining unli va undoshlarga ta'sirini misollar orqali tushuntiring.
4. Assimilyatsiya, dissimilyatsiya hodisalarini tushuntiring.
5. So'z o'zagidagi tovush o'zgarishlari qanday ro'y beradi?

TAYANCH IBORALAR:

Fonetik o'zgarishlar, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, metateza, sinkopa, prokopa, reduksiya, epinteza, epiteza, sinrezis.

Ma'ruza mavzusi: Orfoepiya

Dars rejasi:

- 1.Orfoepiya haqida umumiy ma'lumot.
- 2.O'zbek adabiy tilining orfoepik me'yorlari.
- 3.Ayrim unlilar va undoshlar orfoepiyasi.

Adabiyotlar

- 1.Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 1992y 35-41 betlar.
- 2.Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 1981y 98-102 betlar.
- 3.Jamolxonov H. (tuzuvchi). Hozirgi o'zbek adabiy tili (ma'ruzalar matni) 1-qism. T., 2000y 116-121 betlar
- 4.Abdurahmonov G., Mamajonov S. O'zbek tili T., 1995y 45-48 betlar.
5. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. T., 1996y 49-50 betlar.

1.Adabiy tilning muhim xususiyati uning muayyan me'yorga bo'ysunishidir. Boshqa sohalarda bo'lgani kabi, talaffuzda ham ma'lum me'yorlar mavjud.

Orfoepiya (grekcha orthos – «tug'ri», epos – «nutq») to'g'ri talaffuz qilish me'yorlari majmuasidan iborat. Talaffuz me'yorlari og'zaki nutqqa xosdir. Adabiy til qonuniyati asosida to'g'ri yozish qanchalik muhim bo'lsa, to'g'ri talaffuz qilish ham shunchalik zarurdir. Talaffuzni belgilashda esa tovushlarning to'g'ri aytilishi ahamiyatlidir. Agarda tovushlar bo'zib talaffuz qilinsa, so'zning ma'nosi buziladi, ta'siri yo'qoladi. Adabiy talaffuz qoidalarini belgilashda tovushlar urg'u, intonatsiya kabi vositalarga asoslanadi.

Orfoepik me'yorlar aslida xalq jonli tili faktlar asosida yaratiladi – jonli tildagi turlicha talaffuz ko[rinishlaridan adabiy til an'analariga, taraqqiyot an'analariga mos keladiganlari tanlanadi. Masalan, o'zbek shevalarida bir so'z turlicha talaffuz qilinadi: aka-oka, ota-ada, anor-onar kabi.

Hozirgi zamon davom fe'li qo'shimchasi shevalarda -yap (ti), -op (ti), -ut (ti), vot (ti) shakllarda borayapti, boropti, borutti, borvotti kabi. Adabiy tilda bu so'zlarning aka, ota, anor variantlari tanlab olingan.

2.O'zbek xalqi shevalarining ko'pchiligi adabiy til me'yorlaridan keskin farq qiladi. Ularning talaffuzlari ham adabiy talaffuz qoidalariga mos kelmaydi. Lekin ularning tarkibida umumiylik belgilari mujassamlashgan bo'ladi. Agar ana shu belgilar jamlansa, adabiy tilning orfoepik qoidalari to'plamini yaratish mumkin.

O'zbek adabiy tili orfoepiyasining qoidalarini belgilashda fonetikaning ayrim tovushlar talaffuzi qonuniyatlarining roli kattadir. Bular quyidagilar:

1. b jarangli undoshning so'z oxirida jarangsiz p tarzda talaffuz qilish: janob-janop, girdob-girdop kabi. Maktab, kitob kabi so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shilsa, p tarzda emas, kitobi, maktabi –b shaklida talaffuz qilinadi.
2. Og'zaki nutqda va deyarli barcha shevalarda uchta-ushta, uch so'm-us sum, besh so'm-bes sum, tuzsiz-tussiz, izziz-issiz, tarzda talaffuz qilinadi va bunday talaffuz qilish adabiy orfografiyadan chekinish hisoblanmaydi.
3. Dard, band, baland singari so'zlarning oxiridagi jarangli undoshlarning talaffuzda jarangsizlashib t tarzda aytilishi hamda Samarqand, go'sht, past, xursand kabi so'zlardagi oxirgi undoshni talaffuzda tushib qolishi.
4. Og'zaki nutqda bo'lsa, kelsa, bo'lgan, kelgan singari so'zlar talaffuzida l tovushini tushirib qoldirish ham adabiy talaffuz normasiga aylanib qolgan.

5. Buncha-muncha, bundan-mundan kabi so'zlarning nutqda parallel ishlatilishi, tanbur-tambur, sunbula-sumbula tarzida talaffuz qilinishi va yuqoridagi barcha holatlar ham ma'lum qoidalar asosidagi orfoepik hodisa hisoblanadi. Chunki tovushlarda yuz beradigan har xil fonetik o'zgarishlar bu jarayon bilan bog'liq masalalar sirasiga kiradi.

Orfoepiya adabiy tilda unli va undosh tovushlarning aytilishi, so'z va bo'g'in, so'zning morfologik qismlari hamda birikmalarni namunalik talaffuz etish normalarini belgilaydi.

3. Ayrim unli tovushlar talaffuzi.

I unlisi: 1) bir bo'g'inli so'zlarda qisqa va ingichka talaffuz qilinadi: til, tish, bil, sir kabi; 2) q,g',x undoshlari bilan yondosh qo'llanganda yo'g'on, ya'ni I tovushiga moyil talaffuz etiladi: qish, g'isht, xil kabi; 3) y,ng undoshlaridan oldin ingichka va bir oz cho'ziq talaffuz etiladi: qiy, ming kabi; 4) h bilan yondosh bo'lganda ham bir oz cho'ziq va ingichka hid, his kabi; 5) ko'p bo'g'inlar urg'usiz so'zlarda qisqa bilak, tilak, gilam kabi; urg'uli-bo'g'inli so'zlarda esa cho'ziqroq nozik, rostlik kabi; 6) so'z oxiridagi ochiq bo'g'inda bir oz kengayadi: tepki, boradi, xuddi kabi; 7) ayrim bir bo'g'inli o'zlashma so'zlarda i tovushi qo'shib talaffuz etiladi: aql, bahs, metr, gips kabi so'zlarda kuzatish mumkin.

U unlisi: 1) jarangsiz undosh tovushlar bilan yonma-yon kelsa, qisqa aytiladi: uchqun, usul, tutun kabi; 2) ochiq bo'g'inlarda, jarangli tovushlar orasida va so'zning keyingi bo'g'inida cho'ziqroq talaffuz etiladi: muammo, surat, urg'u, yozuv, tashabbus kabi; 3) rus tilidan o'zlashgan so'zlarda til oldi yumshoq talaffuz qilinadi: iyun, kastyum, byulleten.

O' unlisi: ko'proq so'z va bo'g'in boshida keladi, o'rta kenglikda aytiladi: o'n, o'sma, o'git kabi.

1) sayoz til orqa va bo'g'iz tovushlari hamda k,ch,g, tovushlari bilan yonma-yon kelsa, yumshoq talaffuz etiladi: ko'klam, go'zal, cho'kma, go'sht

2) chuqur til orqa undoshlari (g',q,x) bilan yonma-yon kelganda, qattiq talaffuz etiladi: qo'shma, xush, qo'llanma kabi.

3) Ayirish belgisidan oldin kelgan o' unlisi cho'ziqroq talaffuz etiladi: mo'jiza, mo'tabar kabi.

A unlisi: 1) so'zning barcha bo'g'inlarida kela oladi: asar, tantana, narsa kabi; 2) sayoz til orqa (g,q) undoshlari va bo'g'iz tovushi (h) hamda y,ch,j,l,m,n kabi undoshlar bilan yondosh kelsa, yumshoq aytiladi: gavda, kalava, javob, bayram, chakalak kabi; 3) chuqur til orqa undoshlari bilan yonma-yon kelsa, qattiq talaffuz etiladi: qadam, qadar, xalq, g'alla kabi; 4) ko'p bo'g'inli arabcha so'zlarda a unlisi i tovushiga moyilroq talaffuz etiladi: mulohaza-mulohiza, muhokama-muhokima; 5) ayirish belgisidan oldin kelgan a unlisi cho'ziqroq aytiladi, keyin kelganda esa, zarb bilan qisqaroq ajratib talaffuz etiladi: a'lochi, san'at, ta'sir kabi.

O unlisi 1) so'zning hamma bo'g'inida keladi, keng va ochiq aytiladi: ozod, olov, bodom; 2) o unlisining yumshoq va qattiq aytilishi sayyoz til orqa undoshlari va chuqur til orqa undoshlari bilan yonma-yon kelishiga bog'liq: sokin, xolis, xona, ogoh, xola kabi; 3) rus tilidan o'zlashgan so'zlarda o harfi boshqacha unlini bildiradi: so'zlarning urg'uli bo'g'inida orqa qator qattiq o' tovushiga moyil talaffuz qilinadi: nota, moda, toq. Shuningdek, bunday so'zlarning urg'usiz bo'g'inida a tarzida aytiladi: operatsiya-aperatsiya, traktor-traktir.

E (e) unlisi: 1) bo'g'in boshida hamda so'zning ochiq bo'g'inida cho'ziqroq aytiladi: ellik, beda, yetuk, ehtirom kabi; 2) ayirish belgisidan oldin kelganda ham cho'ziqroq talaffuz etiladi: fe'l, e'zoz, she'r, ne'mat kabi; 3) yopiq bo'g'inda ikki undosh orasida bir muncha torroq aytiladi: tez, keskin, telpak kabi; 4) jonli so'zlashuvda e unlisi ba'zan i tovush bilan almashtirib aytiladi: sehr-sihr, hech-hich, ehtimol-ihtimol kabi.

Ayrim undoshlar talaffuzi.

Undosh tovushlarning talaffuzi, qattiq va yumshoq aytilishi, jarangsizlanishi yoki jaranglilanishi kabilar so'zning qayerida va qanday tovush bilan yondosh kelishiga bog'liq.

Undosh tovushlar quyidagilar bilan ajralib turadi: b undoshi portlovchi, lab tovushi, bo'g'in boshida ochiq aytiladi. Barg, band, baland, bezak. So'z oxirida jarangsizlashib p tovushiga moyil aytiladi.: maktab-maktab, iztirob-iztirop.

Ba'zan so'z o'rtasida v tovushi bilan almashinadi: kabob-kavob, ishqiboz-ishqivoz.

V sirg'aluvchi lab tovushi o'zbekcha so'zning barcha bo'g'inlarida ochiq aytiladi: varaq, meva, mavzu.

Ruscha-baynalminal so'zning oxirida va jarangsiz tovushlaridan oldin so'z o'rtasida f undoshi aytiladi: avtobus-aftobus.

F jarangsiz lab tovushi sof o'zbekcha so'zlarda deyarli uchramaydi. So'zning turli o'rinlarda p undoshiga moyil aytiladi: Sharif-Sharip, nafas-napas.

D,T tovushlari so'z va bo'g'in boshida hech o'zgarishsiz o'zicha aytiladi: beda, bedarak.

D undoshi so'z oxirida jarangsizlashib, t undoshiga moyil aytiladi: madad-madat, shod-shot.

D,T undoshlari oxirida kelsa kuchsiz talaffuz etiladi yoki tushib qoladi: dasht-dash, go'sht-go'sh

Q, K jarangsiz tovushlari so'zning barcha o'rinlarida asosan o'zgarishsiz talaffuz qilinadi.

Bu tovushlar bilan tugagan so'zlarga unli bilan boshlangan affikslar qo'shilganda jarangsizlashib, g, g' ga aylanadi.

Istak-istagim, quloq-qulog'im.

G, G' jarangli tovushlar aksariyat hollarda o'zgarishsiz aytiladi.

G, G' undoshlari bilan tugagan so'zlarga g bilan boshlangan affiks qo'shilganda, har ikkala tovush ham jarangsizlashadi: barg-barkka, tug-tukkan.

Q, K bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda ham affiks boshidagi undosh jarangsizlashadi: ek-ekkan, chiq-chiqqan-chiqquncha.

Qolgan undosh tovushlar so'zning turli o'rinlarida har xil vaziyatda kelsa ham, asosan, o'zgarishsiz talaffuz qilinadi.

Tekshirish uchun savollar:

1. Orfoepiyada nima o'rganiladi?

2. O'zbek adabiy tilining orfoepik me'yorlarini sharhlang?
3. Unli va undoshlar orfoepiyasida nimalarga e'tibor berasiz?

Tayanch iboralar.

Orfoepiya, to'g'ri talaffuz qilish, unlilar talaffuzi, undoshlar talaffuzi.

Ma'ruza mavzusi: Grafika

Dars reja:

1. O'zbek grafikasi haqida tushuncha.
2. O'zbek yozuvining xususiyatlari haqida.
3. O'zbek yozuvi tarixi.

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G., Mamajonov S. O'zbek tili adabiyoti. T., 1995y 42-43 betlar.
2. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 1992y44-45 betlar
3. O'zbekiston Respublikasining «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi qonuniga o'zgartirishlar kiritish haqida «Til va adabiyoti ta'limi» jurnali, 1995y, №3, 4-bet.

1.Kishilik jamiyatda dastlabki aloqa vositasi faqat og'zaki nutq ko'rinishida bo'lgan. Yozuv bo'lmagan. Jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida o'sib borayotgan iqtisodiy va madaniy talablar natijasida, fikrni uzoq masofaga o'tkazish yoki keyingi avlodga qoldirish ehtiyoji bilan yozuv yuzaga kelgan. Jamiyat taraqqiy etish bilan yozuv ham mukammallashib borgan.

O'zbek yozuvi ham hozirgi kundagi shakliga qadar bir qancha bosqichlarni bosib o'tgan. Ota-bobolarimiz jahonning boshqa xalqlari singari eng qadimgi piktografik (rasm yozuvi) va ideografik yozuv (tushuncha yozuvi), bo'g'inli yozuv (bo'g'in yozuvi), fonetik yozuv yoki fonografik yozuvlari (harf yozuvi)dan foydalanib kelganlar.

O'zbekistonda mustaqillik qo'lga kiritilgandan keyin (1991 yil 31 avgust) 1993 yil 2 sentabrda lotin yozuviga qayta o'tildi. Bu yozuvga o'tishdan maqsad jahon xalqlarining 30 foizdan ziyodi lotin yozuvi asosidagi alifbodan foydalanadi, bu esa o'zbek xalqini jahon xalqlari tizimiga kirishini jadallashtiradi.

Umumiy ta'lim bosqichma-bosqich amalga oshirilayapti. 1996-1997 o'quv yilida 1-sinflarda yangi alifboda o'qitish boshlandi. Bu ish 2005 yilning 1 sentabrida tugallanadi.

Grafika (grekcha graphike «yozma» degan ma'noni anglatadi) tildagi tovushlarni, belgilarni ko'rsatuvchi shakliiy vositalar tizimidir. Grafik vositalarga harf, shartli belgi va tinish belgilari kiradi. Tovush uchun olingan shakliga harf deyiladi. Tovush ko'rsatilmaydigan shakllar shartli belgi sanaladi.

Shuningdek, grafika bo'limida harf bilan tovushlar o'rtasidagi o'zaro munosabatini bildiruvchi qoidalar ham o'rganiladi.

2. Yozuv ijtimoiy talablar asosida jamiyatning muayyan taraqqiyoti davrida paydo bo'lgan va uning rivojlanishi bilan bog'liq ravishda mukammallashib borgan. Yozuv tildan keyin jamiyat tomonidan qo'lga kiritilgan eng katta madaniy

yutuqlardan biri bo'lib hisoblanadi va tilning yozuvdagi formasi sifatida jamiyatga xizmat qiladi. Yozuv bilan til o'zaro uzviy aloqadordir. Shuning uchun ham til bilan yozuv o'rtasida juda ko'p umumiy tomonlar mavjud. Ba'zi hollarda tilda bo'lmagan imkoniyatlar yozuv orqali yuzaga chiqadi. Masalan, yozuv tufayli kishilar uzoq masofadan ham bir-birlari bilan, hatto o'zlaridan keyingi avlodlar bilan ham aloqa bog'lash imkoniyatiga ega. Biroq, yozuvning tilga nisbatan o'ziga xos kamchiliklari ham bor. Birinchidan, u tilning to'liq aksi emas, balki yozuvdagi shartli va sun'iy aksidir. Shuning uchun ham tilning xizmat doirasiga zid ravishda yozuvning xizmat doirasi chegaralangandir. Ikkinchidan, yozuv orqali ish ko'rilganda vaqtdan yutqaziladi. Uchinchidan, yozuv maxsus vositalarsiz, ya'ni yozuv asboblarsiz amalga oshmaydi. To'rtinchidan, yozuv savodi yo'q kishilar uchun, shuningdek, tegishli sharoit bo'lmagan taqdirda ahamiyatini yo'qotadi. Til jamiyatning barcha a'zolariga baravar xizmat qilganidek, jamiyat taraqqiyoti davomida o'z formasini keskin o'zgartirmagan holda o'sib, mukammallashib boradi. Yozuv esa, bir tomondan, tilga nisbatan kam o'zgaradi, ikkinchidan, u aloqa vositasining shartli formasi sifatida o'z tusini yangi ijtimoiy – siyosiy o'zgarishlar yoki jamiyatning talablariga muvofiq nisbatan tezroq yoki butunlay o'zgartirishi ham mumkin. Qisqasi, yozuv ko'p jihatdan tilga yaqin bo'lib, ba'zi hollarda uning o'rnini bosa olsa ham, lekin vazifasi jihatdan unga nisbatan ancha chegaralangandir. Shuning uchun u jamiyatda aloqa vositasi sifatida til bilan teng huquqli bo'la olmaydi.

Til jamiyat bilan bir vaqtda yuzaga kelgan. U jamiyatning jamiyat bo'lishida asosiy rol o'ynovchi eng muhim omillardan biri. Shunga ko'ra tilsiz jamiyatning bo'lishi mumkin emas. Lekin yozuvsiz jamiyat bo'lgan. Og'zaki nutq yoki tovush tili aloqa vositasi sifatida kishilarning barcha ehtiyojlarini maksimal darajada qondirsa ham, hozirgi davr texnik taraqqiyoti nuqtai-nazardan uning ikkita kamchiligi bor:

- 1) u bir individning tili sifatida yaqin masofada turgan suhbatdoshga eshitiladi xolos.
- 2) og'zaki nutq vaqt va zamonda chegaralangan paytdagina qabul qilinadi.

Yozuvning asosiy xususiyatlaridan yana biri uning grafik belgi bo'lib xizmat qila olishi. Yozuv grafik belgi bo'lib qabul qilinganga qadar kishilar har xil jonli va jonsiz predmetlardan simvolik tarzda foydalanar edi.

Yozuv o'z-o'zidan paydo bo'lmay, balki ma'lum bir ehtiyoj va zarurat asosida – fikrni uzoq masofaga yetkazish yoki keyingi avlodlarga qoldirish talabi bilan yaratilgan. Shu bilan birga, tovush tilidan farqli o'laroq yozuvning o'ziga xos xarakterli belgilari bor.

Yozuv ko'z bilan ko'radigan va kishilar o'rtasida o'ziga xos aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladigan grafik belgilar sistemasi bo'lib, uning jamiyatda o'ziga xos katta o'zni va xizmati bor, ya'ni yozuv ma'lum bir masofa bilan ajralgan odamlar orasidagi aloqalarni yaxshilashda, yozma adabiyotni va yozma adabiy tilni yuzaga keltirishda, ma'lum bir davrda yaratilgan madaniy-adabiy yodgorliklarni keyingi davrlarga yetkazib berishda nihoyat darajada muhim rol o'ynaydi.

O'zbek tili tarixiy taraqqiyotida quyidagi yozuvlardan foydalanilgan.

1. O'rxun-Enasoy yozuvi V-VIII asrlar
2. Uyg'ur yozuvi VI-XVI asrlar
3. Arab alifbosi asosidagi o'zbek yozuvi X asrdan 1929 yilgacha
4. Lotin alifbosi asosidagi o'zbek yozuvi 1929 yildan 1940 yilgacha

5.Rus alifbosi asosidagi o'zbek yozuvi 1940 yildan 1993 yilgacha

6.Lotin alifbosi asosidagi o'zbek yozuvi 1993 yildan hozirgacha

O'zbek xalqi O'rta Osiyoning boshqa xalqlari singari oromiy, yunon, xarashta, sug'd, xorazm, kushon, pahlaviy, o'rxun (runik), uyg'ur, arab yozuvlaridan foydalangan.

Eramizdan avvalgi 4-6 asrlarda O'rta Osiyoning yaqin territoriyalarida rasmiy yozuv sifatida klinopis, ya'ni mih yozuvi ishlatilgan. Ayrim joylarda esa diplomatik muamollarda oromiy yozuvi qo'llanilgan.

Ayrim manbalarda yozilishicha, I-III asrlarda oromiy yozuvi bilan birga yunon va xarashta yozuvlari ishlatilgan. Sug'd yozuvidan foydalanish 6 asrgacha davom etgan.

V-VIII asrlar davomida turkiy xalqlar O'rhun-Enasoy yozuvlaridan foydalangan. Bu yozuv runik yozuv deb nomlangan. Bu yozuvning tarixi haqida XVIII asrning boshlarida rus xizmatchisi Remezov xabar bergan. Keyinroq bu ma'lumotni shvet ofetsiri Iogan Stralinbarg topgan. Shundan keyin ushbu yozuv haqida olim Messershmedit ham o'z asarida ma'lumot bergan. Nihoyat, 1893 yili daniyalik olim V.Tomson va rus akademigi V.V.Radlov qadimgi turkiy yozuvni o'qishga muvaffaq bo'ldilar. VI-VII asrlardan boshlab turkiy xalqlar va mo'g'illarda uyg'ur yozuvi qo'llanilgan. XIV-XV asrlarda yaratilgan «Baxtiyornoma» «Me'rojnoma», «Tazkirai avliyo» kabi asarlar uyg'ur yozuvida ko'chirilgan.

Y.H.Hojibning «Qutadg'u bilig»ning (Vena) nusxasi A.Yugnakiyning «Hibatul-haqoyiq», Xorazmiyning «Muhabbatnoma»si ham uyg'ur yozuvida yozilgan. Demak, uyg'ur yozuvi ma'lum davrgacha arab yozuvi bilan barobar ishlatilgan.

VIII asr boshlarida O'rta Osiyoda arablar hukmronligi boshlangan davrlarda arab yozuvidan foydalanilgan. Yusuf hos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarining Namangan va Qohira nusxalari Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarlari arab yozuvida bitilgan.

O'zbek xalqi 1200 yil davomida arab alifbosidan foydalanganlar.

Mavjud manbalar tahlilidan shu narsa ma'lum bo'ladiki, o'zbek yozuvining 20 asr tarixi to'rt davrni o'z ichiga oladi.

Birinchi davr-arab imlosiga asoslangan (1900-1929)

Ikkinchi davr-lotin imlosiga asoslangan (1929-1940)

Uchinchi davr-rus imlosiga asoslangan (1946-1993)

To'rtinchi davr - ikki yozuvlikka (rus va lotin) asoslangan (1993-hozirgacha). Yozuv tariximizning 1918 yildan keyingi davrlari alifbo va imloni milliy lashtirish, soddalashtirish, keyinroq esa ularni butunlay boshqa grafik tizimga ko'chirish harakatlarining yuzaga kelganligi bilan xarakterlanadi.

1918 yilda Toshkentda til-imlo va adabiyot masalalari bilan shug'ullanuvchi seminar-to'garak «Chigatoy gurungi» jamiyati tashkil topadi. Unga Fitrat va Qayum Ramazonovlar boshchilik qiladilar.

1921 yilda Toshkentda o'zbek alifbosi va imlosi masalalariga bag'ishlangan birinchi o'lka qurultoy bo'lib o'tadi, unda Fitrat, Ashurali, Zohiriy va Botu (M.Hodiyev)larning ma'ruzalari tinglanadi.

Botuning fikricha: «Butunlay hozirgi arab harflarini tashlab, ko'p millatlar tomonidan qabul qilingan lotin yozuvini tilimizdagi tovushlarga muvofiq bir holga keltirib qabul qilishimiz kerakdir», -deb ta'kidlaydi.

1940 yilning 8 mayida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi sessiyasi rus grafikasi asosida yangi o'zbek alifbosini ma'qulladi va ana shu alifboga o'tildi. Bu alifbo 35 harfdan iborat edi.

1993 yilning 2 sentabrida o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n uchinchi sessiyasida «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Qonunga muvofiq yangi o'zbek alifbosining tarkibi quyidagi 31 harf, bitta tutuq belgisidan iborat deb belgilandi:

1954 yilning 6 mayida O'zbekiston Oliy majlisi «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi qonunga o'zgartirish kiritadi. 1995 yil 24 avgustda «O'zbek tili imlosining asosiy qoidalarini tasdiqlash to'g'risida»gi qaror qabul qilinadi. Lotin imlosiga asoslangan o'zbek alifbosida 29 ta harf bor deb belgilanadi.

Tekshirish uchun savollar:

1. Grafika nima?
2. O'zbek yozuvi tarixi haqida nimalarni bilasiz?
3. Yozuvning xususiyatlari haqida o'z fikr-mulohazangizni bildiring.
4. Rus imlosi asosidagi o'zbek yozuvi va lotin imlosiga asoslangan o'zbek imlosini qiyoslang, farqini ayting.
5. Lotin imlosi asosidagi o'zbek alifbosini tartib bilan ayting.

Tayanch iboralar:

Grafika, yozuv, alifbo, alifbo tartibi, lotin alifbosi.

Yangi alifbomiz haqida o'ylar.

O'zbek tili bo'g'in ko'chirish qoidasiga ko'ra bir harf bo'g'iniga ajratilmasligi sababli, **ye, yo, ya, yu** kabi garchi bo'g'in bo'lsada yozuvda bir xil shakl bilan ifodalanishidan ajratib yozilmas edi.

Lotin yozuviga o'tilgach, bu muammolar o'z yechimini topdi.

Daryo – dar-yo, yagona – ya-gona.

Lotin alifbosida **ya, yo, yu, ye** harfiy birikmalarni kirill alifbosidagi ye, yo, ya, yu harflari aynan tarjimai emas.

Muayyan so'z tarkibidagi **y** bilan **a, e, u, o** shuningdek, u unlilarning yonma-yon kelishi tabiiy hol.

Hozirda bu hodisa ism va familiyalar yozishda uchrab turibdi.

Vazifa:

«Til va adabiyot ta'limi» 2001-yil 4-sonda e'lon qilingan Anvar Omonturdiyevning maqolasiga o'xshash maqolalar yig'masini tashkil qiling.

SAVOLLAR

1. Berilgan so'zlarni o'qing, shu so'zlarni alfavit tartibida yozing.
Taklif, qarg'a, hurmat, avval, muz, bodom, rasm.
2. So'zlarni o'qing, ularni alfavit tartibida joylashtiring.
Holva, ayron, mohir, savod, bo'ron gerb, nay.
3. Talaffuzda tushib qoladigan undoshli so'zlarni toping.
Baland tog' yonida kattaligi uyday keladigan qora tosh bor ekan.

Alifbo

Aa Bb Dd Ee Ff Gg Hh
Ii Jj Kk Ll Mm Nn Oo
Pp Qq Rr Ss Tt Uu Vv
Xx Yy Zz O'o' G'g'
Shsh Chch ng

TOPISHMOQLAR.

1. Topishmoqni o'qing va javobini ayting.
Sira-sira tinmayin,
G'ir-g'ir etib yuradi.
O'zi tilla donni yeb,
Bizga oq un beradi.

Qator kelgan bir xil undoshli so'zlarni toping, ularni bo'g'inga bo'lib ayting.

2. Topishmoqni o'qing va javobini ayting.

Novvotga o'xshash o'zi,

Misoli billur yuzi,

Qizdirganida oftob,

U bera olmaydi tob.

Siz billur, tob, berolmaydi so'zlarining ma'nosini qanday tushunasiz?

Qator kelgan bir xil undoshli so'zlarni ayting.

3. Topishmoqni o'qing va javobini ayting.

Gulsiz meva qiladi,

Ko'p yesang, til shiladi.

G'ip-g'ildirak oy kulcha,

Bu nima, kim biladi?

Bitta undoshning o'zgarishi bilan farq qiladigan so'zlarni topib ko'chiring. Shu so'zlar tarkibidagi farqlanuvchi tovushni ifodalagan harflar tagiga chizing.

TEZ AYTISHLAR

1. Tez aytishni o'qing. Jarangsiz undoshlarni ayting.

Tushimda kemshik teshik tishim tushganmish.

2. Tez aytishni o'qing. Jarangli undoshlarni topib ayting.

Oydin oyni oynadan ko'rdi.

3. Tez aytishni o'qing. Jarangli va jarangsiz undoshlarni aniqlang.

Sojida sakkizta sigir sog'adi.

Jarangli va jarangsiz undoshlar qanday farq qilishini tushuntiring.

MAQOLLAR

1. Maqolni o'qing. Unli va undosh tovushlarni ayting.

Jahl-dushman, aql-do'st.

Unli va undosh tovushlar qanday farq qiladi? Tushuntiring.

2. Maqolni o'qing. Unli va undosh tovushlarni ayting.

Otalar so'zi – aqlning ko'zi.

Har bir so'zda nechta unli bor?

3. Maqolni o'qing. Jarangli undosh tovushlarni sanang.

Odobli bola – elga manzur.

Jarangli va jarangsiz undoshlarning farqini tushuntiring.

Test savollari

1. Harflar tizimi til faning qaysi bo'limida o'rganiladi?
a) fonetika b) grafika c) orfografiya d) orfoepiya
2. Grafik vositalarga nimalar kiradi?
a) harf b) shartli belgilar c) tinish belgilari va harf d) harf, shartli belgilar va tinish belgilari
3. O'zbekistonda mustaqillikdan keyin nechinchi yilda lotin yozuviga qayta o'tildi?
a) 1993-yil 2-sentabr b) 1996-yil 2-sentabr c) 1994-yil 10-sentabr d) 1993-yil 10-sentabr
4. Bizning davrimizda jahon xalqlarining necha foizi lotin alifbosini o'z yozuvlariga asos qilib olganlar?
a) 50% b) 40% c) 30% d) 20%
5. O'zbek xalqi qadimda qanday yozuvlardan foydalanganlar?
a) oromiy, yunon, so'g'd b) xorazm, kushon, pahlaviy c) o'rxun, uyg'ur, arab d) barcha javoblar
6. So'g'd yozuvidan foydalanish nechinchi asrgacha davom etgan?
a) VI asr b) V asr c) VII asr d) VIII asr
7. V-VIII asrlar davomida turkey xalqlar qanday yozuvdan foydalanganlar?
a) mih yozuvi b) O'rxun Enasoy yozuvi c) So'g'd yozuvi d) uyg'ur
8. XIV-XV asrlarda yaratilgan "Baxtiyornoma", "Me'rojnoma", "Taskirai avliyo" kabi asarlar qanday yozuvda ko'chirilgan?
a) yunon b) arab c) uyg'ur d) so'g'd
9. Lotin yozuvi asosidagi harflar tartibidan foydalanib, hunar so'zi keltirib chiqarilgan qatorni toping.
a) 7,20,13,1,17 b) 6,21,12,3,9 c) 70,20,12,1,17 d) 7,20,13,1,18
10. Lotin yozuvi asosidagi harflar tartibidan foydalanib, yurtimning so'zi keltirib chiqarilgan qatorni toping.
a) 23,20,17,19,8,12,13,8,13 b) 23,20,17,19,8,12,13,8,29 c) 23,17,19,8,12,13,8,13,6 d) 22,19,17,18,8,12,13,8,29

Mavzu: Orfografiya

Dars rejasi:

1. O'zbek tili imlosi va uning asosiy tamoyillari.

2. Fonetik, morfologik tamoyillari.
3. Tarixiy-an'anaviy va differensiyalash tamoyili.

Adabiyotlar:

1. Tursunov U., Muxtorov J. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 1992 y 45-48 betlar.
2. Shoabdurahmonov SH., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 1980 y 88-97 betlar.

Orfografiya so'zi grekcha «orthos» va «grapho» so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, «to'g'ri yozaman» degan ma'noni anglatadi. Orfografiya adabiy tilning yozuv formasi bilan aloqador bo'lib, u to'g'ri yozish qoidalari to'g'risidagi fan.

So'zning o'zaklari va unga qo'shiladigan qo'shimchalarning, qisqartma otlarning to'g'ri yozilishini, qo'shma, juft va takroriy so'zlarning qo'shib yoki ajratib yozilishini, bosh harflar va ularning ishlatilish o'rnini, bo'g'in ko'chirish qoidalarini o'rgatuvchi hamda ular haqidagi batafsil ma'lumot beruvchi bo'lim orfografiyadir. U o'z navbatida adabiy tilning talaffuzini o'rganuvchi orfoepiya va alifbo bilan ham uzviy bog'liq. Orfografiyaning uchta asosiy tamoyili bor:

1. Fonetik tamoyil (yozuv)
2. Morfologik tamoyil
3. Tarixiy-traditsion tamoyil

Bulardan tashqari:

Differensial-tasviriy shakliiy tamoyil, etimologik tamoyillar ham mavjud. O'zbek imlosining qoidalaridan biri fonetik tamoyil bo'lib, ba'zi so'z va qo'shimchalarni eshitganimiz bo'yicha yozishimiz mumkin. Masalan, jo'nalish kelishigi –ga qo'shimchasi bilan yoziladi: o'tga, ishga lekin -k,-q tovushi bilan tugagan so'zlarga -ka,-qa shaklida qo'shiladi, shunday o'qiladi va yoziladi: ko'kka, terakka, buloqqa. Shuningdek –g' tovushi bilan tugagan so'zlarda ham –qa shaklida yoziladi: tog'-toqqa. Lekin pedagogga, filologga kabi rus so'zlari –ga bilan yoziladi.

1.Og'iz, ko'ngil, burun, singil, o'g'il kabi so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda negizidagi –i yoki –u tovushi shunday yoziladi: o'g'lim, singlim, ko'nglim: og'zida boli bormi?

2.Yosh, ot, son, ong kabi so'zlariga –a yoki –la qo'shimchalari qo'shiladi o tovushi a tovushiga aylanadi va shunday yoziladi: angla, ata, yasha, sana.

3.Ikki, yetti sonlariga –ov qo'shimchasi qo'shilganda so'z oxiridagi i tovushi tushib qoladi: ikkov, yettov.

4.a yoki ya bilan tugagan so'zlarga v yoki q qo'shimchalari qo'shilsa o'zakdagi a tovushi o ga aylanadi va shunday yoziladi.

5.Fe'l nisbatlari yasovchi qo'shimchalar qanday eshitilsa shunday yoziladi: kuldir, o'tqaz, turg'az.

6.Qo'shma fe'llarning ayrimlari ajratib ham talaffuziga ko'ra qo'shib ham yozilaveradi. Ishlayber-ishlayver, kela oldi-keloldi.

2. Morfologik tamoyil.

Morfologik tamoyil qoidasi-so'z o'zagi va qo'shimchalarini aynan yozish demakdir. Ya'ni so'zlar qanday talaffuz etilishidan qat'iy nazar ma'lum bir imlo qoidasi asosida yoziladi.

Masalan, fe'lning zamon va shaxs qo'shimchasi –di qanday aytilsa va eshitilsa ham doimo –di yoziladi: ketti, aytilishi; ketdi yozilishi, -dan, -da qo'shimchalari aynan

talaffuz qilishdan tashqari –tan, -ta tarzida ham aytiladi, lekin hamisha –dan, -da yoziladi: ishta-ishda, maktabtan-maktabdan.

Jo'nalish kelishigi (-ga) negizida –q, –b –g tovushlari bo'lgan so'zlarda fonetik yozuv qoidasi asosida yoziladi qolgan o'rinlarda bir xilda yoziladi: Boshga, ishga, maktabga, Samarqandga

-iston (so'z yasovchi), -inchi (tartib son yasovchi), -ib (ravishdosh), -il (fe'l nisbatlari) yasovchi qo'shimchalar –ish, -imsiradi qo'shimchalari negizida u bo'lgan fe'llarga qo'shilganda –u (-yu) tovushlariga moyil aytiladi. Kulub, tug'uldi, uchunchi.

Lekin har bir vaqt aslicha (-ib, il, inchi) yoziladi: kulib, tug'ildi, uchunchi.

Shuningdek, bir o'zak tarzida o'qiladigan va yoziladigan kuyundi, tushunmoq, kutulmoq fe'llarining har ikki bo'g'inida u (-yu) yoziladi. Qo'shimcha va juft so'zlar, ko'm-ko'k, qip-qizil kabi sifatlar; har vaqt kabi ravishlar ham morfologik yozuv qoidasi bo'yicha yoziladi.

3. Tarixiy-an'anaviy tamoyil.

O'zbek xalqining yozuvi tarixida ko'pincha so'z va iboralar borki, og'zaki nutqda qay tarzda talaffuz etilishidan qat'iy nazar, ularning yozilishida ma'lum an'anaga amal qilinadi.

So'zlarning hozirgi talaffuz normasiga mos keladigan, qadimdan o'zlashib qolgan formada yozilishi, orfografiyaning tarixiy-an'anaviy tamoyilini tashkil etadi. Boshqacha aytganda, tarixiy-an'anaviy tamoyilga asosan so'zlar hozirgi holatiga ko'ra emas, balki an'ana tusiga kirib qolgan qoidalarga ko'ra yoziladi.: -mi yuklamasi ba'zan shu tarzida qo'llanilgan. Bu holat hozir ham kuzatiladi: bularmubulurmi.

4. Differensiyalash tamoyili.

Bu tamoyilga asosan og'zaki nutqda yoki talaffuzda bir-biridan aniq farqlanmaydigan yoki o'zaro farqlari deyarli sezilmaydigan darajaga kelib qolgan so'zlar yozuvda maxsus qoida bilan ajratib yoziladi.

Yozuv va imloni tartibga solish maqsadida ilgari og'zaki nutqda deyarli bir xil aytib kelingan ba'zi so'zlar, shakllar va qo'shimchalarni yozuvda bir-biridan farqlash uchun odatda differensiyalash usulidan foydalaniladi.

1. Ma'lumki, revolyutsiyaga qadar arab yozuvi bilan ish ko'rgan davrda –lik va –li qo'shimchalari yozuvda deyarli differensiya qilinmay qo'llanilar edi. Bu hol 1956 yilga qadar davom etib keldi.

Masalan: -lik qo'shimchasi asosan shahar aholisi nutqida –li qo'shimchasi esa qipchoq shevalari vakillari va umuman qishloq aholisi nutqida qo'llanilardi.

Bunda har ikki qo'shimchaning egalik va tegishlilik ma'nolari farqlanmas edi. 1956 yildan boshlab adabiy orfografiyasida ularni farqlab qo'llashga o'tildi: tegishlilik ma'nosini ifodalashda –lik qo'shimchasi (m: shaharlik, toshkentlik), ega ekanlik ma'nosida –li qo'shimchasi qo'llanila boshladi.(otli, uyli, joyli, savodli).

2. Xuddi shunga o'xshash bormoq fe'li bilan barmoq so'zlari og'zaki talaffuzda deyarli farqlanmasa-da, yozuvda ular o'zakdagi unlining o yoki a bilan ifodalanishiga qarab o'zaro farq qiladi. Hozirgi yozuvimizda qalmoq (xalq nomi) so'zi bilan qolmoq fe'lining birinchi bo'g'indagi unlining qanday yozilishiga qarab farqlanishi ham yuqoridagi fikrga misol bo'ladi.

3. Differensiyalash tamoyiliga binoan soʻzlar qoʻshimchalarga koʻra ham (m: lik, lik qoʻshimchalariga koʻra) farqlanadi. Boʻshlik (ot, yuvoshlik) –boʻshlik (boʻsh joy, fazo) bogʻliq (ot, aloqador)-bogʻliq (molni, bedani, pichanni bogʻlashga moʻljallangan ip yoki oʻt).

Bu prinsip asosida tuzilgan imlo qoidalariga koʻra shakli bir xil boʻlgan soʻzlar (omonimlar) yozuvda ishora belgilari vositasida farqlanadi: atlas (mato)-atlas (grafik atlas), yangi –(sifat) yangi (ravish), tana (gavda)-taʼna (minnat), mil (soat millari) – mil (oʻlchov birligi).

Tekshirish uchun savollar:

1. Orfografiyada nima oʻrganiladi?
2. Orfografiyaning orfoepiya, grafika bilan oʻzaro bogʻliqligini izohlang.
3. Toʻgʻri yozish qoidalarini nimaga asoslanadi?
4. Fonetik va morfologik tamoyilning bir-biridan farqini ayting?
5. Tarixiy anʼanaviylik tamoyilini izohlang.
6. Differensiyalash prinsipining xususiyatlarini ayting.

Tayanch iboralar:

Orfografiya, toʻgʻri yozish, imlo, fonetik tamoyil, morfologik tamoyil, tarixiy-anʼanaviy tamoyil, differensiyalash tamoyili.

OʻZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARI.

DARS REJASI:

1. Oʻzbek tili imlosining asosiy qoidalarini haqida.
2. Ayrim harflar, oʻzak, negiz, qoʻshimchalar imlosi.
3. Juft, qoʻshma, takroriy soʻzlar imlosi.
4. Bosh harflar imlosi.

A D A B I Y O T L A R:

1. Oʻzbek tilining imlo lugʻati. T. 1995. 7-15 betlar.
2. Sh.Shoabdurahmonov., Asqarova M. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. T. 1980.
3. Rafiyev A., Dolimov U. Oʻzbek tili va adabiyoti. T. 1998. 43-44 betlar.

Orfografiya - soʻz, oʻzak va qoʻshimchalarning toʻgʻri yozilishi, qoʻshma soʻzlarning tarkibiy qismlarini qoʻshib yoki ajratib yozishni soʻz boʻgʻinlarini toʻgʻri koʻchirishni oʻrgatadi.

Avvalo, biz savodli boʻlishimiz uchun imlo qoidalarini bilishimiz zarur. Oʻzbek tiliga davlat maqomi berilgandan keyingi, ayniqsa, Oʻzbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan soʻnggi yillarda tilimiz lugʻati oʻzbek tilining imkoniyatlari asosida rivojlanishga keng yoʻl ochildi. Natijada yangi- yangi soʻzlar paydo boʻldi, oʻzbek tilida avvallari isteʼmolda boʻlgan, lekin asosiy ravishda isteʼmoldan chiqarilgan koʻpgina soʻzlar qayta isteʼmolga kiritildi. Boshqa tillardan zaruriyatsiz olingan ayrim soʻzlar oʻzbek tilida mavjud boʻlgan, yangi yasalgan soʻzlar bilan almashtirildi. Oʻzbek tili imlosi maʼlum bir qoidalariga asoslanadi. Soʻzlar qanday talaffuz etilishidan qatʼiy nazar adabiy tilning imlo qoidalarini asosida yoziladi.

O'zak va qo'shimchalar imlosi haqida fikr yuritganimizda g',g,k yoki q bilan tugagan so'zlarga g tovushi bilan boshlanadigan qo'shimchalar qo'shilganda o'zak oxiridagi tovush o'zgaradi.

Masalan: etak+ga – etakka. Ammo o'zlashma so'zlar va atoqli otlar bu qoidadan mustasno. Masalan: pedagog+ga – pedagogga.

1. a unlisi bilan tugagan so'zlarga -v – q – g qo'shimchasi qo'shilganda a unlisi o aytiladi va shunday yoziladi: sayla – saylov, sina – sinov, aya – ayovsiz, sayra – sayroqi kabi.

2. i unlisi bilan tugagan ko'pchilik fe'llarga -v, -q qo'shimchasi qo'shilganda bu unli u tarzida aytiladi va shunday yoziladi: o'qi – o'quvchi, qazi – qazuvchi, sovi – sovuq, kabi. Lekin i unlisi bilan tugagan ayrim fe'llarga -q qo'shimchasi qo'shilganda bu unli i tarzida aytiladi va shunday yoziladi: og'ri – og'riq, qavi – qaviq kabi.

Eslatma:

a) undosh bilan tugagan barcha fe'llarga -uv qo'shiladi: ol-oluv, yoz-yozuv kabi;

v) undosh bilan tugab, tarkibida u unlisi bor fe'lga -uq qo'shimchasi qo'shiladi: uz – uzuq, yut-yutuq kabi. Lekin uyushiq, burushiq, uchuriq kabi so'zlarning uchinchi bo'g'inda i aytiladi va shunday yoziladi.

Q undoshi bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga, shuningdek bek, yuq kabi ayrim bir bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda k undosh g undoshiga, q undoshi g' undoshiga aylanadi va shunday yoziladi: tilak – tilaging, yurak - yuragim, qo'shiq – qo'shig'i, tayoq – tayog'i kabi. Lekin ko'p bo'g'inli o'zlashma so'zlarga, bir bo'g'inli ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda k tovushi aslicha aytiladi va yoziladi: ishtirok – ishtiroki, ocherk – ocherki, erk –erki kabi.

Quyidagi qo'shimchalar qo'shilishi bilan so'zning tarkibida tovush tushadi yoki ortadi.

1. o'rin, qorin, burun, o'g'il, ko'ngil kabi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, qayir, ayir kabi fe'llarga nisbat shaklini yasovchi -il qo'shimchasi qo'shilganda, ikki, olti, etti so'zlariga -ov, -ala qo'shimchalari qo'shilganda ikkinchi bo'g'indagi unli aytilmaydi va yozilmaydi: o'rin – o'rnim, qorin – qorni, burin – burni, ikki – ikkov, yetti-yettov kabi.

2. u, bu, shu o'sha olmoshlariga -da,-dan, day, dagi, cha, gach qo'shimchalari qo'shilganda n tovushi qo'shib aytiladi va yoziladi: unda, bunda, shunda, o'shancha kabi; bu olmoshlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi: buningiz, o'shanisi kabi;

3. o, u, o', e unlilari bilan tugaydigan so'zlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi:

a) ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchalari -m, ng, si, miz, ngiz, shaklida tovush orttirmay qo'shiladi: bobom, bobong, bobosi.

b) parvo, obro', mavqe, mavzu, avzo so'zlariga I, II – shaxs qo'shimchalari qo'shilganda bir y tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: parvoyim, parvoying, obro'yim, obro'ying, obro'yimiz kabi. III shaxs egalik qo'shimchasi parvo, avzo, obro', mavqe so'zlariga yi shaklida avzo, mavzu, so'zlariga esa – si

shaklida qo'shiladi: avzoyi, mavzusi kabi y undoshi bilan tugagan so'zlarga ham III shaxsda – si qo'shiladi: vodiysi.

2. men, sen olmoshlariga –ni, -ning, -niki qo'shimchalari qo'shilganda qo'shimchadagi n tovushi aytilmaydi va yozilmaydi: meni, mening, meniki, seni, sening, seniki kabi.

Quyidagi qo'shimchalarning birinchi tovushi ikki xil aytilsa ham bir xil yoziladi.

1. – bon, -boz qo'shimchalari ba'zan – bon, - boz aytilsa ham, hamma vaqt – bon, - boz yoziladi: darvozabon, masxaraboz kabi.

Lekin - vachcha qo'shimchasi hamma vaqt shunday aytiladi va yoziladi: amakivachcha, xolavachcha kabi.

2. o'rin kelishigi va chiqish kelishigi qo'shimchasining, o'tgan zamon yasovchisi va III shaxs ko'rsatkichi -di qo'shimchasining boshidagi undosh ba'zan t aytilsa ham hamma vaqt d yoziladi: ishda, misdan, ketdi, kelmabdi kabi.

Quyidagi qo'shimchalarning bosh tovushi ikki yoki uch xil aytiladi va shunday yoziladi:

1. Taqlid so'zlardan fe'l yasovchi - illa (chirilla, taqilla) qo'shimchasi so'z tarkibida v yoki u tovushi bo'lganda ulla aytiladi va shunday yoziladi: Shovulla, lovulla, gurulla kabi.

2. Nisbat shaklini yasovchi - dir qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli so'zlarga, shuningdek z undoshi bilan tugagan orttirma nisbat yasovchisidan keyin qo'shiladi: quvdir, egdir, qildir, tomizdir kabi. Qolgan barcha hollarda bu qo'shimcha – tir aytiladi va shunday yoziladi: tiktir, uyaltir, chaqirtir.

3. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi ga, chegara bildiruvchi – gacha ravishdosh shaklini yasovchi – gach, - guncha, -gani, -gudek sifatdosh shaklini yasovchi - gan, buyruq maylining II shaxs ko'rsatkichi – gin, shuningdek, -gina qo'shimchasi uch xil aytiladi va shunday yoziladi.

a) k undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda bu qo'shimchalarning bosh tovushi q aytiladi va shunday yoziladi: yulakkacha, ko'nikkach, ekkani kabi;

b) q undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda bu qo'shimchalarning bosh tovushi q aytiladi va shunday yoziladi: chopiqqa, yoqqach, qishloqqacha, chiniqqan kabi.

d) qolgan barcha hollarda, so'z qanday tovush bilan tugashiga va bu qo'shimchalarning bosh tovushi q yoki k aytilishidan qat'iy nazar g yoziladi: bargga, pedagogga, bug'ga, sig'guncha kabi.

Ayrim harflar imlosi.

1. A, a harfi.

1. aka, alanga, aloqa, og'a kabi so'zlarda old qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

2. bahor, zamon, savol, gavda, vasvasa kabi so'zlarning oldingi bo'g'inida vaqt, vahm kabi so'zlarda a aytiladi va yoziladi.

2. U, u harfi.

1. uy, kun, buzoq, buloq, Buxoro, butun, uchuk, usul, yulduz, mafkura, ko'zgu kabi so'zlarda orqa tor unlini ifodalash uchun yoziladi.

2. qovun, sovun, tovush, yozuv, qirg'ovul kabi so'zlarning oldingi bo'g'inida
o unlisi kelsa, keyingi yopiq bo'g'in boshidagi v undoshidan keyin u aytiladi
va yoziladi.

Yonma – yon keladigan unlilar imlosi:

1. unlilar orasiga ba'zan y undoshi qo'shib aytilsa ham, yozilmaydi:
 - a) ia: material, tabiat, shariat kabi; zar, zamon, zargar, somon, jahon, jiyda, jurnal kabi so'zlar ham.
 - b) io : biologiya, million, stadion, radio kabi:
 - v) ai: ukrain, said, maishat kabi:
 - g) oi: alkaloid, doim, shoir, oila kabi:
 - d) ea: teatr, okean, laureat kabi
 2. ae, oe unlilari so'z ichida kelganda ikkinchi unli i aytilsa ham, asliga muvofiq e yoziladi: aerostat, poema kabi.
- Boshqa hollarda yonma-yon kelgan unlilar odatda aynan aytiladi va yoziladi: manfaat, qauchuq, aorta, matbuot, inshoot, sanoat, muammo kabi.

Ayrim undoshlar imlosi.

B.b harfi.

1. bobo, bahor, bir, majbur, zarb kabi so'zlarda jarangli portlovchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi.
2. kitob, yuzlab, kelib kabi so'zlar p aytilsa ham b yoziladi.
3. qibla, tobla kabi so'zlarda ba'zan v aytilsa ham b yoziladi.

S,s harfi. Sog', somon, oson, olmos kabi so'zlarga til oldi, jarangsiz, sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

Sh harfi. Lotin imlosida Sh harfi birikmasi bilan belgilanadi: shahar, shisha, ishq, bosh kabi so'zlarda til oldi, jarangsiz, sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun ishlatiladi.

Sh harfi ikki tovushni ifodalasa, ular orasiga ' tutuq belgisi quyiladi: Is'hoq, as'hob kabi.

Ch harfi lotin imlosida birikma ch holda yoziladi: Choy, chevar, chaman, achchiq, kuch kabi so'zlarda til oldi, jarangsiz qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi.

Ng (ng) harf birikmasi yangi, ko'ngil, dengiz, keling, tong, ming kabi so'zlarda til orqa, ovozdor, burun tovushini ifodalash uchun yoziladi.

X,x harfi. Xabar, xo'roz, xohish, xushnud, mix, baxt kabi so'zlarda chuqur til orqa jarangsiz sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

Yonma – yon keladigan undoshlarning imlosi.

1. baland, Samarqand, poezd, do'st, artist, g'isht kabi so'zlarda d,t tovushi ba'zan aytilmasa ham yoziladi.

2. metall, kilogramm, kilovatt, kongress kabi o'zlashma so'zlar oxirida bir undosh aytilsa ham ikki harf yoziladi. Lekin bunday so'zga xuddi, shu tovush bilan boshlanadigan qism qo'shilsa, so'z oxiridagi bir harf yozilmaydi: metallar+metallar, kilogramm-mi+kilogrammi.

Qo'shma va juft so'zlar imlosi.

Qo'shma so'zlar quyidagi hollarda qo'shib yoziladi.

1. Bir tushunchani bildirib birbosh urg'u bilan aytiladigan: masalan: oshqozon, oybolta.
2. Ikkinchi qismi - ar bilan iborat ravishdosh. Masalan: tezyurar, otboqar.
3. Ikkinchi qismi turdosh ot bo'lgan geografik nomlarda: masalan: Yangiobod, Oltiariq.
4. Tarkibida aro, umum, butun so'zlari bo'lgan qo'shma so'zlar: masalan: xalqaro, umumxalq.

Qo'shma so'zlar quyidagi hollarda ajratib yoziladi:

1. Ikkinchi qismi atoqli ot bo'lgan qo'shma so'zlarda: masalan; Umum Evropa.
2. Birinchi qismi sifat, ikkinchi qismi atoqli ot bo'lgan qo'shma so'zlarda: Masalan: Markaziy Osiyo.
3. Shajara va jinsni bildiruvchi so'zlar: Masalan, Abdurauf Fitrat.

Quyidagi so'zlar chiziqcha bilan yoziladi:

1. O'zaro turli munosabatdagi barcha juft so'zlar: Masalan: katta-kichik, non-pon.
2. Birinchi qismi – ma, -dan singari vositalari bo'lganda: Masalan: izma – iz, ko'pdan-ko'p.
3. Amal, unvonni bildiruvchi vitse, eks, unter vositalari bilan qullanganda. Masalan: vitse-prezident, eks- chempion.
4. Takroriy so'zlar. Masalan: baland-baland imoratlar.
5. Arab raqami bilan ifodalangan tartib sonlardan keyin.

Juft so'z va takror so'z qismlari chiziqcha bilan yoziladi: el-yurt, mehr-shavqat, qovun-tarvuz, uch-to'rt, oz-moz, bordi-keldi, mayda-chuyda kabi.

1. Juft so'zdan qo'shimcha yordamida yasalgan so'zlar ham chiziqcha bilan yoziladi: baxt-saodatli, xayr-xo'shlashmoq kabi.

2. Juft so'z qismlari orasida – u (-yu) bog'lovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qo'yiladi va juft so'z qismlari ajratib yoziladi: do'st-u dushman, (do'st-dushman), kecha-yu kunduz kabi.

3. Etakchi va ko'makchi fe'l bir xil shaklda bo'lsa, chiziqcha bilan yoziladi: yozdi-oldi, borasan-qo'lasan, uxlabman-qolibman kabi.

Belgini ko'paytiruvchi qip-qizil, yam-yashil, dum-dumaloq, kuppa-kunduzi, bab-barobar kabi so'z shakllari chiziqcha bilan yoziladi (lekin oppoq so'zi qo'shib yoziladi).

So'zning –ma, -ba yordamida birlashgan qismlari chiziqcha bilan yoziladi: ko'chama-ko'cha, uyma-uy, rang-barang, dam-badam kabi. Lekin mustaqil ishlatilmaydigan qism qatnashsa, bunday so'zlar qo'shib yoziladi: ro'baro', darbadar kabi.

Rus tilidan aynan yoki so'zma-so'z tarjima qilish yo'li bilan olingan so'zlar asliga muvofiq chiziqcha bilan yoziladi: ofitser, kilovatt-soat kabi.

- chi, -a, -ya, -qu, -u, -yu, -ya, -ey yuklamalari chiziqcha bilan yoziladi: sen-chi, boraylik-chi, yaxshi-yu, yashang-e. Ammo -mi, -oq, -yoq, -ov, -gina yuklamalari o'zidan oldin kelgan so'zga qo'shib yoziladi: keliboq, o'ziyoq, ko'rganov, ko'rdiyov, mengina, qo'shiqqina kabi.

Tartib son arab raqamlari bilan yozilsa, -nchi qo'shimchasi o'rniga chiziqcha (-) quyiladi: 7 – sinf, 5 – «A» sinfi, 3 -, 7 -, 8 – sinf o'quvchilari, 60 – yillar, 1991-

yilning 1 sentabri kabi. Tartib sonni ko'rsatuvchi rim raqamlaridan keyin chiziqcha yozilmaydi. XX asr, X sinf kabi so'zlar.

Bosh harflar imlosi.

Kishining ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, ramziy atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi. Dilbar O'rinova, Muhabbat Majidova, Azamat Shuhrat o'g'li, Hamza Hakimzoda, Navoiy, Furqat, Oybek.

Joy nomlari bosh harf bilan boshlanadi: Andijon, Yangiyul (shaharlar), Namangan, Buloqboshi (qishloqlar), Bodomzor, Chig'atoy (mahallalar), Pomir, Qoratog' (tog'lar), Oqtepa, Uchtepa (tepalar). Bunday atoqli ot tarkibidagi sifatlovchi ham bosh harf bilan yoziladi: Shimoliy Kavkaz, Markaziy Qizilqum kabi.

Yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarining atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi. Hulkar, Qavs, Mirrix (yulduz va sayyoralar nomi), Tinchlik dengizi (oydagi relf nomi). Yer, quyosh, oy turdosh otlari sayyora nomi bo'lib kelgandagina bosh harf bilan yoziladi. Yer Quyosh atrofida, Oy Yer atrofida aylanadi.

Madaniy – maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san'at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, transport vositalari, sport inshootlariga qo'yilgan nomlar bosh harflar bilan boshlanadi: «Tong», «Saodat», «Navro'z», «Botanika», «Tanovor», «Jasorat» kabi. Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi. Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navro'z bayrami kabi.

Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarining xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi.

O'zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Tinchlik Kengashi kabi.

Boshqa tarkibli nomlarda oliy mansabni bildiruvchi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi: Bosh vazirning o'rinbosari, Mudofaa vaziri, Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi kabi.

Vazirliklar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar nomi tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: Sog'likni saqlash vazirligi, Fan va texnika davlat qo'mitasi, Fanlar akademiyasi, Tilshunoslik instituti kabi.

Davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi: «O'zbekiston Qahramoni» (unvon), «Oltin Yulduz» (medal). Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar, unvonlar, nomidagi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi: «Sog'lom avlod uchun» (orden), «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi» (faxriy unvon) kabi.

Gapning birinchi so'zi bosh harf bilan yoziladi: Yer tagidan Muqaddasga bir qarab oldim (O.Y).

E s l a t m a:

1. Ko'chirma gapdan keyin kelgan muallif gapining birinchi so'zi (agar u atoqli ot bo'lmasa) kichik harf bilan yoziladi: «Bu men», - qo'rqibgina javob berdi.

2. Xatboshida gapning sanaluvchi qismlari chiqarilganda bunday qismlar oldidan chiziqcha qo'yiladi va ular kichik harf bilan yoziladi. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni kurishga tayyorlash vaqtida tegishli organ quyidagi masalalarni:

- mazkur ishni ko'rib chiqish, uning huquq doirasiga kirish-kirmasligini;

- ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi protokol va ishga oid boshqa materiallar to'g'ri tuzilgan – tuzilmaganligini hal qiladi.

3. gapning qismlari qavsli raqam yoki qavsli harf qo'yib sanalsa, bunday qismlar ham kichik harf bilan yoziladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining lug'at boyligi asosan besh manba negizida tarkib topgan:

1). Umumturkiy so'zlar. 2). O'zbekcha s'zlar. 3). Tojik tilidan kirgan so'zlar. 4). Arab tilidan kirgan so'zlar. 5). Rus tilidan kirgan so'zlar. Tarkibli nomlarning bosh harfidan iborat qisqartmalar, atoqli ot bo'lmagan ba'zi birikmalarning qisqartmalari bosh harf bilan yoziladi. AES. BMT kabi. Qisqartma tarkibida bo'g'inga teng qism bo'lsa, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi. ToshDU (Toshkent Davlat Universiteti) kabi.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. Imlo qoidalari deganda nimani tushunasiz?
2. Imlo qoidalari nimalarga asoslanadi?
3. Chiziqcha bilan yozish qoidalarini ayting?
4. Yonma – yon kelgan unlilar va undoshlar imlosida nimalarga e'tibor beriladi?

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

Imlo qoidalari, orfografiya, o'zak, negiz, qo'shimcha, harf, bo'g'in, urg'u, bosh harflar imlosi.

Mavzu: Morfemika.

Dars rejasi:

1. Morfema va morfemika haqida umumiy ma'lumot.
2. Morfema va uning turlari.
3. Affiksal morfemalarning xususiyatlari.
4. Qo'shimchalarda shakl va ma'no munosabati.

Adabiyotlar:

1. Tursunov U., Muxtorov J. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 1992y. 187-197 betlar.
2. Shoabdurahmonov SH., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 1980y. 158-166 betlar.

1. Morfemika mustaqil leksik ma'noli so'zning ma'noli qismlarini, ya'ni o'zak va qo'shimchalarni o'rganuvchi bo'limdir. So'zning mustaqil ma'noli qismi «morfema» deyiladi. Masalan, xizmatchilarimiz so'zi xizmat-chi-lar-imiz qismlaridan iborat.

Xizmatchilarimiz so'zi to'rtta ma'noli qismlarga bo'linadi. Bu qismlar bundan boshqa ma'noli qismlarga bo'linmaydi.

2. Morfemalar bildiradigan ma'nolar turli-tuman. Asosiy xususiyatlariga ko'ra ikki xil bo'ladi.

1. O'zak morfema .
2. Affiksal morfema (qo'shimcha)

O'zak morfema so'zda albatta ishtirok etadigan, leksik ma'no ifodalay oladigan morfemadir. O'zak morfema so'z yasash uchun ham, forma yasalishi uchun

ham asos bo'la oladi. O'zak so'z yasalishi va shakl yasalishi uchun asos bo'ladi, shuning uchun so'zda qatnashadi, mustaqil ravishda leksik ma'no ifodalaydi.

O'zak morfemalar har bir so'z shaklida muqarrar ishtirok etib, leksik ma'nosini ifodolovchi qism hisoblanadi. So'z shakli bir morfemadan iborat bo'lsa, u o'zak morfema hisoblanadi. So'zga turlicha affikslar qo'shilib kelganda ham, morfemaning ma'nosi yo'qolmaydi. Undan yasalgan yangi so'zlarning – yasamalarning ma'nosi har vaqt o'zak morfemaning ma'nosi bilan bog'langan.

Affiksal morfema mustaqil leksik ma'no ifodalay olmaydigan, so'zning leksik yoki grammatik ma'nolarining shakllanishida xizmat qiladigan morfemalardir. Masalan; ishla, do'stona (so'z yasayapti).

Uylar, uyim, uyga (shakl yasayapti).

Qo'shimchalar mustaqil leksik ma'no ifodalay olmaydi, faqat so'zda leksik yoki grammatik ma'nolarning shakllanishiga xizmat qiladi. Qo'shimchalar so'z tarkibida doim qatnashavermaydi: tuzli, xalqaro, ishda. Biror so'z formal jihatdan o'zak yoki affikslar morfemalardan yoki har ikkalasidan tashkil topgandek ko'rinishi mumkin. Lekin bu so'z qismlarga ajratilganda har bir qismning o'z ma'nosi bo'lmasa, bir o'zakka teng bo'ladi, ya'ni uni o'zak va affiksal morfemaga ajratish to'g'ri bo'lmaydi. Masalan, quloqchin so'zidagi quloq mustaqil ma'no ifodalaydi. Lekin undagi chin elementini morfema deb bo'lmaydi. Demak, quloqchin so'zi morfemalarga bo'linmaydi.

3. Affiksal morfemalarning xususiyatlari.

Qo'shimchalarning turlari.

1. So'z yasovchi qo'shimchalar

2. Shakl yasovchi qo'shimchalar

3. So'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar

1. **So'z yasovchi qo'shimchalar.** Yangi ma'nodagi so'z yasash uchun xizmat qiladi. So'zning leksik ma'nosining shakllanishida ishtirok etadi.

So'z yasovchi qo'shimchalarga: otlardagi –dosh (suhbatdosh), -chi (ishchi), -shunos (tabiatshunos), -kor (paxtakor), kash (aravakash), -xon (kitobxon), -do'z (etikdo'z), -gar (zargar), -soz (soatsoz), -paz (oshpaz), -boz (majlisboz), -xo'r (norinxo'r), -parast (maishatparast), -go'y (duogo'y), -dor (puldor), -bon (bog'bon), -furush (chitfurush), -dosh (qayg'udosh), -vachcha (boyvachcha), -ham (hamkasb), -zor (gulzor), -loq (toshloq), -iston (guliston), -goh (dastgoh), -don (tuzdon), -xona (gulxona), -noma (taklifnoma), -q (iq, aq), (kekirik, kurak), -gi (-qi, -gi, -qu, -gu), (o'roq, chopqi), -i (um, im), (chidam), -ma (cho'kma), -qin (qochqin), -g'in (yong'in), -in (un) (yig'in), -(i)ndi (yuvindi, -ch (inch) sevinch.

Sifatlardagi: -li (sevimli), -dor (aybdor), -ser (sermahsul), -ba (baquvvat), -mand (orzumand), -kor (omilkor), -siz (adolatsiz), -be (beg'ubor), -no (noinsof), -chan (ishchan), -choq (chiq, chaq) (erinchoq), -qoq (botqoq), -ag'on (bilag'on), -ki (qi) (turtki), -ildoq (qaqildoq).

Fe'llardagi: -la (siltala), -lan (jonlanmoq), -lash (birlashmoq), -illa (chirqillamoq), -ira (yarqira), -a (o'yna), (-ar) (oqarmoq), -i (changimoq), -t (berkitmoq), -(i)q, (i) + (zo'riqmoq), -imsira (kulimsira), -inqira (o+arin+ira).

Ravishlardagi: -cha (butunicha), -cha (yangicha), -larcha (bolalarcha), -chasiga (jinnichasiga), -ona (do'stona), -lab (oylab), -an (umuman), -siz (to'xtovsiz), -be (beruxsat), -chang (qovushchang).

Soʻz yasovchilar shu jihatdan uch turga boʻlinadi.

1. Unumli qoʻshimchalar. Juda koʻp soʻz yasashda ishtirok etadi. –chi (ishchi), -li (aqli), -la (tuzla), -ma (moslama), -lik (tinchlik)

2. Kam unum qoʻshimchalar. -q (taroq), -qin (toshqin), -gʻin (yongʻin), -kash (mehnatkash), -kash (chizmakash), -in (yigʻin).

3.Unumsiz qoʻshimchalar. Soʻz yasash xususiyatini yoʻqotgan qoʻshimchalar –vul (qorovul), -chil (epchil), -dak (yugurdak), -gar (savdogar), -agʻon (chopagʻon).

Shakl yasovchi qoʻshimchalar. Soʻz maʼnosini tubdan oʻzgartirmaydi. Balki soʻz maʼnosiga qisman oʻzgartirish kiritadi.

Shakl yasovchi qoʻshimchalarga otlardagi koʻplik: -lar (gullar), kichraytirish; -chaq, -choq, -cha (tuguncha).

Erkalash –jon, xon, oy (Azizjon), feʼllardagi zamon –di, -gan, -ib, -yab, -yotib, -yotir, -moqda, -a, -y, -mas, -ar (oqar) mayl: -sa, -ay, -aylik, -lay, -mas, -moqchi

Nisbat qoʻshimchalari: -in, -il, -ish, -dir, -gaz (tutqin), sifatdash: -gan (topgan), ar (oqar), (mas), -vchi ravishdash: -ib, -may, -masdan, -a, -y, harakat nomi; (i) sh (tortish), (u) v, moq, sonning maʼno turlarini yasovchi –ta, -tacha, -inchi, -tadan kabi qoʻshimchalar kiradi. Shakl yasovchi qoʻshimchalar oʻz xususiyatiga qarab ikki turga boʻlinadi.

1.Kategoreal shakl yasovchi qoʻshimchalar soʻzlarning oʻzgarishi bilan bogʻliq bir butun sistemani tashkil qilgan grammatik shakllarni hosil qiladi. Jumladan, ot va otlashgan soʻzlarga xos grammatik son, egalik va kelishik shakllarini yasovchi affikslar, feʼlga xos shaxs-son shakllari, zamon shakllari kiradi.

2. Nekategorial qoʻshimchalar grammatik maʼno ifodolovchi shakl yasaydi.

1.Otlardagi kichraytirish, erkalash, chegara maʼnolarini bildiruvchi qoʻshimchalar: -cha, -loq, -chaq, -choq, -gina.

2.Ot, sifat, ravishlarga moyillik (gina-qizgina) sifatlarda belgining kuchsiz ekanlik maʼnolarini bildiradi. -(ish), (m) mtir (koʻkish, koʻkintir).

3.Sonlardagi donalik, chama, tartib son yasovchi affikslar: -ta, -cha, -ov, -ala, -(i)nchi (ikkita, uchov, beshtacha).

4.Feʼllarda harakatning takroriyligi, davomiyligi, kuchsizlanishi kabi miqdor shakllari yoki vazifani bajarishga moslashgan ravishdash, harakat nomi shakllarini yasovchi affikslar: -(i) msira, -(i)nqira, -gila, -gan.

Soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimchalar.

Soʻzlarning maʼnosiga oʻzaro taʼsir qilmaydi, soʻzlarni bir-biriga bogʻlash uchun xizmat qiladi. Ularni uchga boʻlamiz:

Kelishik qoʻshimchalar: -ning, -ni, -ga, (qa,ka), da dan)

Egalik qoʻshimchalar: -im, -ing, -i

Shaxs son qoʻshimchalari: -man, -san, -i, -miz, -siz,

4.Qoʻshimchalarda shakl va maʼno munosabati asosida omonimiya (shakldoshlik), polisemiya, (koʻpmaʼnolilik), sinonimiya (maʼnodoshlik) hodisalari uchraydi.

Soʻz yasovchi qoʻshimchalarda omonimlik munosabat quyidagi qoʻshimchalar orqali ifodalanadi: -q,k (-iq, -ik, -uq, -ak) –kurak, teshik, sochiq, yutuq (ot) egik, yetuk, siniq, qoʻrqoq, yumshoq, yumuq (sifat) choʻziq, kechik, chiniq (feʼl)

-im, urim, terim

-gi, (qi, ki), supurgi, chopqi, tepki (ot)
 kuzgi, keski, qishki (sifat)
 -in, -un, ekin, tugun (ot), erkin, yashirin (sifat)
 -lik -bolalik (ot), haftalik (sifat)
 -qin, g'in (qun, gun) –toshqin, yong'in (ot), yorqin, ozg'in (sifat)
 -chaq, choq, chiq, -sirg'anchiq (ot)
 -cha, -larcha, -lab, -yashirinja (ravish)
 -ma, -gazlama (ot), yasama (sifat)
 -(a) r –ko'kar, oqar (sifatdan fe'l yasalgan)
 -siz –suvsiz (sifat), kelasiz (fe'lning shaxs-son shakli)
 -(i) sh –o'qish, so'zlash.

Polesamantik xususiyati.

-gi, -g'i (ki,qi) supurgi, chopqi (narsa oti) sevgi, sezgi (mavhum ot)
 -lik paxtachilik (kasb-hunar, soha oti), yaxshilik, manmanlik (belgi, holat nomi), tepalik, pastlik, do'nglik (joy, makon oti).

So'z yasovchi -chi, -ma, -li, -la qo'shimchalari ham ko'p ma'noli qo'shimchalardir.

Sinonimiylik xususiyati.

1.-chi affiksi tojik tilidan qabul qilingan -shunos, -kor, -kash affikslari bilan sinonim tilchi va tilshunos, adabiyotchi va adabiyotshunos

2.-li affiksi tojik tilidan o'zlashgan –kor, -dor, -ba, -ser kabi yasovchilar bilan sinonim itoatli va itoatkor, bayroqli va bayroqdor.

3. -siz affiksi tojik tilidan o'zlashgan –be, no affikslari bilan sinonim beg'ubor va g'uborsiz, bexabar va xabarsiz, o'rinsiz-noo'rin.

Affiksal antonimlik xususiyati.

Affikslarni qarama-qarshi ma'no bildirish hodisasini hisoblash

-li va -siz affiksini misol qilish mumkin. Masalan, adolatli va adolatsiz, kuchli va kuchsiz

Tekshirish uchun savollar:

- 1.Morfemika bo'limida nima o'rganiladi?
- 2.Morfema nima?
- 3.Affiksal morfemalarning xususiyatlari nimalardan iborat?
- 4.Qo'shimchalarda shakl va ma'no munosabati qanday yuz beradi?

Tayanch iboralar:

Morfema, morfemika, o'zak morfema, qo'shimchalar, so'z yasovchi qo'shimchalar, shakl yasovchi qo'shimchalar, so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar, ko'p ma'noli qo'shimchalar, omonim, sinonim, antonim qo'shimchalar.

Mavzu: Leksika va leksikologiya

Dars rejasi:

1. Leksikologiya haqida ma'lumot.
2. So'zning leksik lug'aviy va grammatik ma'nolari.
3. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar.
4. Ma'no ko'chishining asosiy turlari haqida.

Adabiyotlar:

1. G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'lim mazmuni T., 1995y 60-65 betlar.
2. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 2002y 31-57 betlar.
3. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyoti. T., 2002y 61-68 betlar.
4. O'quvchilar so'z boyligini oshirish. T., 1996y 3-10 betlar.
5. Tursunov U., Muxtorov J. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 1992y 79-88 betlar.

1. Tilimizdagi so'zlar ulkan, behisob xazina bo'lib, foydalanganimiz sari yanada ko'payib, boyib boradi.

Behad boy xazinadan bahramand bo'lgan shaxsgina fikrni qiynalmay, to'g'ri ravon ifodalash ko'nikmalariga ega bo'ladi. Modomiki, ona tili mashg'ulotlarining asosiy maqsadida o'quvchilarni nutqiy faoliyatga tayyorlash ekan, har bir o'quvchining so'z boyligini oshirish ustida ishlash uning shaxsiy so'zlar xazinasini doimo to'ldirib, boyitib borishi hayotiy zaruriyatdir.

Har qanday tilni o'rganayotgan paytingizda, eng avvalo sizni qurshab turgan narsa va hodisalarning amaliy hayotingiz bilan bog'liq, bo'lgan turli xil harakatlari, belgi va xususiyatlarning shu tilda qanday ifodalanishi, nomalanishini bilishdan boshlaymiz.

Ma'lum bir tildagi ana shunday so'zlar yig'indisi shu tilning lug'at tarkibini tashkil qiladi.

Leksika atamasi ikki ma'noda qo'llaniladi:

a) tilning lug'at tarkibi, so'zlar yig'indisi

b) lug'at tarkibini o'rganuvchi tilshunoslikning alohida bo'limi.

Leksika atamasining ikkinchi ma'nosi uchun leksikologiya atamasi ham qo'llaniladi.

Leksikologiya grekcha lexikos-«so'z, so'zga doir» va logos-«ta'limot» so'zlarining birikuvidan olingan bo'lib, leksika (so'z) haqidagi ta'limot demakdir. Demak, so'z va uning ma'nolarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limiga leksikologiya deyiladi.

Leksikologiya tilshunoslik sohasining bir bo'limi hisoblanadi. Tildagi so'zlarning jami-leksikani tashkil etadi. Leksikologiyada tilning lug'at boyligini, so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari, bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar hamda so'zlarning lug'aviy ma'nolari o'rganiladi. Bu bo'limda so'zlar quyidagi xususiyatlari bo'yicha o'rganiladi:

1. So'zning semantik (ma'noviy) tuzilishi.

2. So'zlarning shakl va ma'no munosabati

3. Leksikadagi so'zlarning o'z yoki o'zlashgan so'z ekanligi.

4. Qo'llanilishiga ko'ra so'zlarning umumiy yoki chegaralanganligi

5. Turkiy jihatdan o'zbek tili leksikasi

6. So'zlarning emotsional-ekspressiv bo'yoq va stilga munosabati

2. So'zning lug'aviy va grammatik ma'nosi.

So'zlarning ikki xil ma'nosi: lug'aviy hamda grammatik ma'nolari bo'ladi.

Soʻzdan nima anglashilsa, bu uning lugʻaviy maʼnosi deb yuritiladi. Soʻzning maʼlum bir grammatik shaklda boʻlishi, grammatik vazifani bajarishi soʻzning grammatik maʼnosi hisoblanadi.

Misollar:	Lugʻaviy maʼnosi	Grammatik maʼnosi
Daftarim bor	oʻquv quroli	ot I shaxs birlikda, bosh kelishikda
Oq paxtalar	belgi, rang sifat	aniqllovchi
Sayrga bordik	harakat feʼl	I shaxs koʻplikda, yaqin oʻtgan zamon, kesim, birgalik maʼnosini anglatadi.

Soʻzning leksik maʼnosi tushunchaga asoslanadi. Tushuncha soʻz maʼnosining asosini tashkil etadi, soʻz esa tushunchaning nomidir. Masalan: yer, osmon, daraxt, olmoq soʻzlarining maʼnosi boshqa-boshqa tushunchalarni ifodalaydi.

Yer-predmet, daraxt boshqa bir predmet, olmoq-harakat kabi tushunchani egallaydi. Shu soʻzlarning maʼnosi boshqa-boshqa tushunchalarni ifodalaydi. Keltirilgan soʻzlar esa shu tushunchalarning nomidir. Tushuncha kishining borliqni uni ongida aks ettirish orqali yuzaga keladi. Soʻzning leksik maʼnosi uning predmet, belgi, miqdor, harakat, holat kabi tushunchalarni ifoda etishidir. Soʻzning grammatik maʼnosi leksik maʼno ustiga qoʻshiladigan qoʻshimcha maʼnolari boʻlib, shu soʻzning maʼlum shakl oʻzgarishi bilan bogʻliq. Tildagi barcha leksik maʼnoli predmet bildiruvchi soʻzlar bir turkumga oid.

Masalan: togʻ, osmon, tol, daryo soʻzlarining har biri alohida predmetlarni ifodalaydi bu ularning leksik maʼnosi. Lekin shu soʻzlarning hammasi predmetlik tushunchasini ifodalovchi bir turkumni, ot turkumini tashkil qiladi. Bu esa shu soʻzlarning grammatik maʼnosidir. Predmet maʼnosini bildiruvchi soʻzlarning bir turkumiga-ot soʻz turkumiga oidligi hamda ularning son egalik, kelishik kabi maʼnolarni ifoda etish grammatik maʼno sanaladi. Grammatik maʼno soʻzlarning, birinchidan, qaysi soʻz turkumiga oidligini bildirsa, ikkinchidan, shu soʻzning leksik maʼnosi ustiga qoʻshiladigan qoʻshimcha maʼnolarni ham beradi.

Koʻrinadiki, nutq jarayonida har bir soʻz leksik va grammatik maʼnolar uygʻunligidan tashkil topadi. Odatda leksik va grammatik maʼnolarning muayyan tovush yoki tovushlar birikmasi bilan barqaror munosabatidan tashkil topgan butunlikka nisbatan soʻz atamasi qoʻllaniladi. Grammatik maʼnosiz, faqat leksik maʼno bildiruvchi soʻzning kimi uchun leksima atamasi qoʻllaniladi.

Bunday vaqtda soʻz morfologiya birligi sifatida, leksima esa leksikologiya birligi sifatida bir-biridan farqlanadi.

Demak, gap tarkibidan soʻzlarni ajratamiz, soʻzlar esa leksima va grammatik qoʻshimchalarga boʻlinadi. Soʻzning grammatik maʼno bildiruvchi qoʻshimchalarsiz qismi leksima sanaladi. Lugʻatlarda bosh soʻz sifatida leksimalar beriladi.

3. Oʻzbek tilining lugʻat tarkibida oʻzbek xalqining ilmu madaniyati, sanʼati aks etgan, insonning bilish faoliyati jarayoni va uning natijalari ifodalangan. Asosiy lugʻaviy birlik hisoblangan soʻz orqali qadriyatlar, tushuncha va bilimlar kelgusi avlodga yetkaziladi.

Soʻz oʻzining tashqi va ichki tomoniga ega. Tovushlik tomoni tashqi tomoni boʻlsa, maʼno ifodalash tomoni ichki tomoni hisoblanadi. Maʼno ifodalash tomoniga koʻra soʻzlar bir maʼnoli va koʻp maʼnoli boʻlishi mumkin.

Tilimizdagi soʻzlarning juda katta qismi koʻp maʼnolidir. Bir maʼnoli soʻzlar tilimizda kam sonni tashkil qiladi va ilmiy, kasb-hunarga doir atamalarni,

shuningdek, yangi paydo bo'lgan so'zlarni o'z ichiga oladi. Tilimizdagi ko'pgina so'zlar har xil tushuncha va fikrlarni ifodalashiga ko'ra yangi-yangi ma'nolarni bildiradi. Masalan, ko'z, quloq so'zlarining asosiy ma'nosini inson tanasining a'zolarini bildirishidir. Bunday ma'no to'g'ri yoki bosh ma'no sanaladi. Ishning ko'zi, uzukning ko'zi, qozonning qulog'i birikmalaridagi ko'z va quloq so'zlari ko'chma ma'noda qo'llangan. So'zlarning ko'chma ma'nosi bosh ma'no asosida yuzaga keladi. Ko'p ma'noli so'zlar o'zaro ma'no jihatdan bir-biriga bog'liq bo'lgan so'zlardir.

Nutq jarayonida ikki va undan ortiq ma'noda qo'llanuvchi so'zlarga ko'p ma'noli so'zlar yoki polisemiya deyiladi.

Polisemiya yunoncha polys «ko'p», sema «ma'no» so'zlaridan olingan bo'lib, ko'p ma'noli demakdir. Bundayx til birligi polisemantik birlik deyiladi.

Til birliklari bir ma'noni anglatishiga ko'ra monosemantik hodisani yuzaga keltiradi. Monosemiya – yunoncha monos «bir», sema , semeon «belgi», semantikos «bildiruvchi» ma'nolarini bildiradi.

Ko'p ma'nolilik lug'aviy birliklarga ham, grammatik birliklarga ham xos. Shunga ko'ra ikki xil bo'ladi.

1.Lug'aviy polisemiya-lug'aviy birliklardagi ko'p ma'nolilik hodisasi: bosh 1-«kishi organizmning bo'yindan yuqori qismi», bosh 2-«miya» kabi.

2.Grammatik polisemiya-grammatik birliklardagi ko'p ma'nolilik hodisasi: -ga 1-o'zi qo'shilgan asos, harakat, y'naltirilgan predmet ekanini bildiradi. Singlimga qaradim; -ga 2-o'zi qo'shilgan asos harakatni bajarishda maqsad bo'lgan predmet ekanligini bildiradi: Singlimga (singlim uchun) oldim singari.

Lug'aviy polisemiya ikki xil bo'ladi:

1.Leksik ko'p ma'nolilik-leksimalardagi ko'p ma'nolilik hodisasidir.

2.Frazeologik ko'p ma'nolilik-iboralardagi ko'p ma'nolilik hodisasidir: ko'zga ko'rinmoq 1-«topilmoq», ko'zga ko'rinmoq 2-«o'ziga diqqat, e'tiborni jalb qiladigan bo'lmoq» kabi.

Ko'p ma'noli so'zlarning ma'nosini bilish va undan nutq jarayonida o'rinli foydalanish nutqning ta'sirchan ifodali bo'lishiga yordam beradi. Lekin nutqda ko'p ma'noli so'zlardan o'rinli foydalana bilishimiz zarur. Chunki nutqda so'zni to'g'ri tanlash va qo'llash nutq madaniyatining muhim shartlaridan hisoblanadi.

4.Tilimizdagi mavjud so'z ma'nolarining o'sishi ma'no k'chishi, ma'noning kengayishi va torayishi tarzida ro'y beradi. Ma'no ko'chishining nima asosida ro'yobga chiqishiga ko'ra metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik singari turlari mavjud.

1.Nutqimizda eng keng tarqalgan ma'no ko'chish usuli metaforadir.

Metafora so'zi yunoncha metofora –«ko'chirish» degan ma'noni anglatadi. Ya'ni nisbiy o'xshashlikka ega bo'lgan ikki predmetdan birining nomi bilan o'xshash belgilari asosida ikkinchisini atash hodisasidir. Masalan, taxtaning ko'zi birikmasida ko'z so'zining ma'nosi odam ko'zining tashqi o'xshashligi asosida vujudga kelgan. Narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik turli asosda bo'lishi mumkin:

1.Ikki predmet o'rtasidagi shakliy o'xshashlik. Masalan, odamning oyog'i, stulning oyog'i.

2. Ikki predmet qayerda joylashishi bo'yicha o'xshashlik. Masalan, sigirning dumi, samolyot dumi va hokazo.

3. Metonimiya so'zi yunoncha – metonymia «qayta nomlash» degan ma'noni anglatadi.

Narsa va hodisalarning o'zaro bog'liqligi asosida bir predmet nomi bilan ikkinchisini ifoda etishdir. Bunda ikki predmet o'rtasida hech qanday o'xshashlik bo'lmaydi. Ular orasidagi doimiy bog'lanish tufayli birini aytganda, ikkinchisi ham anglashiladi. Masalan:

Lermontovni tashlamadim hech,
So'ngra qo'lga oldim Hofizni

Bu misolda berilgan Lermontov va Hofiz so'zlari ijodkorlarning o'zlariga emas, ularning asarlarini bildirayapti.

4. Sinekdoxa so'zi yunoncha –sinekdoche «birlikda anglash, qo'shib farqlamoq» ma'nolarini bildiradi. Bu hodisa qismning nomi bilan butunni yoki butunning nomi bilan qismni atash orqali hosil qilishdir. Masalan, «bosh» yoki «tuyoq» so'zlarining qoramol, qo'y-echki ma'nosida, «tirnoq» so'zining farzand ma'nosida qo'llanishi.

Sinekdoxa ikki xil yo'l bilan ko'chishi mumkin.

1) bir narsaning nomi sifatida unga xos biror qismning nomi ishlatiladi: yostiq (qism)-yostiq (butun) «hayot», «umr». Misol: Yostig'ingni quritaman. Yurak (qism)-yurak (butun: Bu otashin yurak) va hokazo.

2) bir predmetning nomi sifatida shu predmetni ham o'z ichiga olgan butunning nomi ishlatiladi: qo'l (butun)-qo'l (qism «barmoq»): Besh qo'l barobar emas; osh (umuman ovqat)-osh (palov) kabi

4. Vazifadoshlik (funktional ko'chirish-lotincha funktio-«faoliyat», «vazifa») muayyan narsaning vazifasini ikkinchi bir narsa bajarishi natijasida avvalgisining nomi bilan keyingilarni ham ifodalashdir. Masalan, chiroq so'zi ilgari qora chiroq, shishali chiroq, keyinchalik elektrolampochka ma'nosida qo'llanadi. Yoki o'q so'zi oldin kamon bilan otiladigan qurolni bildirsa, so'ngra miltiq yaratilgandan keyin uning otiladigan quroli ham o'q nomi bilan atalgan.

Umuman olganda nutq jarayonida ma'no ko'chishining turlaridan o'rinli foydalanish nutqimizni ta'sirchan qiladi.

Tekshirish uchun savollar:

1. Ma'no ko'chishining qanaqa turlarini bilasiz?
2. Leksikologiya bo'limida nimalar o'rganiladi?
3. Ko'p ma'noli so'zlar nima uchun paydo bo'ladi?
4. Metonimiyaning metaforadan farqini tushuntirib bering?
5. Sinekdoxa ko'chma ma'no hosil qilishning qanday usuli?

Tayanch iboralar.

So'z, leksima, leksik ma'no, grammatik ma'no, bir ma'noli so'zlar, ko'p ma'noli so'zlar, sinekdoxa, vazifadoshlik, metofora, metonimiya, so'zlarning lug'aviy ma'nolari.

Leksikologiya-so'zlarning lug'aviy ma'nolarini o'rganuvchi bo'lim.

1. Qo'yidagi gaplarning qaysi birida tomoq so'zi ko'chma ma'noda qo'llangan?

A) Xura oshdan ular, tura-tomoqdan

- V)Yig'it kelganini bildirib, tomoq kirib qo'ydi
- S)Bemorning tomogidan suv xam utmay qoldi.
- D)Kechga borib tomogim ogrib qoldi
- E)Jazirama issikdan tomoqlar qaqrab ketdi.

2.Ibora bilan ifodalangan egani toping.

- A)Uning oyok olishi bizga yokmadi.
- V)O'zbekiston Respublikasi –bizning Vatanimiz
- S)YOlgon so'z kishining kadrini tushiradi
- D)Mulksiz odam – erksiz odam

3.Sinonim sifatlar berilgan qatorni aniqlang.

- A)sezgir, ziyrak, tuygun, xushyor, sergak
- V)cheksiz, bexad, bardoshli, benixoya
- S)chopkir, chopagon, ketin
- D)uyat, nomus, gurur, xayo
- E)sekin, asta, astoydil, oxista

4.Omonim so'zlar berilgan qatorni aniqlang.

- A)YAra, son,kul, soz, shim
- V)Do'st, urtok, birodar, ogayni
- S)Bosh, ketga, kam, soz, tez
- D)Yig'lamok, shirin, go'zal, nam
- E)Katta, yaxshi, og'ir, jasur

5.Qanday so'zlarga paronim so'zlar deyiladi?

- A)Aytilishi bir-biriga yakin, ammo ma'nosi xar xil bo'lgan so'zlar
- V)Qarama-qarshi ma'noli so'zlar
- S) *SHakli bir xil ammo ma'nosi bir-biriga yakin bo'lgan so'zlar*
- D) Aytilishi va yozilishi bir xil ammo ma'nosi xar xil bo'lgan so'zlar
- E) Ilm-fan texnika san'at kasb-xunarga xos so'zlar

6.Bitta shu tuyuq bilan oltita bolani boqdim. ushbu gapdagi ma'no kuchish yo'lini izoxlang.

- a) sinekdoxa yo'li bilan ma'no kuchgan
- v)so'zlar o'zma'nosida qo'llangan
- s) metafora yo'li bilan ma'no kuchgan
- d) metanimiya yo'li bilan ma'no kuchgan
- e) ibora qo'llangan

7.METAFORA YO'LI BILAN MA'NO KUCHGAN GAPNI ANIQLANG.

- a) uchok og'zida utga qo'yilgan qora kumgon va raklab qaynamokda edi.
- v) oltin ko'zkeldi
- s) tuyogimiz ko'paysa ko'paydiki kamaygani yo'q.
- d) to'g'riga zavol yo'q.
- e) kishining xulki-uning chiroyi

8. Qo'yidagi gaplarda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning qaysi biri metanimik ma'no ifodalaydi?

- a) qishloq markazida samovor ochildi
- v) u tarvo'zning bir pallasini pakkos tushirdi

- s) derazaning singan ko'ziga plyonka tortib qo'yilgan
- d) maktabning bikinida kasalxonaning bo'lishi gigiyenaga xilofdir.
- e) polga esa takir gilam tushalgan edi

9. Bilib bu nav' ilmi osmoniki ondin yozdi ziji ko'ragoniy.(navoiy) baytdagi ziji so'zining ma'nosi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang?

- a) «astronomiya jadvali» «takvim»
- v) «asar» «qo'llanma»
- s) «xukmdor» «podshox»
- d) «bezak» «ziynat»
- e) «ulug» «yuksak»

11.METANIMIYA ASOSIDA MA'NO KUCHGAN SO'Z VA QO'LLANGAN GAPNI TOPING?

a) mexmon kirishi bilan zal oyoqqa turdi.

- | | | | | |
|----|---------------|--------------|----------|---------------------|
| v) | bahor | kelinchakdek | yasani | keldi. |
| s) | besht | kul | barobar | emas. |
| d) | ma'naviy | barqamol | inson | komil inson bo'ladi |
| e) | mexmonlarning | xammasi | angrayib | qoldi |

12. QAYSI QATORDAGI SO'ZNING TASVIRIY IFODASINOTO'G'RI BERILGAN?

- A) paxta-dala malikasi
- V) fazog'irlar-samo lochinlari
- S) rassomlar-muyqalam soxiblari
- D) archa-urmon malikasi
- E) shaxmat-akl gimnastikasi

1.Bir so'z turkumi doirasida O'zaro omonim bo'lgan so'zlarga grammatik shakllar qo'shilganda xam omonimlik munosabatini saqlab qoladimi?

- A)saqlab qoladi
- V)grammatik shakllar qo'shilguncha omonim munosabat saqlanadi.
- S)grammatik shakllarda omonimlik munosabati bo'lmaydi.
- D)O'zaro omonim munosabat bo'lmaydi
- E) V va S

2.Ikki yoki undan ortik so'zning shakliy munosabati va talaffo'ziga ko'ra O'zaro birlik hosil qilishi qaysi xodisalar uchun xos?

- A)omonimlar uchun xos
- V)sinonimlar uchun xos
- S)antonimlar va ko'p ma'nolilik uchun xos

D)paronimlar uchun xos

E)sinonimlar va paronimlar uchun xos

3.Ko'p ma'noli so'zlar qatorini aniqlang.

A)tomir, yokka

V)men, sen

S)bish, un

D)ota, ona

E)yashil, pushti

4.Qaysi gapda yengil so'zi ko'chma ma'noda ishlatilmagan?

A)Yo'lchi yengil eshikchani ochib kirdi.

V)Es –qo'shingni yig', unaka yengil bo'lma!

S)Davlatbekov radiodan aytilayotgan yengil qo'ygan xususan, uning so'zlaridan zavqlanib tebrandi.

D)Yig'irma minut utgandan keyin yengil ta'zim bilan Gulandom kirib keldi.

E)Safar cho'tirning bir barmogi yengil yarador bo'lgan edi.

5.Fo'zuliyni oldim kulimga, Majnun bo'lib yig'lab qichqirdi. Baytida Fo'zuliyni so'zi o'zma'nosidan qaysi yo'l bilan kuchgan?

A)metonomiya yo'li bilan

V)sinekdoxa yo'li bilan

S)metafora yo'li bilan

D)aks ma'noda qo'llangan

E)ma'no kuchgan emas.

6.So'z ma'nosi kuchishining qaysi turida ko'chma ma'nodagi so'z ko'pincha qo'shtirnoqqa olinadi?

A)kinoyada

V)metofohada

S)metonimiyada

D)o'xshatishda

E)sinekdoxada

7.Ma'noviy sinonimlar berilgan qatorni toping?

A) xul, jalabbo

V)doston, poema

S)respublika, jumxiyat

D)tilshunoslik, lingvistika

E)kosmos,fazo

8. Frazelogik sinonimlarni belgilang.

A)kulini yuvib, kultigiga urdi-xafsalasi pir bo'ldi.

V)duppisini osmonga otdi-sevindi

S)astoydil,eng shimarib

D)yuldo'zni benarvon uradi –erga ursang kukka sachraydi.

E)labi –labiga tegmadi –ging demadi

9. Qo'yidagi gaplarning qaysi birida ko'chma ma'noda qo'llangan so'z ishlatilgan?

A)Uchoq og'zida utga qo'yilgan qora qumgon vaqirlab qaynamokda edi.

V)Olimjon og'zini katta ochib esnadi.

S)Sarvar hola qulidagi kusakning og'zini yorar ekan, javob kutib tiqilgan juvonlarga karadi.

D)O'zi bolalarning og'zini oaktirib turgan bisotimizdagi bor molimiz shu.

E) A,S

10. So'z va ibora o'zaro sinonim bo'lgan qatorni aniqlang.

A) A va S

V)tinchidi, ko'ngli joyig'a tushdi

S)mum tishlamok, og'ziga tolkon solmoq

D)ujar, tutgan yeridan kesadi

E)ko'ngli bo'sh, ko'ngli yumshoq

11. O'zbek tili leksikasining ichki imkoniyatlar asosida boyish manbalarini belgilang.

A)A va S

V)o'zbek tili so'z yasash usullari asosida yangi so'z yasash.

S)yaqin munosabatda bo'lgan xalqlar tilidan bevosita so'z olish

D)xalqshevalaridan so'z olish

E)A,V va S

Ma'ruza mavzusi: So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari.

Dars rejasi:

1. So'zlarning shakl va munosabati haqida.
2. Sinonimlar (ma'nodosh so'zlar)
3. Omonimlar (shakldosh so'zlar) va ularning ko'p ma'noli so'zlardagi farqi.
4. Antonimlar (qarama – qarshi ma'noli so'zlar) va uyadosh so'zlar.

Adabiyotlar:

1. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T. 2002 y. 87-97- betlar.
2. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyoti. T. 2002 y. 60-69-betlar.
3. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T. 1981 y. 110-120-betlar.
4. O'quvchilar so'z boyligini oshirish. (Tuzuvchi: Ne'matov X., G'ulomov A., Ziyodova T.) T. 1996 y. 4-21-betlar.

1. O'quvchilarning so'z boyligini oshirish ona tili ta'limida asosiy muammolardan biri bo'lib keldi va shunday bo'lib qolmoqda. Biz ko'p hollarda o'quvchini daryo o'rtasida turib suv izlayotgan shaxsga o'xshatamiz. Daryo to'la suv-bola chanqoq. Lug'atlarimiz so'zga to'la, o'quvchining bisotida so'z kam. Bu holat, avvalo, ona tili ta'limining mazmuni bilan chambarchas bog'langan. Biz ko'pincha o'quvchilarning so'z zaxirasini oshirishni faqat «Leksikologiya» bo'limi doirasida qaraymiz. Bolalarning so'z zaxirasini oshirishni faqat shu bo'lim bilan chegaralash, kechirib bo'lmas xatolikdir.

Fonetika, morfologiya, sintaksis bo'limlarini o'rgatishda ham so'z boyligini oshirishga e'tibor beriladi. Ayniqsa, leksikologiya bo'limini o'rganishda, asosan, ma'nodosh so'zlar, shakldosh so'zlar, uyadosh so'zlar, zid ma'noli so'zlar ustida ish olib borilganda buni yaqqol ko'rishimiz mumkin. So'zlarning bunday ma'no turlaridan foydalanish nutqqa ifodaviylik, ta'sirchanlik bag'ishlaydi.

2. Ma'lumki, o'zbek tilshunosligida «Sinonim so'zlar» tushunchasi turli xilda talqin etiladi. Bir guruh olimlar (F.Kamol, M.Mirzayev, U.Tursunov, A.Doniyorov) sinonim so'zlar deganda ma'nosi bir xil, shakli har xil bo'lgan so'zlarni; ikkinchi guruh olimlar (Y.Pinxasov, A.Mirtojiyev, Y.Tojiyev, I.Qo'chqortoyev) ma'nosi bir – biriga yaqin, shakli har xil bo'lgan so'zlarni va uchinchi guruh olimlar esa (A.Hojiyev, Sh.Rahmatullayev, H.Ne'matov, E.Qilichev, Sh.Orifjonova) ma'no jihatidan o'xshash, shakl, uslubiy bo'yoq va qo'llanish jihatidan bir-biridan farq qiluvchi so'zlarni tushunishadi. Biz «Ma'nodosh so'z» tushunchasini ta'riflashda uchinchi guruh olimlarning fikriga qo'shilamiz.

Ma'nodosh so'z ma'lum bir matnda ayni bir narsa, belgi, harakat, holat miqdorni turlicha atash vositasi majmuasini tashkil etadi. Masalan, bahor bu yil yurtimizga juda kech kirib keldi. Fasllar kelinchagi hammaning qalbiga olam-olam quvonch olib keldi. Ha, u fasllar ichida eng go'zal fasl. Ko'klamda olam uyg'onadi, bobo dehqon yerga baraka urug'ini qadaydi, issiq o'lkalarga uchib ketgan qushlar yana o'z inlariga qaytadilar. Uyg'onish, yasharish fasli – bahor ana shunday ne'matlarga boy. Ushbu matndagi bahor, u fasllar kelinchagi, ko'klam, uyg'onish, yasharish fasli kabi so'z va so'z birikmalari shu matnda bir tushunchani atab, nomlab kelayapti. Ona tili ta'limi jarayonida tilshunoslikdagi sinonim tushunchasiga tayansak, yuqorida ko'rsatilgan matnni umuman yarata olmaymiz. Zero, bahor, u, fasllar kelinchagi ko'klam, uyg'onish, yasharish fasli singarilar bir-biri bilan mutlaqo sinonim emas, balki shu matnda bir-birini bemalol almashtira oladigan so'z va birikmalardir. Chunki ular ma'lum bir nutq sharoitida ayni bir narsani atab, nomlab keladi, nutq ravonligini, uning ta'sirchanligini ta'minlaydi, boshqacha aytganda lingvistik sinonim bajaradigan barcha vazifani bajara oladi. Yana bir misolni ko'rib

o'tsak: Jamol Toshkentdan xursand bo'lib keldi. U bizga poytaxtdan xushxabar olib keldi matnida Karimning u, Toshkentning poytaht so'zlari orasida ma'nodoshlik, qiymatdoshlik va vazifadoshlik aniq ko'rinib turibdi. Chunonchi, poytaxt hamda Toshkent so'zlari orasidagi umumiylik shundaki, Toshkent so'zining semantik strukturasida «O'zbekistonning poytaxti» semasi mavjud. Mana shu asosda poytaxt va Toshkent so'zlari ma'lum matniy sharoitda bir – biriga qiymatdosh, vazifadosh yoki ma'nodosh bo'la oladi. Karim va u so'zlarining o'zaro qiymatdosh yoxud ma'nodosh bo'la olishiga asos shundan iboratki, Karim so'zida ham, u kishilik olmoshida ham shaxs semasi mavjud va ma'lum matniy sharoitda ko'rsatish olmoshi yoki kishilik olmoshi istagan atoqli yoki turdosh otni almashtira oladi.

Biz u va Karim so'zlarini yoxud oq oltin va paxta so'zlarini lingvistik sinonimlar sifatida baholash tarafdori emasmiz. Xuddi shuningdek, tashvish va boshog'riq kabi lisoniy birliklarni bir-biriga lingvistik sinonimi deb baholash fikridan yiroqmiz, biroq nutqda har bir betda, har bir satrda bunday birliklarning bir-birini bemalol almashtirish, bir-biriga qiymatdosh, vazifadosh va ma'nodosh ekanligidan ko'z yumolmaymiz. (2;9 –12-betlar). Til qonuniyatlari asosida matnda ma'nodosh, qiymatdosh yoxud vazifadosh bo'la oladigan, ya'ni biri o'rnida ikkinchisi bemalol qo'llana oladigan hodisalarni birgalikda olib tahlil qilsakkina, so'zning barcha ma'nodoshini, qiymatdoshini va ular orasidagi noziq uslubiy va ma'naviy farqlarni anglay olamiz.

Ma'nodosh so'zlar – ma'nolari bir-biriga yaqin so'zlar sirasidir. CHunonchi, yuz – bet – aft – bashara – chehra – jamol – diydor – oraz – ruhsor; yahshi – durust – tuzug – hub – soz; odam – qishi – inson – qimsa ; shamol – shabada – el qabi suzlar qatori shunday siraldandir.

Ma'nodosh so'zlar qatorida bitta so'z, albatta, umumiy ma'noli, keng iste'molli so'z bo'ladi. Yuqoridagi siralarda yuz, yaxshi, odam, shamol shunday so'zlardir. Bunday so'zlar ma'nodosh so'zlar qatorining bosh, yetakchi yoki asosiy so'zi deb ataladi. Ma'nodosh so'zlar qatoridagi boshqa so'zlarning ma'nosi bosh so'z ma'nosiga nisbatan aniqlanadi. Chunonchi, bet – turq – bashara – yuz tushunchasini salbiy munosabat bilan ifodalasa, chehra - jamol- diydor shu tushunchani ijobiy munosabat bilan ifodalaydi. Oraz – ruhsor so'zlari esa ko'tarinki, badiiy, she'riy uslubga xos ijobiy munosabatli so'zlardir.

O'zbek tilida sinonimlar ko'p qo'llanadi. Lug'aviy sinonimlar ma'nosiga ko'ra ikki xil bo'ladi: 1. To'liq sinonimlar, 2. Ma'noviy sinonimlar.

To'liq sinonimlar ma'nosida va ishlatilishida bir-biridan farq qilmaydi. Masalan, tilshunoslik va lingvistika atamaları aynan bir tushunchani anglatadi, ularning biri o'rnida ikkinchisini ishlatish mumkin.

To'liq sinonimlar boshqa tillardan so'z olinishi natijasida hosil bo'ladi: respublika, jumhuriyat; doston, poema; kosmos, fazo.

Ma'noviy sinonimlarda sinonimik qatordagi so'zlar bir – biridan nozik ma'nosi bilan farq qiladi. Masalan, nam, ho'l, shalabbo sinonimlari ho'llik darajasi, tiqillatdi, taqillatdi, duqillatdi, gursillatdi sinonimlari taqillatish darajasi har xilligini ifodalaydi.

Ma'nodosh so'zlarning qo'llanishiga ko'ra quyidagi turlari mavjud.

Uslubiy sinonimlar ma'lum bir uslubda qo'llanib, boshqa uslubda qo'llanmasligi bilan bir-biridan farq qiladi. Masalan, keldi, tashrif buyurdi uslubiy

sinonimlaridan tashrif buyurdi soʻzi kitobiy uslubdagina ishlatiladi; koʻklam, bahor, oftob, quyosh sinonimlaridan koʻklam, oftob soʻzlari oʻrnida ilmiy uslubda koʻproq bahor, quyosh soʻzlari ishlatiladi.

Sinonimlarning yana bir turi **frazeologik birlik** boshqa bir frazeologik birlikka sinonim boʻladi. Masalan, qoʻlni yuvib qoʻltiqqa urish – xafsalasi pir boʻlish; kayfi uchib ketdi – yuragi yorilayozdi.

Frazeologik birliklar bilan soʻzlar sinonim boʻladi; esi chiqib ketdi – qoʻrqdi, yogʻ tomsa yalaguday - top - toza, lom - mim demadi - gapirmadi, indamadi.

Sinonimlarning yana bir turi - Grammatik sinonimlar boʻlib, ular morfologik va sintaktik sinonimlarga ajratiladi. Hozirgi zamon davom feʼlini hosil qiluvchi - yapti, -(a) tir, - moqda qoʻshimchalari morfologik sinonimlardir. Kuz shamoli, kuzgi shamol, ishni boshlash, ishga kirishish; inshoni oʻqish, inshodan oʻqish kabi soʻz birikmalari; xat yozdim, xat yozildi kabi gaplar sintaktik sinonimlar hisoblanadi.

Lugʻaviy, uslubiy, frazeologik va grammatik sinonimlar barchasi birgalikda maʼnodoshlik hodisasini yuzaga keltiradi.

Soʻzlar kabi qoʻshimchalar ham maʼnodoshlik xususiyatiga ega. Demak, sinonim qoʻshimchalar vazifasi bir xil boʻlgan qoʻshimchalar doirasida, yaʼni soʻz yasovchi yoki shakl yasovchi qoʻshimchalar doirasida boʻladi: bexabar – xabarsiz (- be va - siz sifat yasovchi); edir – egiz (- dir va – giz orttirma nisbat yasovchi qoʻshimcha). Sifat yasovchi – li, - dor, - ser, - ba qoʻshimchalari oʻzaro sinonim; savlatli, savlatdor, sersavlat, basavlat.

3. Tilimizda tovush tomoni bir xil boʻlib, turlicha maʼnolarini ifodalovchi soʻzlar va qoʻshimchalar mavjud. Bunday soʻz va qoʻshimchalarning omonimlar (lotincha “homos” «bir», opima «nom» yoki shakldoshlar deyilishidan xabaringiz bor. Masalan, soz – puxta, maʼqul; soz – cholgʻu asbobi; soz – inoq, oʻzaro yaqin; chang – toʻzon, chang – musiqa asbobi v.h. Bunday omonimlar har bir turkum doirasida grammatik shakllar bilan shakllanganda ham oʻzaro omonim boʻlib kelaveradi. Masalan, ot (ism) va ot (ish hayvoni) omonimlari ot + lar + im + ning, ot + lar + ingiz + dan. Bu omonim soʻzlar har xil leksik maʼno ifodalasa ham, ot turkumiga oidligi uchun otlarga xos har qanday grammatik shaklda oʻzaro omonimlik munosabatda boʻladi. Shuningdek, feʼl soʻz turkumiga kiruvchi tortmoq, yozmoq, chopmoq omonimlari ham feʼlga xos har qanday grammatik shaklda, mayl va shaxs son shakllarini qabul qilganda ham omonimlik munosabatini saqlaydi. Omonimlarni yuzaga keltiruvchi hodisalar turlicha boʻlib, ular quyidagilar.

1. Aslida har xil talaffuzli, fonetik tuzilishi farqli boʻlgan soʻzlarning bir xil talaffuz etiladigan boʻlib qolishi natijasida omonimlar yuzaga keladi. Masalan, ot (ism) va ot (hayvon), shuningdek, oʻt (oʻt-oʻlan) va oʻt (olov) omonimlarining o va oʻ unlilari aslida farqli talaffuz etilgan. Hozirgi adabiy tilda esa bularning talaffuzi bir xil. Oʻzbek tilining ayrim shevalarida ot (ism) dagi o unlisi bilan ot (hayvon) dagi o unlisi, shuningdek, oʻt (oʻt – oʻlan) dagi oʻ unlisi bilan oʻt (olov)dagi oʻ unlisi hozir ham farqli talaffuz etiladi. Demak, bu shevalarda ular omonim hisoblanmaydi.

2. Soʻzlarning maʼnoviy taraqqiyoti omonimlarni vujudga keltirishi mumkin. Bu hol koʻp maʼnoli soʻz maʼnolari oʻrtasidagi bogʻlanishning yoʻqolishi natijasida boʻladi. Bunda soʻzning shakli oʻzgarmay qolishi tufayli omonim yuzaga keladi.

Masalan, dam (nafas), dam (bosqon), dam (hordiq) omonimlari xuddi shunday usulda yuzaga kelgan.

3. Omonimiyaga olib keluvchi asosiy hodisalardan biri birdan ortiq soʻzning talaffuz jihatdan tasodifan mos kelib qolishidir. Bu hol, asosan oʻzga tillardan soʻz oʻzlashtirish natijasida sodir boʻladi. Bunda oʻzlashma soʻz bilan oʻz tilimizdagi soʻz yoki turli tillardan oʻzlashgan soʻzlar oʻzaro talaffuzi jihatidan bir xil boʻlib qoladi. Masalan, tojikcha bogʻ (daraxtlardan hosil qilingan maydon) bilan oʻzbekcha bogʻ (bogʻlaydigan narsa, bogʻlashdan hosil boʻlgan tugun), shuningdek, italyancha banka (pul bilan muomala qiluvchi tashkilot va polyakcha banka idish) kabi.

Shuningdek, tilimizda qoʻshimchalar oʻrtasida ham shakldoshlik munosabatlari mavjud. Masalan, - chi qoʻshimchasi soʻz yasovchi qoʻshimcha (ishchi, suvchi) hamda yuklama (sen – chi, ayt – chi) maʼnolariga ishlatiladi. Shunga koʻra omonimlar lugʻaviy (leksik) omonimlar hamda affiks omonimlarga boʻlinadi.

Lugʻaviy omonimlar nutq jarayonida soʻz uyini uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, zakiylik sanʼatida ulardan oʻrinli foydalanish askiyachilarning mahorati sanaladi.

Oʻzbek tilida leksik omonimlar koʻp ishlatilganligi sababli, u maxsus sheʼriy janr – tuyuqqa ham asos boʻlib xizmat qiladi.

Omonim affikslar shaklan bir xil, lekin maʼnosi butunlay boshqa – boshqa boʻlgan qoʻshimchalardir. Bularga:

1. Soʻz yasovchi – ki qoʻshimcha: turtki (ot), kechkilar (sifat);
2. Shakl yasovchi – (i) sh qoʻshimchasi; oʻqish (harakat nomi), yuvish (birgalik nisbatan);
3. Soʻz yasovchi va forma yasovchi – im qoʻshimchasi; oʻrim (ot), qoʻlim (egalik qoʻshimchasi).
4. Soʻz yasovchi qoʻshimcha – ma qoʻshimchasi: suzma (ot), yasama suzma (sifat), borma (feʼl).

4. Biz oʻzimizni qurshab turgan olamni sezgi aʼzolarimizning bosh miyamizga bergan axboroti yordamida bilib boramiz. Bilish jarayonida narsa va hodisalarni, harakat –holatlarni, belgi va xususiyatlarni bir – birga zidlash, ularning oʻzaro oʻxshash va farqli tomonlarini aniqlash katta ahamiyatga ega.

Oʻzaro zid maʼnoli soʻz va qoʻshimchalarga antonimlar deyiladi. Antonimlar tuzilishiga koʻra ikkiga boʻlinadi. 1. Soʻz antonimlar. 2. Affiks antonimlar.

Nutqimizda lugʻaviy antonimlardan foydalanish fikrimizni taʼsirli ifodalashda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, badiiy adabiyotda zid maʼnoli soʻzlarni bir – biriga zidlash asosida badiiy sanʼat hosil qilinadi. Bunday sanʼatga tazod sanʼati deyiladi.

Oʻzbek tilida affiks antonimlar juda kam. – li va siz, ba – be, li – be, qoʻshimchalarini olsak, ularni bilimli – bilimsiz, borakali – bebaraka, nuqsonli – benuqson kabi soʻzlarda koʻrishimiz mumkin.

Soʻzlarning oʻzaro antonimik munosabat hosil qilishi maʼnodagi zidlik asosida boʻlar ekan, bu hodisa, sinonimlardagi kabi, faqat bir turkumga oid soʻzlar doirasi bilan cheklanadi; kun – tun, qish – yoz; doʻst – dushman, katta – kichik, uzoq – yaqin, boshlamoq – tugatmoq va hokazo.

Har qanday soʻz oʻzaro antonimik munosabatga kirishavermaydi. Shunday boʻlishi tabiiy, chunki juda koʻpgina narsa – hodisalar oʻzining ziddiga ega emas. Qarama – qarshi juftiga egalik hodisasi koʻproq narsa – hodisalarning belgisida

kuzatiladi. Shuning uchun ham antonimiya asosan belgi bildiruvchi soʻz (sifat va ravishlar) da uchraydi. Ot va feʼl turkumidagi sanoqli darajadagi atamalar ham ularning belgilaridagi zidlik asosida yuzaga keladi.

Undosh soʻzlar deganda bir jinsdagi narsa, belgi, harakatning har xil koʻrinishlarini atovchi soʻzlar qatori tushuniladi. Chunonchi, otning turlarini atab keluvchi aygir, baytal, biya, qulun, toy, gʻoʻnan, dunan, saman, turiq, qorabayir, bedov kabi soʻzlar; daraxt turlarini atovchi chinor, tol, terak, mirzaterak, baqaterak, oq terak, koʻk terak, majnuntol, qayragʻoch, sada archa, qayin, gujum; qovun turlarini atovchi amiriy, sherozi, koʻkcha, qizil urugʻ, boʻrikalla, barginoy; rang turlarini ifodalovchi koʻkish, qizgʻish, qoramtir, oqimtir kabi soʻzlar; harakatni ifodalovchi sudralmoq, emaklamoq, siljimoq, elamoq, uchmoq; kulimsiramoq, jilmaymoq, xo-xolamok, kabi tilimizning minglab durdonalari uyadosh soʻzlar katoriga kiradi. Ona tilini oʻqitish oldida turgan asosiy vazifalardan biri mana shunday soʻzlar xazinasini oʻquvchilar mulkiga aylantirishdan iboratdir.

Tekshirish uchun savollar:

1. Soʻzlar shakl va maʼno munosabatiga koʻra qanday turlarga boʻlinadi?
2. Omonim soʻzlar qanday soʻzlar?
3. Maʼnodosh soʻzlar qanday soʻzlar hisoblanadi?
4. Qanday soʻzlarni uyadosh soʻzlar deymiz?
5. Qarama-qarshi soʻzlar qanday hosil boʻladi?

Tayanch tushunchalar:

Maʼnodosh soʻzlar, shakldosh soʻzlar, uyadosh soʻzlar, zid maʼnoli soʻzlar—soʻzlarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlari.

Darsning mavzusi: Oʻzbek tili leksikasida oʻz va oʻzlashgan qatlam.

Dars rejasi:

1. Hozirgi oʻzbek tili leksikasi.
2. Oʻzbek tili leksikasida oʻz va oʻzlashgan qatlam.
3. Ularning oʻzbek adabiy tiliga taʼsiri.

Adabiyotlar:

1. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M. va boshqalar. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. T., 120-124 betlar
2. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi oʻzbek adabiyoti tili. T., 1990y 173-180 betlar.
3. Mirzayev M.. Oʻzbek tili. T.,
4. Rafiyev A., Dalimov U., Xudoyberdiev J. Oʻzbek tili va adabiyoti. T., 1998y 67-69 betlar.
5. Maʼruza matnlari. (Boshlangʻich taʼlim usuliyoti va oʻzbek filologiya fakultetlari uchun) 2001y.

Har bir til, asosan, oʻz lugʻat boyligi va grammatik koʻrilishi asosida oʻz taraqqiyot qonunlari asosida oʻsib, takomillashib boradi. Tillarning bir-biri bilan

o'zaro aloqasi natijasida bir til ikkinchisini boyitadi. Xalqlar orasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar natijasida bir til ko'rilishiga xos birliklar ikkinchi tilga kirib boradi, shu tilga singib, uning o'z birligiga aylanib etadi. Shu nuqtai-nazardan yondashib hozirgi o'zbek tili lug'at boyligi ikkita katta qatlam ajratiladi: 1) o'z qatlam; 2) o'zlashgan qatlam.

O'z qatlam deganda aslan shu tilniki bo'lgan leksimalar va shular asosidagi yasaliishlar, shuningdek, o'z affiks bilan boshqa til leksimalaridan yasaliishlar tushuniladi.

O'zbek tili lug'at boyligidagi eng qadimgi qism umumturkiy leksimalardan iborat. Bunday leksimalar ko'pchilik turkiy tillarda hozir ham ishlatiladi. Bunday so'zlarga quyidagi so'z turkumlaridagi so'zlar kiradi Masalan: otlardan tosh, tog', yer, bosh, suv, til, qul, bola;

Sifatlarda: oq, qora, qizil, ko'k, sariq, yaxshi;

Sonlar: bir, ikki, uch, besh, olti, yetti, yuz;

Olmoshlar: men, sen, u, biz, bu, shu;

Fe'llar: kel, ol, bor, tur, qara;

Ravishlar: ildam, erta, indin, ilgari va boshqalar.

Hozirgi o'zbek tili lug'at boyligida, ko'pchilik turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan qismdan tashqari, o'zbek tilining o'z mustaqil taraqqiyoti natijasida paydo bo'lgan qism ham mavjud, albatta. Bir tomondan, o'zbek tilining o'z doirasidagi, yangi-yangi yasaliishlarda ko'rsak, ikkinchi tomondan, leksimalarning leksik ma'no taraqqiyoti natijalarida ko'ramiz. Masalan, boshlang'ich, belgili, yozuvchi, yo'llanma, topshiriq, yuqumli (kasal), yutuqli (omonat), yonilg'i, yoqilg'i kabi leksimalar o'zbek tili manbaida voqe bo'lgan yasaliishlardir. Bular – o'zbek tilining o'z imkoniyatlari bilan yasalgan yangi leksimalardir.

O'zbekcha so'zlarning asosiy leksik qismini o'zbek tilining rivojlanishi jarayonida o'z ichki imkoniyatlari, o'ziga xos qonun-qoidalari asosida yasalgan so'zlar tashkil etadi. Bular:

- 1) asli o'zbekcha so'zlardan shu tilga oid affikslar yordamida yasalgan so'zlar; qatnashchi, terimchi, birlashma, qatnashma, qo'llanma, o'tkazgich, turg'un, terma, to'lqinlanmoq, bolalarcha kabi.
- 2) O'zlashma so'zlardan o'zbek tili vositalari yordamida hosil qilingan so'zlar: a) tojikcha so'zlardan yasalgan so'zlar: jangchi, mardlik, sabzavotchilik, charxlamoq, xastalanmoq, do'stlik, qo'lsiz; b) arabcha so'zlardan yasalgan so'zlar: rahbarlik, qimmatli, shifolamoq, ovqatlanmoq, qahrlanmoq, nifoqchi, nomusli; v) ruscha so'zlardan yasalgan so'zlar: sportchi, razvedkachi, shofyorlik.
- 3) boshqa tillardan o'tgan yasovchi vositalar yordamida o'z va o'zlashma so'zlardan hosil qilingan so'zlar: tilshunos, madadkor, mehnatkash, chizmakash, kitobxon, gazetxon, ilmiy, betonlamoq.

O'zlashgan qatlam

O'zbek tili o'tmishda qardosh bo'lmagan juda ko'p tillar bilan o'zaro aloqada bo'ldi va bu tillardan o'zbek tiliga ma'lum miqdorda so'zlar o'zlashdi. Tadrijiy jihatdan leksima o'zlashtirishdagi eng qadimgi manbalar deb fors, tojik, arab tillari ko'rsatiladi. Rus tilidan leksima o'zlashtirish bularga nisbatan ancha keyingi vaqtlarda sodir bo'la boshlagan.

O'zbek xalqi juda qadimdan tojiklar bilan qo'shni yashab, iqtisodiy madaniy aloqada bo'lib kelgan. Bu har ikki til taraqqiyotiga ham ta'sir qilib, tojik tiliga o'zbek tilidan, o'zbek tiliga tojik tilidan so'zlar o'zlashgan.

1. O'zbek tiliga tojik tilidan o'zlashgan so'zlar: jangchi, xasta, do'st, bahor, baho, daraxt, gul, mirob, dasta, bemor, g'isht, xonadon, shogird, xaridor, serob, mehribon, kamtar, agar, osmon, oftob, barg, xona, shamol, dasht, shirin, mard, jonajon, kamtar, kam, chala, balki, ham, kabutar, dil, jon, dard, gul, charx, sabzavot va boshqalar.

2. O'zbek tiliga arabcha so'zlarning kirib kelishi O'rta Osiyoni arablar bosib olishi bilan bog'liq. O'rta Osiyoni arablar zabt etgach, mahalliy aholiga islom dini joriy qilindi. Arab tili davlat va ilm-fan tili sifatida qo'llanildi: Natijada arabchadan: qimmat, ovqat, nomus, maorif, millat, mutolaa, madaniyat, kitob, adabiyot, aholi, fan, inson, avlod, xalq, shoir, ma'no, ilhom, san'at, tanqid, kashf, a'lo, odob, xat, savod, amal, oila, inson, husn, nutq, soat, avlod savol, rahbar, shifo, qahr, nifoq va boshqalar.

3. XIX asrning ikkinchi yarmidan O'rta Osiyoni Rossiya bosib oldi. Rossiyada chiqadigan gazeta, jurnallar O'rta Osiyoga kirib kela boshladi, rus maktablari ochildi. XX asrning boshlaridan boshqaruv idoralarida asosan rus tilida so'zlashuvchi kishilar xizmat qila boshladilar. Rasmiy ish qog'ozlarining ko'pchiligi rus tilida olib borildi. Natijada rus tili va rus tili orqali o'zbek tiliga so'z o'zlashtirish kuchaydi.

Ruscha so'zlar: brigada, agronom, traktor, kolxoz, sovxoz, kino, leksiya, televizor, kosmos, aktiv, passiv, konsert, radio, sport va hokazo.

Yunonchadan: gips, dialekt, kafedra, fizika, grammatika, planeta, morfologiya.

Lotinchadan: deputat, rektor, dekan, ekskursiya, konstitutsiya.

Polyakchadan: polkovnik, rota, metrika.

Nemischadan: soldat, ofitser, gastrol, shtab, kater, shturman.

Fransuzchadan: kabinet, kapitan, general, desant, repertuar.

Inglizchadan: vokzal, tramvay, miting, futbol, voleybol, boks, tort, byudjet, kross.

Italyanchadan: opera, benzin, bank, bronza, karnaval kabilar.

Bir tilidan boshqa tilga, jumladan boshqa tillardan o'zbek tiliga so'z o'zlashishi yozma manba yoki og'zaki nutq orqali bo'ladi. Masalan, arabcha o'zlashmalarning ko'pchilik qismi yozma manbalar orqali o'tgan. Tojikcha so'zlarning o'zlashishida esa og'zaki nutq ham muhim rol o'ynagan. Chunki o'zbeklar qadimdan faoliyatning barcha sohalarida tojiklar bilan bevosita aloqada bo'lib kelgan.

O'zlashtirish asosan ikki usul bilan amalga oshgan 1) so'z aynan olinadi. 2) kalkalash orqali. Tojikcha, arabcha, ruscha so'zlar aynan o'zlashtirilgan.

Kalkalab o'zlashtirishda so'zning o'zi emas, balki uning ma'nosi o'zlashtiriladi.

O'zbek tili taraqqiyotining, xususan, lug'at boyligi ikki yo'l bilan boyishi kuzatiladi.

1. Ichki imkoniyatlar asosida.

2. Tashqi omillar ta'sirida.

I. Ichki imkoniyatlar asosida so'z boyligining oshishi quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

1. Tilda mavjud soʻzning yangi maʼno kasb etishi orqali: botir (kishi) -botir (turdosh ot) –botir (atoqli ot).
2. Yangi soʻzlar orqali: a) asl oʻzbekcha soʻzlardan: ishchi, osma, xalqaro;
b) oʻzlashma soʻzlardan til vositalari yordamida: nomusli, mardlik, sportchi.
3. Xalq shevalaridan soʻzlar olish orqali: kosa, chelak, tovoq.
4. Tarjima qilish asosida: chizmakash, muzyorar, ultratovush.

Til taraqqiyotiga taʼsir etuvchi tashqi omillar jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy oʻzgarishlariga oid boʻlib, bular orqali boshqa tillardan yangi tushunchalarni ifodolovchi soʻzlar aynan yoki oʻzlashtirilib olinadi: Masalan:, pyesa, darslik.

Mustahkamlash uchun savollar.

1. Oʻzbek tili leksikasi qanday yoʻllar bilan boyib boradi?
2. Oʻz qatlam deganda nimalarni tushunasiz?
3. Oʻzlashgan qatlam deganda nimalarni tushunasiz?
4. Ichki imkoniyatlar asosida soʻz boyligini oshirilishining qanaqa yoʻllari bor?
5. Tojik tilidan oʻzlashgan soʻzlarga misollar ayting?
6. Arab tilidan oʻzlashgan soʻzlar haqida va ularga misollar keltiring?
7. Rus va rus tili orqali oʻzbek tiliga kirib kelgan soʻzlar haqida gapiring?
8. Oʻz va oʻzlashgan soʻzlarning oʻzbek tili leksikasiga taʼsiri qanday seziladi?

Tayanch iboralar:

Leksika oʻz va oʻzlashgan qatlam, ichki imkoniyat, tashqi imkoniyat, kalkalash orqali.

Test savollari.

4. Oʻzbek tilida qanday soʻzlar oʻzlashgan soʻzlar hisoblanadi?
A) Turkiy tillar uchun umumiy boʻlgan soʻzlar
V) Shevalardan olingan soʻzlar
S) Qardosh boʻlmagan tillardan olingan soʻzlar
D) Boshqa tilda ishlatiladigan oʻzbekcha soʻzlar
E) Barcha yangi soʻzlar
2. Oʻzbek tili leksikasining ichki imkoniyatlar asosida boyish manbalarini belgilang.
A) Oʻzbek tili soʻz yasash usullari asosida yangi soʻz yasash
V) Yaqin munosabatda boʻlgan xalqlar tilidan bevosita soʻz olish
S) Xalq shevalaridan soʻz olish.
D) A va S
E) A, V, va S
3. Qaysi qatordagi jarayon chetdan soʻz oʻzlashtirish hisoblanmaydi?
A) Oʻzbek tiliga fors-tojik tillaridan soʻz olish
V) Arab tilidan soʻz oʻzlashtirish
S) Turli shevalarda soʻz oʻzlashtirish
D) Rus tilidan soʻz olish
E) Baynalminal soʻzlarni oʻzlashtirish
4. Umumxalq ishlatiladigan soʻzlar, oʻz va oʻzlashgan soʻzlar til fanining qaysi boʻlimida oʻrganiladi?
A) Fonetikada
V) Leksikologiyada
S) Grammatikada

- D) Leksikografiyada
E) Grafikada
5. O'zbek tiliga arab tilidan o'zlashgan so'zlardan iborat qatorni aniqlang.
A) Ijod, hikmat, lug'at
V) o'rda, kamtar, mirshab
S) maktab, pichoq, bahor
D) g'isht, peshona, dono
E) o'rmon, o'g'il, etak
6. O'zbek tiliga tojik tilidan o'zlashgan so'zlardan iborat qatorni aniqlang
A) aholi, fan, inson, dil
V) osmon, millat, savod
S) ilhom, amal, balki
D) shamol, oftob, shogird, gul
E) shogird, kitob, ovqat, xalq
7. Faqat rus tilidan o'zlashgan so'zlar qatorini belgilang
A) Brigada, kino, traktor, kolxoz
V) Polkovnik, kosmos, rektor, shtab
S) Leksiya, general, soldat
D) Bank, bronza, opera, benzin
E) Kino, televizor, dekan, fizika
8. Yunon va ingliz tilidan olingan so'zlar qatorini aniqlang.
A) Grammatika, soldat, kabinet
V) Tort, general, rota
S) Radio, ekskursiya, ofiser
D) Kafedra, fizika, futbol, tort
E) Byudjet, tramvay, sport, bank

MAVZU: Tarixiy jihatdan o'zbek tili leksikasi.

Darsning rejasi:

1. Tarixiy jihatdan o'zbek tili leksikasi haqida.
2. Istorizmlar.
3. Arxaizmlar.
4. Neologizmlar.

A D A B I Y O T L A R:

1. Shoabdurahmonov Sh. Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T. 1981. 124 – 127 betlar.
2. Mirzayev M. O'zbek tili. T. 43 – 45 betlar.
3. Tursunov U., Muxtorov J. Hozirgi zamon o'zbek tili. T. 1992 y. 151 –164 betlar.

Tilning taraqqiyoti jarayonida uning barcha sohalari ma'lum o'zgarishlar yuz beradi. Bunday o'zgarishlar ayniqsa, uning leksikasi uchun juda xosdir. Bunda, birinchidan, tildagi ayrim so'zlarning eskirishi, iste'moldan chiqib ketishi kuzatilsa, ikkinchidan, tilda yangi so'zlarning paydo bo'lishi kuzatiladi.

Bu ikkala hodisa ham ma'lum ob'yektiv sabablar asosida ro'y beradi.

Hozirgi adabiy til nuqtai nazaridan eskirgan soʻzlar jami eski qatlam (tarixiy soʻzlar) yangi soʻzlarning jami yangi qatlam (neologizmlar) deyiladi.

Bu ikki qatlamdan tashqari lugʻat tarkibida oʻzbek adabiy tili uchun odatdagi, eskilik yoki yangilik boʻyogʻiga ega boʻlmagan soʻzlar qatlami ham bor. Bu qatlam zamonaviy qatlam (neytral qatlam) deyiladi. Demak, tarixiy nuqtai nazaridan oʻzbek tili leksikasi uch asosiy qatlamga boʻlinadi.

1. Zamonaviy qatlam (zamonaviy leksika).
2. Eski qatlam (eski leksika).
3. Yangi qatlam (yangi leksika).

ZAMONAVIY QATLAM:

Oʻzbek tili leksikasining asosini shu qatlamga oid soʻzlar tashkil etadi. Zamonaviy leksika koʻp hollarda umum isteʼmoldagi leksika yoki faol leksika tarzida ham taʼriflanadi. Toʻgʻri bu qatlamga oid soʻzlarning koʻpchiligi umumiy isteʼmolga oid faol soʻzlar boʻladi. Lekin u yoki bu soʻzlar zamonaviy qatlamga oidligini uning umum isteʼmolda boʻlishi yoki faol qoʻllanishi bilangina belgilanmaydi. Boshqacha aytganda, bu belgilari boʻlmagan soʻzlar ham zamonaviy qatlamga oid boʻlishi mumkin. Masalan: Terminologik leksikaga oid soʻzlarning isteʼmol doirasi chegaralangan. Lekin terminlarning (eski va yangilardan boshqa) hammasi zamonaviy leksika hisoblanadi.

Shuningdek, ayrim soʻzlar maʼlum usulga oid boʻlib, faol soʻzlar qatoriga kirmaydi. Lekin ular na eskilik, na yangilik boʻyogʻiga ega emasligidan zamonaviy leksikaga mansub boʻladi. Demak, eskilik yoki yangilik boʻyogʻiga ega boʻlmagan soʻzlar zamonaviy leksikani (zamonaviy qatlamni) tashkil etadi.

ESKI QATLAM:

Eski qatlamga oid soʻzlar asosiy farqli xususiyatlariga koʻra ikki turga boʻlinadi:

1. Tarixiy soʻzlar yoki istorizmlar.
2. Arxaik soʻzlar yoki arxaizmlar.

ISTORIZMLAR:

Tarixga oid (hozirgi kunda yoʻq) narsa – hodisalarni bildiruvchi soʻzlardir. Maʼlum davrlarda bor boʻlgan, ayrim narsa – hodisalar jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida yoʻq boʻlishi, oʻtmishi hodisasiga aylanishi mumkin. Shu bilan bogʻliq holda bunday narsa – hodisalarning atamasi boʻlgan soʻzlar ham tarixiylik kasb etadi, yaʼni tarixiy soʻzga aylanadi.

Masalan: sovut, omoch, qozi, charx, amir, bek. Istorizmlar lugʻaviy birliklar doirasida uchraydi. Shunda ham koʻpchilikni leksik istorizmlar tashkil qiladi. Frazologik istorizmlar juda oz. Bunday istorizmlar sifatida peshonasi shoʻr, tagi past iboralarini keltirish mumkin.

Istorizmlar oʻtmish voqealarini tasvirlovchi asarlarda qoʻllaniladi. Masalan: Gulnor – choʻri qiz.

Tarixiy soʻzlar ikki gruppaga ajratiladi:

- A) tarixiy soʻzlar (istorizmlar.).
- B) arxaizmlar.

Baʼzi soʻzlar til taraqqiyoti jarayonida turli xil narsa hodisalarni ifodalaydigan boʻlishi – yangi maʼno yoki maʼnolar kasb etishi mumkin. Bu soʻzlar bildiradigan

narsalardan birortasi tarixiy fakt bo'lishi lozim. Demak, bunday so'zlarning biror ma'nosi istorizm bo'lib, qolgan ma'nosi zamonaviy so'z hisoblanadi. Masalan: boy so'zining birinchi gap bilan keyingi gaplarda ifodalaydigan ma'nolarini qiyoslang. Masalan:

1. Iskandar havas va taajjub bilan binolarga, boy jihozlarga nazar tashlab qo'yardi.
2. Xonandalar uchun tuzib boshqa joy,
Dasturxonlar bo'lib mevalarga boy.

ARXAIZMLAR:

Hozirda mavjud narsa – hodisalarning eskirib, qolgan atamaları arxaizmlar deyiladi. Masalan: ulus (xalq), lang (cho'loq). So'zlarda sinonim hodisasi eskirgan so'zlar arxaizmlar hisoblanadi. Bunda hozirgi hayotda mavjud bo'lgan narsani anglatadigan kamida ikki so'z bo'lib, biri aktiv qo'llanadi. Boshqalari esa eskirgan so'zlar bo'lgani uchun, ayrim uslubli maqsadlarda qo'llanadi. Masalan: dudoq (lab), umiz (ko'krak).

Arxaizmlar ikkiga bo'linadi:

1. Leksik arxaizmlar - gulgun, siymo.
2. Uslubiy arxaizmlar - davlat, bagir.

Arxaizm va istorizm o'zaro keskin farq qiladi. Bular:

1. Arxaizm – mavjud voqealikni nomi. Istorizm – o'tmish voqealikni nomi.
2. Arxaizm mavjud voqealikning boshqa bir o'zgacha nomi. Istorizm esa o'tmish voqealigining nomi.
3. Arxaizm o'zi nomlayotgan voqealikni anglatuvchi lug'aviy birlik bilan yonma – yon yashaydi. Istorizm esa o'zi anglatgan o'tmish voqealigining yagona nomi bo'ladi.
4. Arxaizm tilning tasvirlanayotgan davri lug'atga xos bo'lmaydi. Balki o'tmish lug'atiga xos birlikdan vaqtincha foydalanish voqe bo'ladi.
5. Arxaizm lug'aviy birliklarining o'zaro ma'no munosabati bilan bog'liq holda baholanadi. Istorizm esa bu yo'q.
6. Arxaizm bugungi kunda odatdagi deb qaraluvchi lug'aviy birlikning uslubiy sinonimi bo'ladi. Metarizm bunday holat yo'q.
7. Arxaizm sinonimiya bilan bog'liq bo'lgani sababli bir sinonimik qatorga mansub hodisalarning qiyosiga asoslanadi, nutqda shu sinonimlardan eng o'rinlisi tanlab ishlatiladi. Istorizm esa yakka bo'ladi.
8. Arxaizm, nominativ vazifadan davrni gavalantirish vazifasidan tashqari, uslubiy figura bo'lib xizmat qiladi. Bu vazifa arxaizmnining lug'at boyligida saqlanib turishga asosiy sabablardan biri. Istorizm bu odatda uslubiy figura bo'lib kelmaydi.
9. Arxaizmnining paydo bo'lishi lug'aviy birliklarning yangicha uslubiy munosabatga kirishuvi bilan bog'liq. Bunday munosabat natijasida lug'at hech narsa yo'qotmaydi.
10. Istorizm esa lugatdan ma'lum birliqning tushib qolishi hodisasidir, voqealikning yo'qolishi shu voqealikning nomi bo'lgan lug'aviy birlikni keraksiz qilib qo'yadi.
10. Arxaizm har bir til uchun xususiy bo'ladi. Istorizm esa tillararo ma'lum umumiylik borligi ko'zga tashlanadi.

11. Arxaizm asosan tilning o'z taraqqiyot qonunlari bilan izohlanuvchi hodisadir: bunday izoh til sistemasining o'ziga asoslanishi kerak. Istorizm esa birinchi galda jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, madaniy taraqqiyoti tarixiga ko'ra izohlanadi.

12. Arxaizm va istorizmning lugat boyligiga odatdagi lug'aviy birlik sifatida qaytishi juda oz uchraydi. Shunda ham arxaizmning qaytishi bilan istorizmning qaytish mohiyati jihatidan keskin farq qiladi: arxaizm faqat eskilik bo'yog'ini yo'qotadi-yu, odatdagi lug'aviy birlikka aylanib ketadi, leksik ma'noda katta o'zgarish sodir bo'lmaydi.

Istorizmning qaytishida esa uning leksik ma'nosi tubdan o'zgaradi, lug'aviy birlik ma'no jihatidan yangilanadi.

NEOLOGIZMLAR:

Yangi bo'yog'i bor til birligi neologizmdir. Neologizm tilga umuman mansub bo'lishi, shuningdek, yakka shaxs nutqiga xos bo'lishi mumkin. Birinchi, umumtil neologizmi deb, ikkinchisi individual nutq neologizmi deyiladi.

Leksikologiyada asosan, umumtil neologizmi o'rganiladi. Individual nutq neologizmi esa uslubga xos hodisa deb qaraladi.

Yangilik bo'yog'ini yo'qotgan so'z hech qachon paydo bo'lganidan qat'i nazar, yangi qatlamdan zamonaviy qatlamga o'tadi. Yangi qatlamga oid so'zlar (neologizmlar) zamonaviy qatlam va eski qatlamga oid so'zlarga nisbatan juda oz miqdorni tashkil etadi. O'zbek tili lug'at tarkibidagi eski va yangi so'zlar passiv so'zlar deb ham ta'riflanadi. Bunday so'zlar zamonaviy qatlamdagi so'zlarga nisbatan kam qo'llanadi. Lekin aktivlik va passivlik so'zlarning qo'llanish chastotasiga ko'ra belgilanadi.

Neologizmlar lug'at birligi doirasida ham, grammatik hodisalar doirasida ham mavjud. Shunga ko'ra neologizmlar ikki turga bo'lingan.

1. Lug'aviy neologizm – lug'aviy birliklardagi turi.

2. Grammatik neologizm – grammatik hodisadagi turi.

Tilda juda oz uchraydi. Bunday neologizmlar asli grammatik ma'no ifodalovchi qo'shimchalar doirasi bilan cheklanadi. Chunki bular butun grammatik ko'rilishga xos. So'z yasovchilar ham (morfema sifatida) grammatik hodisalar jumlasiga kiritiladi.

Grammatik neologizm ko'pincha so'z yasovchilarga to'g'ri keladi. Masalan: -qa, -izm, -ist qo'shimchalari hozirgi o'zbek adabiy tilining yaqin o'tmishi uchun neologizm bo'lib, hozir yangilik bo'yog'i yo'qolgan yoki yo'qolib borayotir.

LUG'AVIY NEOLOGIZMLAR:

1. Frazelogik neologizmlar iboralarning bir turi. Bu juda oz. O'zbek tilida bunday neologizmlarga «ruhiga kirmoq», «a» desa, «b» demoq kabi iboralarni ko'rsatadi.

2. Leksik neologizmlar - so'zlardagi turi. Leksik neologizm o'z mohiyatiga ko'ra ikki gruppani tashkil qiladi.

a) so'z yaxlitligicha neologizm bo'ladi; b) so'zning o'zi emas, balki uning leksik ma'nolaridan biri neologizm bo'ladi.

Neologizm so'z va neologizm ma'no ham bir hodisadir. Chunki har ikkalasi ham so'zning leksik ma'nosiga asoslanadi.

Birinchisi bir ma'nolilik bo'lsa, ikkinchisi ko'p ma'nolilik so'zning yangi ma'nosi bo'ladi.

Neologizm ikki xil talab asosida paydo bo'ladi.

1. Yangi voqealikning yangi nomi sifatida. Bunda neologizm o'zi anglatayotgan voqealikning yagona nomi bo'ladi, sof nominativ vazifani o'taydi. Masalan: konfliktsizlik (adabiyot termini).
2. Nomlangan voqealikning yangi nomi bo'ladi. Bunda o'zgacha nomlangan voqealikni yangitdan nomlaydi, natijada sinonimiya tug'iladi.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. Tarixiylik jihatdan o'zbek tili leksikasi deganda nimani tushunasiz?
2. Istorizmlar, arxaizmlar va neologizmlar bir – biridan qanday farq qiladi?
3. Istorizm, arxaizm, neologizmlarning o'zbek tili leksikasidagi rolini sharhlab bering.

TAYANCH IBORALAR:

Istorizmlar - (hozirgi kunda yo'q) narsa – hodisalarni bildiruvchi so'zlar, arxaizmlar – mavjud voqealikni nomi, neologizm – yangi paydo bo'lgan so'zlar.

Mavzu: Emotsional - ekspressiv va uslubiy jihatdan o'zbek tili leksikasi.

Dars rejasi:

- 1.Emotsional – ekspressivlik jihatdan o'zbek tili leksikasi haqida
- 2.Uslubiy jihatdan o'zbek tili leksikasi

Adabiyotlar:

1. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili T., 1980y 133-136 betlar.
2. Mirzayev M. O'zbek tili. T., 45-48 betlar.

Tilning asosiy vazifasi nutqiy faoliyat bo'lsada, biroq kishilar aloqa aralashuv jarayonida ifodalayotgan fikrga o'zlarining turli tipdagi emotsional munosabatlarini ham ifoda etadilar. Tilda bularni ro'yobga chiqarish imkoniyatlari ham mavjud. Buni leksikada ham qurish mumkin: lug'at tarkibida ifodalanayotgan fikrga so'zlovchining turlicha munosabatini anglatishga xizmat qiladigan, shunga xoslangan so'zlar bor. Ana shu xoslanganlik nuqtai nazardan o'zbek tili leksikasini ikkita asosiy guruhga ajratish mumkin.

- 1.So'z ta'sirchanligi nuqtai-nazardan o'zbek tili so'z boyligi;
- 2.Uslubiy nuqtai-nazardan o'zbek tili leksikasi.

O'zbek tili lug'at tarkibidagi ba'zi so'zlar so'zlovchining turli emotsional-ekspressiv munosabatini ifodalash xususiyatiga ega, boshqalarida esa bunday xususiyat yo'q. Shu jihatdan so'zlar ikki turga bo'linadi.

1. Emotsional-ekspressiv bo'yoqsiz so'zlar
2. Emotsional-ekspressiv bo'yoqdor so'zlar

Emotsional-ekspressiv bo'yoqsiz so'zlarda, leksik ma'nodan tashqari, so'zlovchining turli munosabatini ifodolovchi qo'shimcha ma'no bo'lmaydi: avval, ayb, ayyor, bosh, kambag'al, katta, ko'karmoq, mazzali, muhtoj, ovora, ariq, urmoq,

xunuk, yuz, o'jar kabi so'zlar narsa, belgi, harakatning o'zini ifoda etadi. Bularda so'zlovchining hech qanday munosabati ifodalanmaydi. Shu sababli bu turdagi leksika neytral-leksika deb ham yuritiladi.

Emotsional-ekspressiv bo'yoqdor so'zlar narsa, belgi, harakat kabilarni atash bilan birga, so'zlovchining narsa, belgi yoki harakatga bahosini, turlicha munosabatini ham ifodalaydi. Masalan: yuqoridagi bosh, xunuk, yuz, ko'karmoq so'zlari narsa belgi va harakatning o'zini bildirgani holda ularning sinonimlari bo'lmish kalla, badbashara, chehra, o'smoq so'zlari shu narsa, belgi, harakatlarga so'zlovchining turlicha munosabatini ham ifodalaydi.

Emotsional-ekspressiv bo'yoqdor so'zlar suyish, erkalash, g'azab, kinoya, tan berish va shu kabi munosabatlarni ifodalaydi. Bu munosabat asosiy belgiga ko'ra, ikki turga bo'linadi: ijobiy yoki salbiy. Shu munosabatni ifodalashga ko'ra emotsional-ekspressiv bo'yoqdor so'zlar ham ikki turga bo'linadi.

1. Ijobiy emotsional-ekspressiv bo'yoqdor so'zlar.

3. Salbiy emotsional-ekspressiv bo'yoqdor so'zlar.

Ijobiy emotsional-ekspressiv bo'yoqdor so'zlar so'zlovchining narsa, belgi yoki harakatga bo'lgan turlicha ijobiy munosabatni ifodalaydi. Misollar:

Onam deganimda, oqsoch jafokash

Munis va mehribon chehrang namoyon (G'.G'.)

Odamni ochdan ham o'ldirmaydigan, qashshoqlikdan ham chiqarmaydigan bu kasb haqida xalq alomat gaplar to'qigan (As.M). U hamisha kulib, jilmayib turadigan mehribon chehrani ko'rmadi (M. Ism).

Salbiy emotsional-ekspressiv bo'yoqdor so'zlar so'zlovchining narsa, belgi yoki harakatga bo'lgan mensimaslik, nafrat va shu kabi salbiy munosabatni ifodalaydi. Misollar: U bir ko'ngli borib, muttaham qozining tumshug'iga tushirgisi, iflos basharisiga tupurgisi keldi. (M. Ism). Ahmad Husayn har ikkisini bir vaqtlar ko'rgan edi. Ingliz ukki ko'z, karnay burun, kampir dahan, qiltiriq bo'yin, naynov edi. (O). So'ngra yakkam-dakkam iflos tishlarini yashirgan og'zini katta ochib esnadi, go'yo uning butun badburush yuzini og'iz qopladi. (O).

So'zlarning ijobiy yoki salbiy narsa-hodisalarni ifodalashi bilan ularning ijobiy yoki salbiy ekspressiv bo'yoqqa egaligini farqlash kerak. Masalan: yaxshi, chiroyli, shirin, xursand so'zlari ijobiy xarakteridagi belgilari, ularning antonimlari bo'lgan yomon, xunuk, bemaza, xafa so'zlari salbiy xarakterdagi belgilarni bildiradi. Lekin ular ekspressiv bo'yoqqa ega emas, chunki ular salbiy va ijobiy xarakterdagi belgilarni o'zini bildirib, shu belgiga qo'shimcha tarzda so'zlovchining turli munosabatini ifodalamaydi.

Lug'at tarkibidagi so'zlar vazifadosh uslublarga befarq munosabatda bo'lishi yoki uslubning ma'lum bir turiga mansub bo'lishi mumkin. Shu nuqtai-nazardan o'zbek tili lug'at boyligi ikki turga bo'linadi:

1) uslublararo leksika

2) uslubga xoslangan leksika

Uslublararo leksika

Bu qatlamga oid so'zlarda uslubning biron turiga mansublik belgisi bo'lmaydi, shuning uchun ular uslubning barcha turlarida bab-baravar qo'llanaveradi: suv, non, qor, dala, daraxt, daryo, dengiz, o'rmon, tog', katta, kichik,

past, baland, bir, ikki ming, men, sen, bu, shu, ishla, qara, ol, avval, hozir, kecha, birdan, faqat, lekin kabi so'zlar xuddi shunday xususiyatga ega bo'lgan so'zlardir.

Uslubiy xoslangan leksika

Bu qatlamga oid so'zlar uslubning ma'lum turiga oidligi, qo'llanishi, asosan, shu uslub doirasi chegaralangan bo'lishi bilan sifatlanadi. Bu jihatdan o'zbek tili leksikaning quyidagi turlarga ajratish mumkin 1) kitobiy leksika 2) badiiy leksika 3) oddiy so'zlashuv leksikasi.

Kitobiy leksikaga publisistik, ilmiy va rasmiy ish turlarida qo'llanuvchi so'zlar kiradi:

- 1) publisistik uslubga oid so'zlar: qardoshlik, ittifoq, ilg'or, maqola, sarlavha, rubrika.
- 2) Ilmiy uslubga oid so'zlar: tenglama, uchburchak, ekvator, meridian, leksima, kesim, to'ldiruvchi.
- 3) Rasmiy ish uslubiga oid so'zlar: buyruq, talabnoma, e'lon, ariza.

Badiiy leksikaga badiiy nutqqa xos, badiylik xususiyatiga ega bo'lgan so'zlar kiradi. Misollar: Mehnat bilan topadi iqbol... (Y.Mirzo). Uning odobida, uning xulqida, insoniy kamolot mavjud, barqaror (U). Tabiatan serzavq va har narsaga qiziquvchi bo'lgan Sodiq uchun har hunar bir zavq bahsh etar, ko'nglini ko'tarar, sog'ligini saqlardi. Kundan-kunga yashnamoqda ko'rking jamolini. Bahorning fikri bulut bosgan osmonday qorong'ulashdi-yu, kuz oldini tuman qoplaydi. Yaxshi qoling, sevgan yurtu diyorim.

Oddiy so'zlashuv leksikasiga oddiy, erkin muomalada qo'llanadigan, adabiy til uchun u darajada muhim deb qaralmaydigan so'zlar kiradi; ketvorgan, qurim, qitday, mullajiring kabi.

Misollar: Uylab ko'rsam, sarqotib odamga shunday bop sovg'a yo'q ekan. Ruchkaning poshsho xoni perosi oldindan Shomakdiyevning qilig'i ma'lum; jahli chiqib, bir sanlab ketsa, uning chakagini bosish asov tuyani cho'qtirishdek mashaqqat.

Tekshirish uchun savollar:

1. So'zlovchining ifodalanayotgan fikrga munosabatini anglatishga ko'ra o'zbek tili so'zi boyligi necha guruhga bo'linadi?
2. Uslublararo leksika nima?
3. Uslubiy xoslangan leksika nima?

Tayanch iboralar:

Emotsional – ekspressiv – ta'sirchan bo'yoqdor so'zlar, leksika – so'z boyligi, bo'yoqdor va bo'yoqsiz so'zlar, uslubiy leksika.

MAVZU: Frazeologiya.

Dars rejasi:

1. Frazeologiya haqida tushuncha.
2. Frazeologizmning asosiy xususiyatlari.
3. Frazeologiyaning ma'noviy tuzilishi.

A D A B I Y O T L A R:

1. Sh. Shoabdurahmonov, A.Asqarova va boshqalar. «Hozirgi o'zbek adabiy tili». Toshkent. 1989 yil.
2. «Hozirgi zamon o'zbek tili» (ma'ruza matnlar), T, 2001, 42-44 betlar, 44-47 betlar.
3. M.Mirzayev, I.Usmonov va boshqalar. O'zbek tili. T. 1970.
4. U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev va boshqalar. «Hozirgi o'zbek adabiy tili». T. 1992. 74-78 betlar.

Biz muomala munosabatida so'z, so'z birikmasi va gaplardan foydalanamiz. Shuning natijasida foydalanayotgan fikrimiz kelib chiqadi. Ba'zi so'z birikmalari, hatto, ayrim gaplar ham bir qolipda qo'llanaverib, inson xotirasida bir butun holda saqlanuvchi, bo'linmaydigan bo'lakka aylanishi mumkin.

Masalan, peshonasi ochilgan, kapalagi uchib ketdi, dili siyoh bo'lmoq, yog' tushsa yalagudek, qo'y og'zidan cho'p olmagan kabi iboralar mavjud.

Bu tipdagi iboralar frazeologizmlar deb, ularni o'rganadigan soha frazeologiya deb yuritiladi.

Ikki yoki undan ortiq so'zdan tarkib topgan va yaxlit bir ma'no ifodalaydigan til birligi frazeologik birlik yoki frazeologizm deyiladi.

Demak, leksikologiya tilining lug'at tarkibini, frazeologiya esa frazeologik birliklarini o'rganadi. Lug'at tarkibida til birligi so'z bo'lsa, frazeologiya tarkibida frazeologizm til birligidir.

Frazeologizmlar so'z birikmasi yoki gaplar kabi nutq prosessida hosil bo'lmaydi, balki, xuddi so'zlar kabi tilda tayyor holda bo'ladi. Ular nutq hodisasi emas, til hodisasi hisoblanadi. Aravani quruq olib qochmoq, kovushini to'g'rilab qo'ymoq, sichqonning ini ming tanga, tomdan tarasha tushganday, kapalagi uchib ketdi kabi birikmalar tilda tayyor holdagi birikmalardir.

Frazeologizmlar ham, xuddi so'zlar kabi, shakl va ma'no butunligiga ega.

So'zning shakliy tomonini tovushlar hosil etsa, frazeologizmning shakliy tomonini so'zlar hosil qiladi. Masalan, rahmdil – ko'ngli bo'sh, qaradi – kuz qirini tashladi kabi.

Frazeologizm va so'z birikmasi bir xil emas. Ular bir – biridan ajralib turadi. So'z birikmasi ikki va undan ortiq mustaqil so'zdan tashkil topib, bitta murakkab tushunchani ifodalaydigan grammatik butunlikdir. Bunday butunlik nutq so'zlanib turgan paytda vujudga keltiriladi.

Frazeologizmlar esa tilda tayyor holda uchraydigan, bo'laklarga bo'linmaydigan, barchasi jamlanib bir ma'noni ifodalaydigan til birligi hisoblanadi.

2. Frazeologik iboralar, birinchidan, tilda ko'p vaqt bir qolipda ishlatilib, bo'linmaydigan holga kelib qolgan bo'ladi.

Ikkinchidan, ibora tarkibida eng kamida ikkita so'z qatnashadi. Uchinchidan, ibora yoki uning bir qismi ko'pincha ko'chma ma'noda bo'lgani uchun obrazlilikka boy bo'ladi.

Frazeologik iboralarning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

1. Ibora bir butun holda bir umumiy tushunchani bildiradi, shuning uchun ham u ma'no jihatidan ko'pincha bitta so'zga teng keladi. Masalan, lom-lim demadi – indamadi, og'zi qulog'iga yetdi – xursand, kapalagi uchib ketdi – qo'rqdi.

2. Ibora ma'no va grammatik jihatidan ma'lum bir so'z turkumiga mos keladi, shuning uchun ham u bir butun holda ma'lum bir so'roqqa javob bo'ladi va gapda ma'lum bir gap bo'lagi vazifasini bajaradi. Masalan, ko'z ochib – yumguncha necha ming piyoda va suvori kishilar paydo bo'ldi. (A.Q). U buni sezgan zamon tepa sochi tikka bo'ldi.

Birinchi gapdagi frazeologik ibora hol, ikkinchi gapda esa kesim vazifasini bajarmoqda.

3. Iboralarda so'z strukturasi va tarkibidagi so'zlarning joylashuv o'rnini barqaror bo'ladi. Masalan, xamir uchidan patir, chuchvarani xom sanamoq, yog' tushsa yalagudek.

Shu sababli ham ibora tarkibidagi so'zlarning o'rnini almashtirib bo'lmaydi. (masalan, tushsa yog' yalagudek).

Ammo frazeologizmlar tarkibidagi ayrim so'zlar turli grammatik shakllarda qo'llanilishi (tuyoq shiqillatmoq – tuyog'ini shiqillatmoq), ba'zi so'zlar boshqa so'z bilan almashtirilishi (ishtahasi ochildi – ishtahasi karnay), so'zlar orasiga boshqa so'zlar kiritilishi (toqati juda toq bo'ldi), mumkin.

4. Iboralarning ma'noviy tuzilishini frazeologik ma'no va qo'shimcha ottenkalardan (ma'no) iborat bo'ladi. Masalan, bu yerda ekaningizni eshitib, ko'zinga hech narsa ko'rinmadi, uchib bora qolsam dedim. Bu misolda harakat belgisi ifodalanmoqda. Xuddi ana shunday belgi, harakat kabi ma'nolarning bildirilishi frazeologik ma'nolarni ifodalaydi.

Frazeologik ma'no bilan leksik ma'no bir-biridan farqlanadi. Iboralarda ma'no kuchli darajada ifodalanadi hamda obrazlik ma'nosiga ega bo'ladi.

Qildan qiyiq topmoq, tepa sochi tikka bo'lmoq, yelkamning chuquri ko'rsin kabi frazeologizmlar bildiradigan ma'nolarni bir so'z bilan ifodalab bo'lmaydi.

Iboralar, asosan so'zlarni yoki birikmalarni ko'chma ma'noda ya'ni obrazli tarzda qo'llash yo'li bilan hosil bo'ladi. Masalan, yaxshi odam oshini yer, yomon odam boshini yer. (maqol).

Ba'zi frazeologizmlar ifodalaydigan ma'no so'z birikmasi bildiradigan belgi, harakatdan mantiqan kelib chiqadi. Masalan, nima bu hadeb tutun qaytaradi, arpasini birov xom o'ribdimi? (A.Q).

Arpani xom o'rish, zarar (yomonlik) ekani aniq. Shu sababli arpasini xom o'rmoq iborasidan «yomonlik qilmoq» ma'nosini sezish qiyin emas.

Ba'zi iboralar borki, ular rivoyat, aqida va tushunchalar asosida kelib chiqqan. Ularning ma'nolarini tarkibidagi so'zlar ma'nosidan chiqarib bo'lmaydi. Masalan, «ko'zi uymoq», «ko'zi uchsa» iborasi orqali biror bir hodisa, voqea yuz berishini tushunadi va shu tushunchaga bog'lanadi.

Shunday qilib, yuqorida ko'rib o'tgan misollarimiz iboralarning kelib chiqish yo'llari, ular ifodalaydigan ma'nolarning asosi turlicha hosil bo'lganligini ko'rsatadi.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. Frazeologiya nimani o'rgatadi?
2. Iboralarning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Iboralarga misollar keltiring?

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

Frazeologiya bo'limi, ibora, frazeologik birlik, so'z birikmasi.

MAVZU: Frazeologik iboralarining ma'no xususiyatlari.

Dars rejasi:

- a) Frazeologik iboralarining ma'no xususiyatlariga ko'ra asosiy belgilari va turlari.
- b) Shakldosh, ma'nodosh, qarama-qarshi frazeologizmlar.
- v) Tarixiy jihatidan o'zbek tili frazeologiyasi.

A D A B I Y O T L A R:

1. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M. va boshqalar. «Hozirgi o'zbek adabiy tili». Toshkent, 1980. 143 – 146 betlar.
2. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. va boshqalar. «Hozirgi o'zbek adabiy tili». T. 1992. 113-150 betlar.
3. Mirzayev M., S.Usmonov., Rasulov I. va boshqalar. «O'zbek tili». T. 1970. 48 –51 betlar.
4. «Hozirgi zamon o'zbek tili» (ma'ruza matnlari). T. 2001. 42-44 betlar.

So'zlar o'zining shakl va ma'no munosabatiga ko'ra shakldosh (omonim), ma'nodosh (sinonim) hamda zid ma'noli (antonim) kabi turlarga bo'linadi. Frazeologizmlar ham shakl va ma'no munosabatiga ko'ra xuddi shunday turlarga bo'linadi.

SHAKLDOSHLIK

Tilimizda shunday iboralar borki, ularning tuzilishi, shakli bir xil, lekin ma'nosi tamoman boshqa-boshqa. Masalan, baqiraman! Dod deyman! Dunyoni boshimga ko'taraman! (U). Bilaman, Komila ularni o'z boshiga ko'taradi, keragidan ortiq sharoit hozirlaydi.

Bu misollardagi boshiga ko'tarmoq – qattiq shovqin qilmoq; keyingi gapdagi boshiga ko'tarmoq – yuksak darajada izzat-hurmat qilmoq kabi ma'nolarni anglatadi.

Shakldoshlik qo'l ko'tarmoq (urmoqchi bo'lmoq) – qo'l ko'tarmoq (tarafdor yoki qarshi bo'lmoq); ko'z yummoq (e'tiborsiz qoldirmoq) – ko'z yummoq (qazo qilmoq) singari iboralar tarkibida ham sezilib turibdi. Bunday shakldosh iboralar tilimizda juda kam miqdorda tashkil etadi.

MA'NODOSHLIK.

Ma'nodoshlik hodisasi iboralarda ham mavjud: og'ziga talqon solmoq – mum tishlamoq, toqati toq bo'lmoq – sabr kosasi to'lmoq, boshi shishdi – miyasi g'ovlab ketdi kabi.

Xuddi mana shunday frazemalarning ayni bir ma'noni anglatishi asosida guruhlanishi Frazeologik ma'nodoshlik deb yuritiladi. Buni quyidagi misollar orqali ko'rib o'tamiz: Majlis boshlanguncha bir oz kulishib o'tiraylik. Og'izlaringga talqon solib oldinglar. (P.T). Bir gapirib, o'n kular, hammani og'ziga qaratardi... Bugun mum tishlab qoldi (Oydin).

Shu kunda hammaning boshi shishgan. (O). Ming xil hayol bilan miyam g'ovlab ketdi. (Oydin).

Iboralar so'zlar bilan ham ma'nodoshlik munosabatda bo'la oladi: yulduzni benarvon uradigan - abjir, quling o'rgilsin – ajoyib, yog' tushsa yalagudek – toza, orasta kabi.

ZID MA'NOLILIK

So'zlarda bo'lgani kabi iboralarda ham antonimlik hodisasi uchraydi. Ya'ni qarama – qarshi ma'noni ifodalovchi iboralar antonim – frazeologizmlar deb ataladi: ko'kka ko'tarmoq – yerga urmoq, yuzi yorug' – yuzi shuvit, ko'ngli joyiga tushmoq – yuragiga g'ulg'ula tushmoq singari.

Qamishkapaning ikki obro'li kishisi birini – biri yerga ura boshlagach, majlis yopildi va masala tuman hokimligiga qo'yiladigan bo'ldi. (P.T). Tansiq go'yo bug'ilganday uf tortdi. Bunday qarindoshlarini ko'kka ko'targan dadasidan hafa bo'ldi. U. (O).

Frazeologik ma'noni ta'riflashda uning sinonimi va antonimini ham keltirib o'tish tushunarli bo'ladi.

Masalan, ko'ngli qora – ichi qora - oq ko'ngil kabi. Bu o'rinda birinchi ibora keyingisiga sinonim, keyingisi esa antonimlik ma'noli ifodalangan.

Tilimizda ba'zi bir iboralar borki, ular boshqa tildan aynan o'zicha emas, kalkalash usuli orqali o'zlashtirilgan: g'isht qolipdan ko'chdi – tojik, barmoq orasidan qaramoq – rus tilidan o'zbek tiliga kirib kelgan.

Iboralarning asosiy qismi umum iste'molga oiddir. Ularning shakllanish doirasi jihatidan o'rganish alohida ahamiyatga ega. Turli kasb – korga bog'liqligi jihatidan frazemalarni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Dehqonchilik doirasida shakllangan iboralar: Olma pish, og'zimga tush; shap – shap demay, shaftoli demoq; yetti qovun pishig'i; arpasini xom o'rmoq kabi.

2. Kosiblik, tikuvchilik, duradgorlik doirasida shakllangan iboralar: Ipidan ignasigacha; kalavanning uchini yo'qotmoq; bo'zchining mokisiday; tesha tegmagan; ildiziga bolta urmoq kabi.

3. Pazandalik doirasida ishlatiladigan iboralar: qirq qozonning qulog'ini tishlamoq; qo'lni o'z ko'magiga tortmoq kabi.

4. Tabobat doirasida ishlangan iboralar: Sog' tishini sug'irib olmoq, doriga topilmaydi kabi.

5. Maktab – maorif doirasida shakllangan iboralar: alifni kaltak deymaslik, boshida alif yo'q; lom mim demay; «a» desa, «b» demoq kabilar.

Chegaralangan qatlamni asosan dialektal iboralar tashkil etadi. Masalan, Qashqadaryo shevasida andar - mandarini chiqarmoq (vayron qilmoq), gujuri qaynamoq (g'ayratga to'lmoq); Toshkent shevasida toqi chalmoq (oshqor qilmoq), tili tanglayiga yopishmoq (gapirmay turib olmoq) kabi iboralarni uchratishimiz mumkin.

Iboralarni tarixiylik jihatidan tahlil qiladigan bo'lsak, o'zbek tili frazeologizmlarining asosiy qismi zamonaviy qatlamga hosdir.

A.Navoiyning «Hayrat ul - abror» asarida quyidagi tarixiy iboralarni uchratamiz:

Yo ulus ichra yuz suyi sohib,

Yo olibon boshini bir yon qochib.

Bu misoldagi yuz suyini sohib iborasi obro'sini yo'qotib ma'nosida qo'llangan.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida tarixiy iboralarning variantlari qo'llanilmoqda:

Silqibon ul yaxshi - yomoniga yeng,

Anglab ulus yuqiyu borini teng.

A.Navoiy. («Hayratul - abror»).

Qilayotgan ishga qo'l siltash sizga yarashmaydi, Faxriddin aka! (P.T).

O'zbek adabiy tilida so'zlar kabi frazeologizmlar ham keng doirada qo'llaniladi hamda tilning boyib, rivojlanib borishida katta ahamiyat kasb etadi, nutqning ta'sirchanligini oshirishga yordam beradi.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. Iboralarga misollar keltiring va ularni asoslab bering?
2. Iboralar ma'no xususiyatlariga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
3. Ma'nodosh, shakldosh, qarama-qarshi ma'noli iboralarni sharhlang?
4. Tarixiylik jihatidan o'zbek tili frazeologiyasi deganda nimani tushunasiz?

TAYANCH IBORALAR:

Frazeologizmlar, shakldosh, ma'nodosh, qarama – qarshi iboralar, dialektal iboralar.

MAVZU: L e k s i k o g r a f i y a.

Dars rejasi:

1. Leksikografiya haqida umumiy ma'lumot;
2. Lug'atlar va ularning turlari haqida;
3. Qomusiy (ensiklopedik) va lingvistik (filologik) lug'atlar.

A D A B I Y O T L A R:

1. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M. va boshqalar. «Hozirgi o'zbek adabiy tili». T. 1980.
2. Hozirgi zamon o'zbek tili. (ma'ruza matnlari). T. 2001. 44-46 betlar.
3. Mirzayev M., Usmonov I. va boshqalar. O'zbek tili. T. 1970. 52 –54 betlar.
4. Tursunov U., Muxtorov J., va boshqalar. «Hozirgi o'zbek tili». T. 1992.

Leksikografiya tilshunoslik ilmining bir sohasi bo'lib, unda lug'at va uning turlari, lug'at tuzish yo'llari kabi masalalar o'rganiladi. Leksikografiya so'zi yunon tilidan olingan, grapho - «yozaman» degan ma'noni anglatadi. So'zlarning ma'lum maqsad bilan to'plangan, tartibga solingan kitob yoki boshqa shakldagi to'plami lug'at deyiladi. So'z va iboralarni lug'aviy birliklar sifatida o'rganish natijalari odatda lug'atlarda o'z aksini topadi. Leksikografiya boy tajribaga ega bo'lgan sari uning ham fan sifatida o'z nazariyasi shakllanmoqda. Lug'atchilik oldiga qo'yiladigan talablarning rang barangligi, lug'at turlarining xilma-xilligi bu sohaning kelajagi porloqligidan darak beradi. Lug'atlar turli maqsadlarda tuziladi. Asosan, ular ikki turga bo'lib o'rganiladi.

1. Ensiklopedik lug'atlar;

2. Lingvistik (yoki filologik) lug'atlar. Lug'atning bu ikki turi ham ma'lum tartibda (alfavit tartibda) tuziladi. Lekin ularga qo'yilgan maqsad va ularning xarakteri bir-biridan farq qiladi.

Ikki lug'at orasidagi o'xshashliklar quyidagicha:

1. Lug'atlar tarkibi, asosan, so'zlar orqali beriladi.
2. Ikkala lug'atda ham so'zlar alifbo tartibida joylashtiriladi.

Lug'atning bu ikki turi bir – biridan quyidagicha farq qiladi. Lingvistik lug'atlarning tarkibi lug'aviy birliklardan, ya'ni so'z va iboralardan iborat bo'ladi. Ensiklopedik lug'atlarning so'zligida esa so'zdan boshqa birliklar (shaharlar nomi, tarixiy voqealar, davrlar, ijodkorlarning tarjimai holi v.h) ham bo'ladi. Lingvistik lug'atlarning ob'ekti lug'aviy birlik bo'lib, ularda so'z uning ma'nosi, grammatik stilistik belgilari va boshqa xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Ensiklopedik lug'atlarning ob'ekti so'z emas. Binobarin, bunday lug'atlarda til birligi haqida emas, balki ular bildirgan narsalar, tarixiy voqealar, tabiiy va ijtimoiy hodisalar, shaxslar, geografik nomlar haqida ma'lumot beriladi. So'z turkumlaridan esa faqat otlar (terminlar, atoqli otlar) beriladi, xolos.

Ensiklopedik lug'at bilan lingvistik lug'atlarning bir-biridan farqini anglash uchun «O'zbek ensiklopediyasi» hamda «O'zbek tilining izohli lug'ati» da berilgan materiallarni taqqoslab ko'rish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni qomusiy lug'atda har bir so'zga hodisa sifatida qaralsa, filologik lug'atda esa so'zning ma'nolari hamda grammatik uslubiy va ma'noviy xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

Filologik lug'atlardan turli maqsadlarda foydalanishimiz mumkin. Ularni ikki guruhga bo'lib o'rganamiz.

1. Umumiy lug'atlar.
2. Maxsus lug'atlar.

Umumiy lug'atlarda adabiy tilning barcha sohasiga, barcha qatlamiga oid so'zlar o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ham bunday lug'atlar biror jihati bilan chegaralanmaydi, jamiki so'zlar haqida umumiy ta'rif beriladi. Jumladan, «Ruscha, o'zbekcha lug'at», «O'zbek tilining izohli lug'ati», «Imlo lug'ati» kabi.

Maxsus (xususiy) lug'atlarda biror sohaga yoki ma'lum bir qatlamga oid so'zlar majmuasi aks ettiriladi. Ya'ni bunday lug'atlar har bir soha uchun alohida tuziladi va shu bo'yicha nomlanadi: Masalan, «Sinonimlar lug'ati», «Antonimlar lug'ati», «Terminologik lug'at», «Matematik lug'at», «Omonimlar lug'ati», «Frazologik lug'at», «Dialektologik lug'at» va boshqalar.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, har bir lug'at o'z vazifasiga, ma'lumot berishiga qarab nomlanadi.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. Leksikografiya deganda nimani tushunasiz?
2. Lug'atlar qanday turlarga bo'linadi?
3. Qomusiy va filologik lug'atlar qanday lug'atlar hisoblanadi?
4. Lug'atlarning bir – biridan farqi nimada?

TAYANCH IBORALAR:

Leksikografiya, lug'at, ensiklopedik lug'at, lingvistik lug'at, sinonimlar lug'ati, frazeologik lug'at, terminologik lug'at.

MAVZU: Bir tili va ikki tili lug'atlar.

Dars rejasi:

1. Bir tili va ikki tili lug'atlar haqida ma'lumot.
2. Imlo lug'ati, ters lug'atlar va sinonimlar lug'ati.
3. Frazeologik lug'atlar va terminologik lug'atlar.

A D A B I Y O T L A R:

1. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M. va boshqalar. «Hozirgi o'zbek adabiy tili». T. 1980.
2. Hozirgi zamon o'zbek tili. (ma'ruza matnlari). T. 2001. 42-44 betlar, 44-47 betlar.
3. Mirzayev M., Usmonov I. va boshqalar. O'zbek tili. T. 1970.
4. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev SH. va boshqalar. «Hozirgi o'zbek adabiy tili». T. 1992. 74-78 betlar.

Filologik lug'atlar 2 turga bo'linadi.

1. Bir tili (o'z til lug'atlari);
2. Ikki tili (tarjima lug'atlari).

Bir tili lug'atlarda o'z tilining o'z tilining lug'at boyligini tasvirlash, shu tildagi leksik ma'nolarni ta'riflash ko'zda tutiladi. Bu lug'atlarning quyidagi turlari mavjud: 1. Izohli lug'at; 2. Imlo lug'ati (orfografik lug'at); 3. Orfoepik lug'at (talaffuz lug'ati); 4. Morfemik lug'at; 5. Chastotali lug'at; 6. Ters lug'at; 7. O'zlashma so'zlar lug'ati; 8. Frazeologik lug'at; 9. Sinonimlar lug'ati; 10. Dialektal lug'at; 11. Terminologik lug'at.

1. Izohli lug'atda lug'aviy birliklarning ma'nosi izohlanadi. Agarda lug'aviy birlik ko'p ma'noli bo'lsa, uning barcha ma'nolari belgilanadi va har bir ma'nosi izohlanadi. Bunday lug'at o'zbek tilida birinchi marta 1979 yilda yaratilgan va Moskvada nashr etilgan.

2. Imlo lug'ati so'zlarning qoidalar asosida to'g'ri yozish yo'llarini o'rgatadi. Masalan, S.Ibrohimov, M. Rahmonovlarning 1956 yilda chiqargan «Imlo lug'ati», 1964 yilda maktab o'quvchilari uchun «Imlo lug'ati», 1976 yilda nashr etilgan. S.Ibrohimov, E.Begmatova, A.Ahmedovlarning «O'zbek tilining imlo lug'ati» larini ko'rsatish mumkin.

3. Orfoepik lug'atda so'zlarning to'g'ri talaffuz qilish me'yorlari qayd etiladi.

Bunday lug'at birinchi marta 1977 yilda M.Sodiqov va U.Usmonovalar tomonidan yaratilgan.

4. Morfemik lug'atlarda so'zlarning morfemik tuzilishi ya'ni o'zak va qo'shimchalar tartibi beriladi. Bu tipdagi lug'atlar birinchi marta 1977 yilda A.G.G'ulomov, A.Tixonov, R.Q.Qo'ng'irovlar tomonidan tuzilgan.

5. Chastotali lug'at so'zlarning qo'llanish miqdori va ularning foizi haqida ma'lumot beradi. O'zbek adabiy tilidagi so'zlarning qo'llanish miqdori haqida 1972 yilda I.A.Qissen lug'at yaratadi.

6. Ters lug'atlarda so'zlar oxirgi (teskari) tomondan bo'lgan alfavit tartibiga ko'ra joylashtiriladi. Bunday lug'atlar 1969 yilda birinchi marta R.Qo'ng'irov,

A.Tixonovlar tomonidan tuzilgan hamda o'zbek tilini «Chappa lug'ati» nomi bilan Samarqandda nashr etilgan.

Muddat	mandat	shahodat
Bemuddat	odat	laureat
Kandidat	toat-ibodat	
Soldat	valodat	

7. Frazеologik lug'atda o'zbek adabiy tilining frazeologik birikmalari ya'ni iboralarni tavsiflovchi belgilari beriladi. Bunday lug'atda iboralarning izohi va misollar bilan birga, ularning varianti va ma'nodoshlari beriladi. Bu tildagi lug'atlar 1978 yilda Sh. Rahmatullayev tomonidan «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati» nomi bilan chiqqan.

8. Sinonimlar lug'ati ma'nodosh so'zlar qatoridan iborat bo'ladi. Bu tipdagi lug'at bizga kerakli ma'nodosh so'zni o'z o'rnida tanlab qo'llash imkonini ham beradi.

Lug'atda sinonim so'zlar qatori belgilanadi, ularni birlashtiruvchi ma'no ko'rsatiladi, sinonimlik qatoridagi har bir so'zning belgi xususiyatlari ochib beriladi. Sinonimlar lug'ati 1974 yilda A.Hojiyev tomonidan «O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati» nomi bilan nashr etilgan.

9. Dialektal lug'at o'zbek tilining lahja va shevalariga xos bo'lgan, fonetik yoki semantik farqlarni so'z etadi. Lug'atda dialektal so'zning qaysi shevaga oidligi ko'rsatiladi, adabiy tildagi varianti beriladi. 1971 yilda «O'zbek xalq shevalari lug'ati» olimlar jamoasi tomonidan tuzilgan.

10. Terminologik lug'atlar ma'lum bir sohaga oid atamalardan iborat bo'ladi.

O'zbek lug'atchiligida terminologik lug'atlarning asosiy qismlarini tarjima ya'ni ikki tilli lug'atlar tashkil etadi. Bir tilli terminologik lug'atlar juda kam. Bunday lug'atlarga F.Y.Yunusovning «Fiziologik terminlarning izohli lug'ati», H.Y.Bekmuhammedovning «Tarix terminlari izohli lug'ati» ni ko'rsatish mumkin.

Ikki tilli lug'atlarda bir tilning lug'at boyligiga boshqa bir tildan muqobil so'z olinadi, tarjima qilish yo'li ko'rsatiladi.

O'zbek leksikografiyasida uzoq vaqt asosiy o'rinni tarjima lug'atlari egallab keladi. Bu sohada erishilgan katta yutuq deb besh jildli ruscha-o'zbekcha lug'atni (1950-55 yillar), bir jildli ruscha-o'zbekcha lug'atni (1954 yil), ikki jildli ruscha-o'zbekcha lug'atni (1983-1984 yil) ko'rsatish mumkin.

Tarjima lug'atlarining ikkinchi turi o'zbekcha-ruscha lug'atlardir. O'zbekcha – ruscha lug'at avval 1941 yilda, keyin 1959 yilda nashr qilindi. 1988 yilda esa qayta ishlangan holda nashrdan chiqdi.

Tarjima lug'atlariga namuna sifatida: V.V.Reshitovnin «O'zbekcha – ruscha lug'ati» (1957), Y.R.Benyaminov, G.Z.Mirsoatovlarning «Nemischa-o'zbekcha lug'at» (1964), J.B.Bo'ronov, H.R.Rahmonberdiyev va boshqalar «Inglizcha – o'zbekcha lug'at» (1968) va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Ikki tilli lug'atlarning umumiy va maxsus turlari bo'ladi. Yuqorida ko'rib o'tilgan lug'atlar umumiy lug'atlar sirasiga kiradi. Maxsus tipdagi lug'atlarga M.D.Yagudayev., R.H.Mallin «Ruscha-o'zbekcha fizik terminlar lug'ati» (1960), N.T.Hotamov «Adabiyotshunoslikdan qisqacha ruscha-o'zbekcha terminologik lug'at» (T. 1960), M.A.Sobirov «Matematikadan ruscha-o'zbekcha lug'at» (T.1977) va boshqa lug'atlar misol bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, lug'atlar muhim madaniy boyligimizdir. Biz shular asosida o'z savodxonligimizni, nutq madaniyatimizni oshiramiz.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. Bir tilli va ikki tilli lug'atlar deganda qanday lug'atlarni tushunasiz?
2. Lug'atlarni qanday turlarini bilasiz?
3. Imlo lug'ati va ters lug'at haqida tushunchangizni bildiring?

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

Bir tilli lug'at, ikki tilli lug'at, imlo lug'ati, ters lug'at, sinonimlar lug'ati, frazeologik lug'at, terminologik lug'at.

MUNDARIJA

1. O'zbek tili-O'zbekiston Respublikasining Davlat tili	3
2. Til haqida umumiy ma'lumot	9
3. Fonetika haqida umumiy ma'lumot	14
4. Tilning unli fonemalari	18
5. O'zbek adabiy tilining undosh tovushlari	23
6. Nutqning asosiy fonetik birliklari	30
7. Nutq jarayonidagi fonetik o'zgarishlar	35
8. Orfoepiya	39
9. Grafika	43
10. Orfografiya	47
11. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari	50
12. Morfemika	57
13. Leksika va leksikologiya	61
14. So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari	65
15. Ozbek tili leksikasida o'z va o'zlashgan qatlam	71
16. Tarixiylik jihatdan o'zbek tili leksikasi	76
17. Uslubiy jihatdan o'zbek tili leksikasi	80
18. Frazzeologiya	83
19. Frazzeologik iboralarning ma'no xususiyatlari	85
20. Leksikografiya	88
21. Bir tilli va ikki tilli lug'atlar	89